


HIKMATLAR XAZINASI





TOSHKENT – “O’ZBEKISTON” – 2010

УДК: 821

ББК 87.7

047

X 444

To'plovchi, so'zboshi va izohlar muallifi:

*Ergash OCHILOV,
filologiya fanlari nomzodi*

Donishmand ajdodlarimizning avloddan avlodga o'tib kelayotgan qomusiy bilim, keng dunyoqarash, katta hayotiy tajriba, nozik kuzatish mahsuli bo'lgan chuqur mazmun va teran falsafaga ega hikmatli so'zlari, fikr-mushohadalar, pand-nasihatlari qadim ul-ayyomdan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning qudratli quroli bo'lib kelgan. Qo'llingizdag'i kitob Sharqning mashhur olimlari va mutafakkir adiblari asarlari ichida kelgan ana shunday purma'nno hikmatlari va qayroqi fikrlari asosida tuzildi. Ular yosh avlodning axloqiy tarbiysi va ma'naviy kamoloti yo'lida bemiannat murabbiy va hayot darsligi bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

ISBN 978-9943-01-619-4

© “O'ZBEKISTON” NMIU, 2011

TAFAKKUR BEKATI

Biz hikmatli so'zdan molini ham, jonini ham ayamagan donishmand ota-bobolarning surriyotlarimiz. O'zbek xalq ertaklari ma'rifatga tashna ajdodlarimiz har bir hikmatli so'zni bir tillaga olishganidan guvohlik beradi. Amir Temurning esa bir hikmatga ming tillani almashgani naql qilinadi.

Kunlardan bir kuni otasi Amir Temurga bir suruv qo'yni topshirib, Samarqand bozorida ularni pullab kelishni buyuradi. Qo'ylarni ming tangaga sotgan bo'lajak sohibqiron bozor aylanar ekan, qo'lida she'r yozilgan qog'ozni tutganicha, odamlarga nimanidir tushuntirayotgan qalandarga duch keladi.


— Kimda-kim shu she'rni ming tangaga olsa, murod-maqsadiga yetadi, — der edi u.

Temur sira ikkilanib o'tirmay, ming tangani beradi, qog'ozni oladi.

— Buni otang oldida o'qi! — tayinlaydi qalandar.

She'r bitilgan qog'ozni otasiga keltirib beradi. Bu mash-hur valiy va shoir Kamol Xo'jandiying bir ruboysi bo'-lib, mazmuni quyidagicha ekan: "Olamda jabr-u zulm bilan nom qoldirib bo'lmaydi. Jamshid, Sulaymon, Iskandar kabi jahonni titratgan buyuk hukmdorlar bu hayotni tark etib ketdi. Hademay senga ham navbat yetishi tayin. Dunyo-ga keldingmi, o'zingdan ezgu nom qoldir".

Otam rosa adabimni bersa kerak, deb ming bir xavf-u gumon o'tida o'rtanib turgan Temur kufil maganda shun-day so'zlarni eshitadi:



— Pulni ko‘p ezgu yo‘lda sarf etibsan, o‘g‘lim, — deydi Amir Bahodir Tarag‘ay. — Endi bu hikmatga bir umr qattiq rioya etish kerak bo‘ladi.

Amir Temurning bir umr adl-u adolatni shior qilib yashagani, odil hukmdor sifatida nom chiqargani, hamisha el e’zozida bo‘lib kelayotgani bu rivoyat bejizga to‘qilmaganligini ko‘rsatadi.

Darhaqiqat, dunyoda o‘zbek xalqiday hikmatni jon-u dilidan sevadigan, hamisha o‘qib, yod olib, o‘zaro suhbatlarda, davralarda aytib yuradigan yana bir xalq bo‘lmasa kerak. Biror maqol yoki hikmatli so‘z bilan so‘ziga zeb bermaydigan, fikrini tasdiqlamaydigan o‘zbekni topish amrimahol. Chunki, ta’bir joiz bo‘lsa, maqol va hikmat bizning zuvalamizga qo‘shib qorilgan, ona suti bilan jis-mimizga, ona allasi bilan qulog‘imizga singgan. Tanglayimiz maqol va hikmatlar bilan ko‘tarilgan. Oilada, bog‘chada, mакtabda, ishda — hayotning har bir jabhasida ular bizga hamisha hamroh-u hamdam.

Buyuk nemis shoiri va mutafakkiri I.V. Gyote: “Har kuni hech bo‘lmasa bitta qo‘sinq eshitish, chiroyli bir suratni tomosha qilish va iloji bo‘lsa istagan bir hikmatli so‘zni o‘zlashtirib olish kerak”, — degan edi. Biz har kuni rasm ko‘rmasligimiz mumkin, lekin qo‘sinq eshitmagan, hikmat tinglamagan kunimiz yo‘q. Chunki biz qo‘sinq bilan tirikmiz, biz hikmat bilan nafas olamiz.

“Olam boshdan-oyoq hikmatdan iborat”, — deb lutf etgan edi Abulqosim Firdavsiy. Chindan ham, bu dunyoda biror-bir hikmatga ega bo‘limgan narsa-hodisaning o‘zi yo‘q. Aql ko‘zi bilan boqqan kishi har bir zarrada hikmat ko‘radi.

Rivoyat qilishlaricha, bir podshoh o‘z qalamravidagi barcha olimlarni bir yerga to‘plib, dunyodagi bor kitob-larning mazmunini jam etishni amr qilibdi. Uzoq mashaq-qat chekib, bu farmonni ado etibdilar — 400 jild bo‘libdi. “Bu nihoyatda ko‘p, ixchamlashtiring”, — buyuribdi yana. Qisqartirishgan ekan, 40 jildga kelibdi. “Mag‘zini qoldi-

ring”, – deb farmon beribdi shohning ko‘ngli to‘lmay. Bu gal 4 kitobga jo bo‘libdi. Tag‘in buyruq bo‘libdi, bundan-da muxtasar shaklga kirib, bor-yo‘g‘i to‘rt so‘zda ifodasini topibdi. Bizningcha, ana shu to‘rt so‘zning nomi – hikmat. Chunki butun dunyodagi kitoblarning mazmun-mohiyati to‘rt so‘zda jamuljam bo‘lganidek, ba’zida to‘rt so‘zdan iborat hikmatda bir olam ma’no mujassam bo‘ladi.

Xalq donishmandligi maqollarda aks etsa, olim-u adib-larning chuqur mazmunga ega fikr-mulohazalar hikmatli so‘zlarda o‘z tajassumini topgan. Ushbu kitob jahon tamadduning beshigi bo‘lgan ko‘hna Sharqning Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Nosir Xisrav, Umar Xayyom, Mahmud Zamashshariy kabi dunyo ilm-u adab ahli e’tirof etgan qomusiy allomalar, Ahmad Yassaviy, Imom G‘azzoliy, Abdulloh Anso-riy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Xoja Orif Revgariy (Mohitobon), Pahlavon Mahmud, So‘fi Olloyordek musulmon olamida mashhur ulamo-yu avliyolari, Abu Abdulloh Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Yusuf Xos Hojib, Nizomiy Ganjaviy, Farididdin Attor, Ahmad Yugnakiy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Berdaq, Maxtumqli singari buyuk so‘z san’atkorlarining chuqur bilim, keng dunyoqarash, katta hayotiy tajriba, nozik kuzatish, teran mushohada mahsuli bo‘lgan rang-barang mavzudagi qavat-qavat ma’no qatlamiiga ega hikmatli so‘zlari va falsafiy o‘y-mushohadalar asosida tartib berildi. Topib aytilgan, salmoqli mazmunni o‘zida ifodalagan, go‘zal shakldagi mazkur lo‘nda qayroqi fikrlar har qanday ko‘ngilni o‘ziga jalb etib, xotiraga oson o‘rnashadi va bir umrga muhrlanib qoladi. Ularning asrlarni bo‘ylab bizning kunimizgacha yetib kelgani hamda hanuz o‘z ta’sir va ahamiyatini yo‘qotmaganligining siri ham shunda.

Hikmatli so‘zlar, obrazli va quyuq falsafiy mushohadalar badiiy asarning ham mag‘zi, qaymog‘i. Hikmatli so‘zlar va bo‘liq ma’noli fikrlarga boy kitoblar aqlni charxlaydi, qalbga quvvat, ruhga oziq beradi, kishilarning axlo-

qiy tarbiyasi va ma'naviy kamolotiga beqiyos ta'sir ko'rsatadi. Odamlar kitob mutolaa qilganlarida ana shunday ko'ngil torlarini chertib, idroklarini nurlantiradigan hikmatli so'zлarni izlashlari bejiz emas.

Ko'ngul dardig'a darmondur nasihat, — deb yozgan edi Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida. Bu — bejiz emas. Chunki pand-nasihat kishiga taskin beradi, dardini yengillashtiradi, o'zini qo'lga olishiga yordam beradi; to'g'ri yo'lni ko'rsatadi, har qanday tushkun, umidsiz kishini qayta yashashga, kurashga otlantiradi. So'zning, ayniqsa, hikmatli so'zning ta'sir kuchini hech narsa bilan o'chab bo'lmaydi. Shuning uchun hadisi sharifda ham: "Hikmatli so'z mo'min kishining yo'qotgan narsasidir. Uni qayerdan topsa, o'zlashtirib olishga haqlidir", — deyiladi. Sizning hukmingizga havola etilayotgan bu hikmatlar majmuasi ham qomusiy alloma va mutafakkir adiblarimiz asarlari ichida kelgan hikmatli so'zлari va ibratlari fikrlaridan iborat.

Donishmand ajdodlarimiz asrlar davomida yaratgan eng yaxshi va eng go'zal tafakkur durdonalarini bir joyga jamlash bebaho bir xazina bunyod etish hisoblanадики, ushbu to'plamni ana shunday xazinani barpo qilish yo'lidagi bir urinish, ushbu hikmatlarni ana shu xazinadan olingan bir hovuch gavhar deb bilgaysiz, aziz hikmatsevar do'stlar!

*Ergash OCHILOV,
filologiya fanlari nomzodi*

ABU ABDULLO RUDAKIY

(858 — 941)

* * *

Jahonning shodligi yig'ilsa butun,
Do'stlar diydoridan bo'lolmas ustun.

* * *

Har kishi hayotdan olmasa ta'lif,
Unga o'rgatolmas hech bir muallim.

* * *

Har qancha bo'lsa ham olamda achchiq,
Achchiqroqdir dono do'stdan ayriliq.

* * *

Odamdan yuqori turarkan olam,
Bilim oshirmoqqa muhtojdir odam.

* * *

Odamlar qalbining charog'i bilim,
Yomondan saqlanish yarog'i bilim.

* * *

Shu oddiy ko'z bilan boqmag'il, balki
Bilim ko'zi bilan boqqil jahonga.

* * *

Jahon daryo erur, yaxshi ishingdan
Kema yasab o'tgil nari tomonga.

Munirxon Muinzoda tarjimasi

* * *

Dononing istagi sulh-u maslahat,
Nodonning istagi jang, janjal, g‘avg‘o.

* * *

Ilonni har qancha qilsang tarbiyat,
Oxir zahrin sochib, yetkazar zahmat.

Nokas tabiatи ilon kabitidir,
Yuzin ko‘rmaslikka etgil harakat.

* * *

Omad kelgan kun bo‘l o‘ynoqi toychoq,
Donishmand keksa bo‘l qayg‘u kelgan choq.

* * *

Ahvoling tang kelsa, tinchima zinhor,
Har qanday tanglikdan chiqish yo‘li bor.

* * *

Badniyatli dushman yotadir pusib,
Senga hujum qilish vaqtini kutib.

* * *

Dushman ko‘plik qilar bitta bo‘lsa ham,
Do‘sting yuz bo‘lsa-da, ming bo‘lsa-da kam.

* * *

Oshkorga qaragil oshkor ko‘z bilan,
Nihonga ichdagi bedor ko‘z bilan.

* * *

Shoshmay bir me'yorda aylanar osmon,
Sen ham shunday shoshmay ishla, ey inson.

* * *

Tanballikdan olis bo'l, olis,
G'ayratdir ish bitishga bois.

* * *

Topganing o'zing ye va ko'rgil baham,
Baxtlidir borini bo'lishgan odam.

* * *

Egrini tuzatmoq emasdир oson,
To'g'rini ham egri tushunar nodon.

* * *

Yomonliqdir qing'ir kishi yumushi,
Hech kimsaga foyda keltirmas ishi.

* * *

To'g'ri yo'ldan toyma, toyma, ey odam,
Egri yo'ldan borar joying jahannam.

* * *

Rostlikdan topursan dunyoda shodlik,
Qing'irga aytib qo'y, qayda obodlik.

Shoislom Shomuhamedov tarjimasi

* * *

To'g'ri, ravon yo'ldan tashlagil qadам,
Egri, mushkul yo'ldan yurma sira ham.

* * *

Hayotda tajriba orttirsang agar,
Boshga ish tushganda kuningga yarar.

* * *

Hayotda ko'p ko'rdik, qildik sarhisob:
Mayni do'st tutganlar bo'ldilar xarob.

* * *

Agar yaxshi kishining yomon bo'lsa bolasi,
Gunohkordir o'zi ham, behuda oh-nolasi.

* * *

O'z nafsigi kim bo'lsa amir, uldir — mard,
Hech kimsaga bo'lmasa asir, uldir — mard.
O'tmak sira mag'lubni tepib mardlik emas,
Tutsa qo'lidan zabuñni¹ er, uldir — mard².

* * *

Yeb-ichishdan ortar ranj-u mashaqqat,
O'zini tiyganga yor bo'lar davlat.

* * *

Har kuni oz-ozdan ishlasa kishi,
Bir kuni so'nggiga yetgusi ishi.

* * *

Gapirgan gapdan ko'p bo'ldim pushaymon,
Gapirmagan gapdan hamisha shodmon.

* * *

Ilmdan ortiq ganj yo'qdir dunyoda,
Uni egallasang, umring ziyoda.

* * *

Qarg'a-quzg'un bo'lsa kimga rahnamo,
Jahannam qa'rida manzil-ü ma'vo.

Ergash Ochilov tarjimasi

¹ Zabuñ — bechora, ojiz, notavon, mag'lub.

² Bu ruboyi Pahlavon Mahmudga ham nisbat beriladi.

ABU NASR FOROBIY

(873 – 950)

* * *

Inson yuksak kamolotga erishuv yo‘lida harakat qilganidek, aqliy bilishga ham harakat qilsa, hech shubhasiz, o‘zi intilayotgan so‘nggi darajadagi baxt-saodatga erishadi.

* * *

Har bir kishi kasb-korini mukammal bilmog‘i, yaxshi tarbiya olmog‘i va yaxshi xulq-atvor, fazilatlarga ega bo‘lmog‘i lozim. Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang‘ich asos insoniylikdir, shuning uchun ham odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari sababli o‘zaro tinchlikda yashamoqlari lozim.

* * *

Inson har doim quvnoq, xushchaqchaq bo‘lishi va baxtiyor yashamog‘i zarur.

* * *

Haqiqat tarqatib ket, bo‘lsa imkon.

* * *

Baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi fazilatli jamoadir. Baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam bergen xalq fazilatli xalqdir. Shu tartibda barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir-birlariga yordam bersalar, butun yer yuzi fazilatli bo‘ladi.

* * *

Har bir inson o'z tabiatini bilan shunday tuzilganki, u yashashi, oliv darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritma olmaydi va ularga ega bo'lishi uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj sezadi.

* * *

Har kimki ilm-hikmatni o'rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, salomatligi yaxshi bo'lishiga intilsin, axloq-odobli bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlansin, xiyonat va makr-hiyladan uzoq bo'lsin.

* * *

Yomon ishlardan o'zini ehtiyyot qilib yurganlarnigina bilimdon deyish mumkin.

* * *

Ilimga kirishgan kishi tirikchilik masalasidan xotirjam bo'lishi kerak.

* * *

Daraxtning kamolga yetgani mevasi bilan bo'lganidek, baxt-saodatning mukammal bo'lishi yaxshi xulqlar bilan bo'ladi.

* * *

Kimki o'zini o'z darajasidan yuqori ko'targuday bo'lsa, unday kishiga kamolot yo'li to'silib qoladi.

* * *

Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmaydi va ulardan jirkanadi.

* * *

Kishilar jismoniy va tug‘ma qobiliyat, kuch-quvvatda
bir-birlaridan ortiq-kam bo‘ladilar.

* * *

Soxta pul toza pul hisoblanmaganidek, yolg‘on so‘z
hech mahal pishiq gap bo‘lmaydi.

* * *

Aqli deb shunday kishiga aytamizki, unda o‘tkir zehn-idrok bo‘lishi bilan birga, fazilati ham bo‘lsin. Bunday kishi o‘zining butun qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o‘zini saqlashga va tortishga qaratgan bo‘lmog‘i lozim. Shunday odamningina aqli va to‘g‘ri fikr yurituvchi deb atash mumkin.

Abdusodiq Irisov tarjimasi

ABULQOSIM FIRDAVSIY

(934 – 1030)

* * *

**Yomonlikni aslo aylama odat,
Ozga qanoat qil, ochlikka toqat.**

* * *

**Baland saroy qurib qilgandan obod,
Yaxshidir bir g‘arib dilin qilsang shod.**

* * *

**Kimki to‘g‘rilikni o‘ylamas dildan,
Nafratga sazovor ul kishi chindan.**

* * *

**Xudo ne’matlarin oliysi idrok,
Aqlni vasf etar, kimki dili pok.**

* * *

**Aql yo‘l ko‘rsatib, dilni etar shod,
Har ikki olamda aqli obod.**

* * *

**Agar aqli xira bo‘lsa har inson,
Shodlikka erisha olmas bir zamon.**

* * *

**Gar aqlin rahnamo qilolmas kishi,
Dilin o‘rtar uning qilgan har ishi.**

* * *

**Aql ulug'likka etadi payvand,
Aqlsizning doim oyog'ida band.**

* * *

**Aql dil ko'zi-ku, fahmiga yetsang,
Yaxshimas jahondan ko'r o'tib ketsang.**

* * *

**Hamisha aqlingni rahnamo etgil,
Noloyiq ishlardan olisroq ketgil.**

* * *

**Ilmdan bir shu'la dilga tushgan on,
Shunda bilursankim, ilm bepoyon.**

* * *

Jahonda hech ish yo'q bo'lmasin tadbir.

* * *

**Yovni kichik bilib, kutma omonlik,
Kuning bitar, taqdir qilsa yomonlik.**

* * *

**Jahonni bermaylik, keling, yomonga,
Barchani boshlaylik yaxshi tomonga.**

* * *

**Yaxshi ham, yomon ham qolmas poydor,
Yaxshisi "yaxshilik qolsin yodgor".**

* * *

**Har qachon yangi yo'l tanlarkan kishi,
Ta'na-malomatlar eshitmoq ishi.**

* * *

Jahonda qoldirsak agar yaxshi nom,
Bizdan so'ng faqat shul etadir davom.

* * *

Yomonlikni kimki qilibdur odat,
Bu dunyoda nomi o'char oqibat.

* * *

Nima eksang o'sha tushar o'roqqa,
Nima desang shu so'z inar quloqqa.

* * *

Olamda dard yo'qki, bo'lmasin darmon.

* * *

Jahon boshdan-oyoq hikmat-ku, hikmat,
Nechun g'aflat bo'l mish bizlarga qismat.

* * *

Taqdir yomonliqni ko'rganda ravo,
Saboq ol, undan ham yog'ilsin ziyo.

Shoislom Shomuhamedov tarjimasi

ABU RAYHON BERUNIY

(973 – 1048)

* * *

Odamlar o'rgangan, odatlangan va ko'pchilikka ma'qul bo'lgan narsaga (ko'r-ko'rona) qarshilik ko'rsatma.

* * *

Yaxshi xulq yaxshilik alomatidir.

* * *

Kichik narsaga e'tiborsiz qarama, uning foydali o'rni bor, katta ishning kerakli joyi bor.

* * *

Ko'z bilan ko'rgan eshitgandan afzaldir.

* * *

Ehson qilgan kishining minnati ehsonini yo'qqa chiqaradi.

* * *


Odamlar bilmagan narsalariga dushmanlik ko'zi bilan qaraydilar.

* * *

Yolg'on doim rostdan yengiladi, u xuddi suv yuzasida-
gi ko'pikdek yo'q bo'lib ketadi.

* * *

Yaxshi bilmagan narsasiga
bo'ladi.



* * *

Bilmaganligimiz sababli bilgan narsalarimizni aytmay qo'yishimiz ham yaxshi emas.

* * *

Har bir insonning qadr-qimmati o'z ishini qoyil qilib bajarishida.

* * *

Donishmand va olimlar xulqlaridan o'mak olish yaxshi xulqni turgizadi, yomonini yo'q qiladi.

* * *

Xato sodir bo'lmasligi uchun donishmandlar qayta-qayta kuzatishni va xalal etish imkoniyatidan saqlanishni tavsija qilganlar.

* * *

Buzuq niyatli va yomon axloqli kishilar o'rtaga kirib olishi bilan ish to'g'ri bormaydi.

* * *

Asosi bo'limgan fandan voz kechsa ham bo'ladi.

* * *

To'g'ri yo'ldan ataylab eng uzoq yo'lga o'tish juda zo'r xatodir.

* * *

Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldamchi ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi.

* * *

Kuzatishlarning turlichaligi emas, balki davrlarning turlichaligi ahmoqlar asoslanadigan fikrni rad etishga yetarli dalil va eng kuchli yordamchidir.

* * *

Bir narsani oson yoki qiyin deb mutlaq qilib aytish kam uchratiladi, balki ahvolning turlichaligiga qarab, oson va qiyin deyiladi; u narsa ahvolga ko'ra bir jihatdan oson va boshqa jihatdan qiyin bo'ladi.

* * *

Bilim — qaytarish va takrorlash mevasidir.

* * *

Bilimsiz kishilarning ko'ngli xurofotga moyil bo'ladi.

* * *

Kishining ko'ngli kelishgan va tartibli har bir narsaga qiziqadi, tartibsiz narsadan nafratlanadi.

* * *

Asalarilar ham o'z jinsidan bo'la turib, ishlamay uydagi asalni bekorga yeb yotadiganlarini o'ldirib tashlaydi.

* * *

Sevimli narsalarga mashaqqat bilan, yaxshilikka esa o'ziga sevimli bo'lган narsalarni sarf qilish bilan erishiladi.

* * *

Ne'matning qadri u yo'qolgandan keyingina bilinadi.

* * *

Odamlarning maqsadlari xilma-xil xalqlar o'rtaida tortishish va talashish ko'p bo'ladi.

* * *

Yolg'onchilikdan chetlanib, rostgo'ylikka yuz tutgan kishini boshqa odam u yoqda tursin, yolg'onchining o'zi ham sevib maqtaydi.

* * *

Agar xabarga yolg'on-yashiq aralashmaganda u ko'rishga nisbatan ortiqroq o'rinda turgan bo'lur edi.

* * *

Bugunning chorasini ko'rib, ertaga ehtiyoji qolmagan kishi aqllidir.

* * *

Ba'zi bir so'zlar borki, u bir din va tilda bema'ni bo'lsa, boshqa din va tilda bema'ni bo'lmaydi.

* * *

Tabiat yaxshini yomondan ayirmasdan, hamma narsaga bir xilda ta'sir qiladi.

* * *

Ulug' hodisalar har vaqt yuz beravermaydi.

* * *

Ba'zilar isbot kuchsiz bo'lsa ham o'zlariga yoqqan narsani tan oladilar, garchi rost bo'lsa ham, e'tiqodlariga to'g'ri kelmaydigan narsadan qochadilar.

* * *

Har bir yangi narsada lazzat bor.

* * *

Maqsad va irodalar har xil bo'lgach, hunar va sinoatlar ham rang-barang bo'ladi.

* * *

Ko'pchilik kishilarning tabiatini pastkash qiladigan yomon xulqdan, haqiqatni ko'rishga imkon bermaydigan omillurdan tozalash kerak.

* * *

Ilmlarning foydasi ochko‘zlik bilan oltin-kumush to‘plashda bo‘lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo‘lishdadir.

* * *

Til – so‘zlovchi istagini eshituvchiga yetkazuvchi tarjimondir.

* * *

Xayr-saxovat ham mardlik sanaladi.

* * *

Mardi maydon shunday odam bo‘ladiki, erta-yu kech dushmanga zararu do‘stga foyda keltiradi.

* * *

Istagiga erisha olmagan kishini malomat qilinmaydi.

* * *

Ishi yurishmaganni tahqirlama.

* * *

Oltin-kumush qadri odamlar orasida tabiiy suratda emas, balki sun’iy suratda yuksaladi. Chunki bu ikkalasi tosh bo‘lib, odamni to‘ydirolmaydi, tashnalikni qondirolmaydi, zararni daf qilolmaydi, mashaqqatdan saqlay olmaydi.

* * *

Hammaning tabiatida adolat bevosita sevikli va hamma uning yaxshiligini bilgani kabi, rostgo‘ylik ham shunday.

* * *

Rostgo‘ylik lazzatini totmagan yoki lazzatini bilsa ham, totishni istamagan kishi uni sevmaydi.

* * *

Shunday kishilar ham bo‘ladiki, ularning tabiatiga yolg‘on xabar tarqatish odati o‘rnashib qolib, go‘yo unga shu vazifa yuklangandek bo‘ladi va yolg‘on xabar tarqatmasa tinchiy olmaydi. Bu esa yomon xohishlardan va tabiatiga buzuq fikrlarning joylashganidan kelib chiqadi.

* * *

Odamlarda yoqtirgan kishilari tarafini olib, yomon ko‘rgan kishilarini ta’na qilish odati bor.

* * *

Komil narsa ortiqchalikni ham, kamchilikni ham qabul etmaydi.

* * *

Soqov nazarida barcha odamlar ham soqovdir.

* * *

Jo‘rttaga o‘z so‘zida turib olgan bilimsiz kishi bilan bahslashish na maqsad egasiga va na maqsadga biron foyda yetkazadi.

* * *

Amir Ismoil Somoni debdi: “Ajdoding shuhratiga suyanma, o‘zingga o‘zing shuhrat top”. Kimda-kim qarindoshlari sababli o‘ziga obro‘, yaqinlik axtarsa va o‘tgan ajdodlari bilan faxrlansa, o‘sha kishining o‘zi o‘lik, ajdodlari esa tirik sanaladi.

* * *

Ba’zi bir kishilar o‘zining past tabiatligi sababli biron yaxshilikka erishish uchun yoki o‘zining yuraksizligi va qo‘r quoqligi sababli yomonlikdan qutulib qolish uchun yolg‘on xabar tarqatadilar.

Abdusodiq Irisov tarjimasi

ABU ALI IBN SINO

(980 – 1037)

* * *

Yomon yo yaxshilik qilgay har kishi,
Shu yomon, yaxshini topmoqdir ishi.

* * *

Agar ovqat cheksiz laziz bo'lsa ham,
Ko'p yemagil — keltiradi dard-u g'am.

* * *

Ko'rlarga quyosh ravshan emas-ku,
Johilga to'g'ri yo'l pinhon shuningdek.

* * *

Bir ovqating hazm bo'lmay, yana ovqat demagil,
Ehtiyyot bo'l, kasal bo'lib, so'ng pushaymon yemagil.

* * *

Mayda xatni ko'p o'qima, ko'zga u bo'lur zavol.

Shoislom Shomuhamedov tarjimasi

* * *

Ko'nglim sira ilm tahsilidan mahrum emas,
Qoldi juda oz sir menga to mavhum emas.
Yetmish ikki yil tinmay ilm o'rgandim,
Ma'lum bo'ldi: hech nima ma'lum emas.

* * *

Ey nafs, qidirganing mudom hoy-u havas,
O'zingni himoya qilgali shosh bu nafas.
Dunyo dema, qo'y hiylani, mansab tilama,
Dushmanlik ishing hamisha, hech do'stlik emas!

* * *

Do'st og'zi-burun o'pishsa dushman-la chunon,
Tark et bu kabi munofiq ulfatni shu on.
Omuxta esa zahar — shakardan voz kech,
Qoch pashshadan ostida agar bo'lsa ilon.

* * *

Ul damgacha, to jahonni tark etgaysan,
Oh-vohsiz umr manziliga yetgaysan.
Har qancha ishing bo'lsa, bugun ayla shitob,
Erta dema, noiloj qolib ketgaysan.

* * *

Ketmas yo'qolib hech nima benom-u nishon,
G'ayb olamidan joy oladi u shu zamon.
Bir kun yana o'z asliga evrilsa falak,
Sir pardasidan chiqargusi haq begumon.

Ergash Ochilov tarjimasi

* * *

Baxt uchun belgilangan vaqt bor — sen u vaqtdan
oldin baxtga erisholmaysan.

* * *

Agar do'stlik savdo-sotiqqa o'xshab, ehtiyoj talabiga
qarab istalsa, unga zarurat bo'limganda nazarga ilinmay
tark etilsa, unda qanday do'stlik bo'ladi?

* * *

Do'st o'z do'stini biron kulfat yuz bergandan o'zga vaqtida hech ziyyorat qilmasa, zarur bo'lib qolgandagina eslab, boshqa vaqt eslamasa, shu ham do'stlik bo'ldimi, axir?

* * *

Agar shayton odamlarni orqadan alday olmasa, u hech qachon aldashga muyassar bo'la olmaydi.

* * *

Odamlarning botiri kelajakdagi mushkulotdan qo'rqlaydi. Kamolga yetishdan chetlangan kishi odamlarning eng qo'rqlig'i idir.

* * *

So'zning eng yomoni amal qilinmay zoye ketganidir.

* * *

Xudoning taqdiridan qochib qutuladigan odam ham, qochadigan joy ham yo'q.

* * *

Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi. Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi.

* * *

Yaxshilik hammaga bevosita sevimli. Agar shunday bo'l-maganda edi, har kim o'z istagan yoki orzu qilgan va yoki o'zicha yaxshilik deb tasavvur qilgan biror narsasini o'z oldiga maqsad qilib qo'yagan bo'lardi.

* * *

To'g'rilik, agar u to'g'riliqi isbotlanayotgan narsaning bevosita o'zida topilsa, u holda u o'sha narsani mustahkamlaydi, yaxshilaydi.

* * *

To‘g‘ri deb o‘ylanilgan qanchadan qancha narsalar bo‘-ladiki, ular aslida to‘g‘ri bo‘lmay, balki faqat xatolardan iborat bo‘ladi.

* * *

Xulqning muvozanatda bo‘lishi badan salomatligini saqlaydi.

* * *

Jahling chiqqan taqdirda ham birovga qattiq baqirma.

* * *

Kek aslida aziyat bergen narsaning fikrda takrorlanishi bilan hamda undan o‘ch olish orzu-xayolining takrorlanishi bilan paydo bo‘ladi. Uning paydo bo‘lishiga g‘azabning bir qadar davom etishi ham sabab bo‘ladi.

* * *

Bilginki, agar g‘azab tez o‘tib ketsa, uning surati xayolda takrorlanmaydi va yo‘q bo‘lib ketadi, natijada kek hosil bo‘lmaydi.

* * *

Quruq gapning o‘zi hech qachon lo‘nda dalil bo‘lол-
maydi.

* * *

Agar siringni saqlasang, u sening asiringdir, agar oshkor bo‘lsa, sen siringning asiri bo‘lib qolasan.

* * *

Har bir ishda ehtiyyotkorlikni qo‘ldan chiqargan va biliqbilmay pala-partish bir ishni boshlagan kishining pushaymon qilishi turgan gap.

* * *

Bir kishi sen bilan bo'lgan munosabatda 'xato qilsayu, senga uzr bayon etsa, uznini qabul qilishni kechiktirma.

* * *

Kundalik rizq uchun ko'p qayg'uraverma. Shu bilan birga, mol orttiraman deb o'zingni ko'p qiynayverma, chunki har kim o'z nasibasidan ortiq bitta ham don yeya olmaydi.

* * *

Mol-dunyoing seni aldamasin. Asragan mol-dunyoing boshqalarniki bo'ladi, ularni sarf eta olsang, o'sha seniki bo'ladi.

* * *

Boylikni topishibdi-yu, aql-idrokni yo'qotishibdi. Ajabo, topgan narsalari bilan yo'qotgan narsalarining bahosi bir xilmidi?

* * *

Bizga yuksalmoq va ko'klar muhitiga chiqmoq yarashadi.

* * *

Tabiatda bekorchi narsalar bo'lishining o'zi bo'lma-gan narsadir.

* * *

San'at tabiatdan zaifroqdir.

* * *

Har bir tabiiy narsa o'lchangan bo'ladi, lekin har bir o'lchangan narsa tabiiy bo'lavermaydi.

* * *

Kishining aqli ziyod bo'lsa, zamonasidagi yetishmov-chilikdan unga ziyon yetmaydi. Yetishmaslik bo'lishiga qaramay, unday kishi oqilligi soyasida yaxshi kun ko'ra oladi.

* * *

Ulug'lik insonga eng yomon hodisalarning yaqinlashishiغا yo'l qo'ymaydigan bir matonatni jamlovchi kuchdir.

* * *

Farosat deb sezgidan keladigan ishoraning asl ma'nosiga tezda yetishmoqqa aytildi.

* * *

Ilm — narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishi dir.

* * *

Bayon — inson fikriga kelgan ma'noning yaxshi ifodalishidir.

* * *

Insondagi sir saqlay bilish xislati oshkor qilish xavfi tug'ilganda uni ushlab tura biluvchi kuchdir.

* * *

Boshqalarda ko'rganni juda qattiq istamaslik ham qanoat hisoblanadi.

* * *

O'z kuchini zarur bir me'yorda ushlab turish ham qanoat sanaladi.

* * *

Sabr deb, inson boshiga tushgan alam va chidab bo'l-maydigan og'riqni to yenggunga qadar ushlab turishga aytiladi.

* * *

Kishini qabih va bemaza ishlarga qadam qo'yishdan tutib turadigan va uni yaxshi xulq va ishlarga undaydigan kechimaga hayo deyiladi.

* * *

Yordam berishning go'zalligi undan kishining tasalli topishida ko'rinadi.

* * *

Xulqlarning barchasi o'z tabiat bilan go'zal bo'ladi, yomon xulq-atvorlarga esa keyin erishilgan bo'ladi.

* * *

Biz go'zal bir narsaga odatlanadigan bo'lsak, bu odatimizdan go'zal xulq-atvor yuzaga keladi.

* * *

Kamtarlik shunday bir xislatki, bu bilan inson bilimma'rifati, kuch-qudratini yashirib, o'zini tabiatan ojiz, eziłgan va o'z jinsida yuqori darajaga ko'tarilishda biror kamchiligi borday sezdiradigan bo'ladi. Yana bir xil odamlar boshqa birovdan nafsoniy yoki jismoniy tomondan o'ta ortiqligini yashirib keladigan bo'ladi.

* * *

Oliyanoblik kishida shunday bir ajoyib fazilat va shonsharafni oshiradigan xislatki, hatto bunga erishgan odam undan ham yuqori darajalardagi shon-shuhrat maqomiga

erishishga intiladi, bunday intilish undaylarga cheklanmagan bo'ladi.

* * *

Kishi biror yomon ahvolga tushib qolganda, yo bo'lmasa biror qayg'u-alam yetganda unga mehr-shafqat ko'rsatishga rahmdillik deyiladi.

* * *

Badantarbiya bilan mashg'ul bo'lmay qo'ygan kishi tez-tez kasalga chalinib turadi, chunki harakatsizlik natijasida kishining a'zolari zaiflashadi.

* * *

Lazzatli ovqatning zarari uni ko'p yeb qo'yishda.

* * *

Uyqu nafsoniy va hissiy quvvatlarning harakatlaridan dam olishdir.

Abdusodiq Irisov tarjimasi

AHMAD YASSAVIY

(XI asrning II yarmi — 1166)

* * *

So'z aslini bilganlarga durri gavhar,
Zohirig'a boqqan quruq qolar, do'stlar.

* * *

Bu dunyoning izzatidin o'tmaganlar,
Hayvon erur, balki andin battar, do'stlar.

* * *

Oqil ersang, dunyo uchun yemgil g'am.

* * *

Nodonlarga essiz so'zim, hayf hikmat,
Odammenden deb belin bog'lar, qani himmat,
Dunyo uchun bir-biriga qilmas shafqat.

* * *

Nodonlardin eshitmadim bir yaxshi so'z.

* * *

Dono — tufroq, nodonlarning ko'ksi baland.

* * *

Nodonlarga aytsang so'zung, qilmas qabul.

* * *

Nafs — shayton, asir oldi odam o'g'lin.

* * *

G'urbat tegsa, puxta qilur ko'b xomlarni,
Dono qilur ham xos qilur ko'b omlarni¹.

* * *

Nafsing seni, boqib tursang, nelar demas.

* * *

Nafs yo'lig'a kirgan kishi rasvo bo'lur,
Yo'ldin ozib, toyib, to'zub, gumroh bo'lur,
Yotsa-qo'bsa shayton bila hamroh bo'lur,
Nafsni tebgil, nafsni tebgil, ey badkirdor!

* * *

Mehnat tortib, jafo chekkan ko'rар rohat.

* * *

Xizmat qilg'an oxir murod topar, do'stlar.

* * *

Nafsim mening yuz ming taom tilar, do'stlar.

* * *

Nafsingni sen o'z ra'yiga qo'yma zinhор.

* * *

Qul Xoja Ahmad, nafsdin ulug' balo bo'lmas,
Yer-u ko'kdin to'ma² bersang, hargiz to'ymas.

* * *

Ochib ko'ngil ko'zini mushohada qilinglar.

* * *

Nafsga mudom halol luqma ro'zi³ bergil.

¹ Om — bu yerda: omi, ya'ni bilimsiz, avom, nodon ma'nosida.

² To'ma — oziq-ovqat, taom.

³ Ro'zi — rizq, nasiba.

* * *

Qul Xoja Ahmad, saxiylarning o'rni jannat,
Daryo-daryo ehson qilsa, qilmas minnat.

* * *

Yolg'on da'vo qilib, kazzob¹ bo'imang, do'stlar.

* * *

Ey birodar, munofiqqa bo'lma ulfat,
Kim ulfatdur — boshi uzra yuz ming kulfat.

* * *

Dunyosig'a mag'rur bo'lub yugurganlar,
Andog' kishi bahoyimdin² batar, do'stlar.

* * *

Dehqon ermas ketmon chopib, non yemasa.

* * *

Olim uldur, xisht yostanib, tahsil qilsa.

* * *

Riyozatni qottiq tortib, tinmay ishla,
Ko'b ishlagan oxir yetar, do'stlarim-o.

* * *

Tolibman deb yururlar — ko'nglida yo'q zarra nur,
Chin tolibni so'rasang, ichu tashi guhar³, dur.

* * *

Qul xoja Ahmad, so'zungni nodonlarga aytmagil,
So'zni aytib nodong'a, puchak pulg'a sotmag'il.

¹ Kazzob — yolg'onchi, makkor.

² Bahoyim — hayvonlar.

³ Gyhar — gavhar.

* * *

Ochdin o'lsang, nomarddin hargiz minnat tortmag'il.

* * *

Banda bo'lsang, manmanlikni zinhor tashla.

* * *

Oqil bo'lsang, nodonlarga sir aytmagil.

* * *

Halolini munda tashlab, harom ko'zlar,
Nodonlarg'a bu so'zlarni ayg'um kelur.

* * *

Zinhor, zinhor qochib yurgil bo'lsa nodon.

* * *

Ko'zing yumgil bu dunyodin — nafsing o'lsun.

* * *

Yolg'on banda va'dasidin tonar emish.

* * *

Ikki olam shohitetur bir yaxshi xulq.

* * *

Tavajjuhni¹ azizlarga qilmoq kerak.

* * *

Barcha dog'lar ichra mushkul hijron dog'i,
Hijrondin ham battar ermish farzand dog'i.

* * *

Hayf odam — o'z qadrini o'zi bilmas,
Manlik qilib, yaxshilarni ko'zga ilmas.

¹ Tavajjuh — lutf, mehribonlik.

* * *

Barcha borur bu dunyodin armon bilan.

* * *

Odamida zarra ma'ni bo'lmasa,
Sen ani odam ko'rub, odam dema.

* * *

Nodonlarga sir, ma'noni aytib bo'lmas,
Dur-gavharni xarmuhraga¹ sotib bo'lmas.

* * *

Haqiqatning yo'llarida yuz ming xatar,
Belin bog'lab, yo'lg'a kirgan oxir yetar.

* * *

Chin olim yostuqin toshdin yaratti,
Nima uqli — ani olamga aytti.

* * *

Nafsdin kechmay, manmanlikni qo'ysa bo'lmas.

* * *

Johil odam fe'li baddin² qaytmas bo'lur.

* * *

Kimi xor aylasa, bo'lg'oy o'zi xor.

* * *

Nojins, baxil saxiyarlarni g'iybat qilg'oy.

* * *

Amal qilg'il — xayring ortuq bo'lsun sharrdin³,
Ekmaguncha naf tegmas quruq yerdin.

¹ Xarmuhra — eshakmunchoq.

² Bad — yomon, yaramas.

³ Sharr — gunoh.

* * *

Ergashgonlar yaxshilarg'a zoye qolmas,
Sidqi birla chin axloqlig' topmay qolmas.

* * *

Yaxshi so'zni fahm aylamas har betamiz.

* * *

So'zga yetmas bexabarga essiz ma'ni,
So'zni aytsang donog'a, durni koni.

* * *

Mehnat tortmay, rohat tongi otmas bo'lur.

* * *

Bo'lmasa olim avom nega yaror.

* * *

Avom tandur, olim erur tanda jondek.

* * *

Johil qullar o'zin ko'rар — aybin ko'rmas.

* * *

Xomtamalar nafsi uchun nelar demas.

* * *

Dunyo suymak xatolarning boshi turur.

* * *

Ayo g'ofil, nodon bilan ulfat bo'lma,
Nodonlarni suhbatig'a o'zing urma.

* * *

Foniy umrung ming ishonsang, boqiy bo'lmas.

* * *

Umrin zoye kechurgonlar bo'ldi johil.

* * *

Odam o'g'lin ozdurg'on nafs-u havo emasmu?
Chirkin¹ dunyog'a solg'on nafs-u havo emasmu?

* * *

Nafs uyidir kibr-kin, kibr ichinda yo'qdur din.

* * *

Chekmaguncha bu yo'lni ancha mehnat, ranjini,
Topib bo'lmas, do'stlarim, haqiqatni ganjini.

* * *

O'qish, fikrlash ham ibodatdir.

* * *

Sevgini, hurmatni kundalik hayotga joriy qil.

* * *

Dushmaningga yaxshilik qil va qilgan yaxshilingning
minnat qilma.

* * *

O'zing muhtoj bo'lganida boshqalarga ham ber.

* * *

Insonning eng katta zaifligi o'z qadrini bilmasligi, man-
manlik qilib, yaxshilarga ahamiyat bermasligidir.

* * *

Yolg'on so'zlaganlar iymonsiz ketuvchilardan bo'lisha-
di.

¹Chirkin — iflos, noplak.

NOSIR XISRAV

(1004 – 1088)

* * *

**Kishi boshiga til solgay baloni,
Tilidandir uning foyda-ziyoni.**

* * *

**Kishilikning jamoli hilmdandur,
Kishilikning kamoli ilmdandur.**

* * *

**Munofiq bo‘lmaqay do‘sti muvofiq,
Munofiqni munofiq bil, munofiq.**

* * *

Dili to‘g‘ri kishi maqsadga yetar.

* * *

**Birovga yomonlik istamak yomon,
Undaylar o‘zi ham qolmagay omon.**

* * *

**Hech kimsaga qilma yovlik, yomonlik,
Kim adovat qo‘zg‘ar, topmas omonlik.**

* * *

**Kishini ranjitmoq oson nihoyat,
Ko‘nglini ovlamoq mushkuldir g‘oyat.**

* * *

Dono-la o'tgan dam arzir jahonga,
Yuz nodon arzimas bir burda nonga.

* * *

Oqil odam bilmas so'ramoqni or.

* * *

Kimki shogirdlikka chin dilidan shod,
Bir kuni o'zi ham bo'lguysi ustod.

* * *

G'am yemoqdan foyda topolmas odam.

* * *

Kosibdan shod-u xurram yo'q jahonda,
Hunardan yaxshi dur ham yo'q jahonda.
Butun kun rizqining bog'boni bo'lg'ay,
Keyin o'z uyining sultoni bo'lg'ay.

* * *

Ko'p yashay desang, berma dilga ozor,
Ko'p yashaydi doim kimki beozor.

* * *

Hamisha kishiga yaxshilik ko'zla,
Faqt yaxshilikdan omonlik izla.

* * *

Johil kishidan kech xeshing¹ bo'lsa ham,
Zarar ko'p tegadi undan, foyda kam.

* * *

Ichga yut — jahlingni ko'rmasin kishi,
Shirin so'z, yumshoqlik oqillar ishi.

¹ Xesh — qarindosh-urug'.

* * *

Aylansa ham boshda tegirmon toshi,
Yumshoq bo'l, bitmasin diling bardoshi.

* * *

Kuch-u qudratingdan bo'lmagil mag'rur,
Juda ko'p dunyoda sendan ko'ra zo'r.

* * *

Biror joyga kirmak istaganing dam,
Chiqish yo'lin ko'zlab, so'ngra qo'y qadam.

* * *

Tutgil qarilarning qaltiroq qo'lin,
Qarigach bilursan qarilik yo'lin.

* * *

Qurbi kelmagan ishga uringan —
Nasibasiz, baxtdan suringan.

* * *

Bahsda go'yo sen uchqur toysan,
Qizishmasang, ko'p yiqilmaysan.

* * *

Chinakam do'st aytgan har o'git, masal —
Sirti — zahar erur, tomiri — asal.

* * *

Keksaga ko'mak ber — suyangan tog'ing,
Buni tushunarsan qarigan chog'ing.

Shoislom Shomuhamedov tarjimasi

ABDULLOH ANSORIY

(1006 – 1088)

* * *

Nafsingni agar qilib nishon ketgaysan,
O'zingni xarob etish tomon ketgaysan.
Boq o'zingga: kimsan-u qayerdan kelding,
Angla: ne qilarsan-u qayon ketgaysan?

* * *

Qilgil tunu kun mard kishilar xizmatini,
Mardlar yonida yursang agar mard bo'lasan.

* * *

Mard elni qo'yib, chekkaga urmas o'zini,
Yo katta tutib el ichra yurmas o'zini.
Ko'z qorachig'idan ibrat olsa arzir:
U hammani ko'rар, ammo, ko'rmas o'zini.

* * *

Men oxiratimni har kuni yod etaman,
Har lahza gunohlarim uchun dod etaman,
G'amgin bo'laman garchi gunoh qo'rquvidan,
Lutfingga umid qilib, dilim shod etaman.

* * *

Haq yo'lida asli ikki Ka'ba hosil:
Olloh uyi bo'lsa biri, ikkinchisi — dil.
Dillarni ziyorat qil qo'lingdan kelsa,
Ming Ka'badan ham bir dilni afzal bil!

* * *

Ey dil, kishilardan sira yorlik tilama,
Har shox soya bermaydi — devorlik tilama,
Izzat qanoatdaki, xorlik tilama,
Izzatni aziz tut, sira zorlik tilama.

* * *

Dil orzusining ortidan yelsa g'ofil —
Kim, umri daraxtidir uning behosil.
Nafsi yo'lida o'girsa yuz haqdan kim,
Behuda o'tibdi bor hayoti, botil.

* * *

Yomg'ir tomchisidan-da ko'p menda gunoh,
Boshimni uyatdan ko'tarolmayman, oh,
Ovoz keldiki: "G'am yema, ey banda.
Gar senda gunoh ko'p, menda kengdir dargoh".

* * *

Bo'yningda birov haqqi agar qolgusidir,
Ollohga yetish yo'liga g'ov solgusidir.
Kim qilcha birovning haqini yesa bugun,
Erta u jahannamdan joy olgusidir.

Ergash Ochilov tarjimasi

KAYKOVUS

(1021 – 1098)

* * *

O'z farzanding sening haqingda qanday bo'lishini tilasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo'lg'il, nedinkim, sen ota-onangga nima ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shunday ish qilur.

* * *

Agar molsizlikdan qashshoq bo'lsang, aqldan boy bo'lmoqqa say ko'rguzg'ilki, mol bila boy bo'lg'ondin, aql bila boy bo'lg'on yaxshiroqdur, nedinkim, aql ila mol jam etsa bo'lur, ammo mol bila aql o'rganib bo'lmas. Bilg'il, aql bir moldurki, uni o'g'ri ololmas, u o'tda yonmas, suvg'a oqmas.

* * *

Har kishiga so'z aytur bo'lsang, qarag'il, ul sening so'zungga xaridormu yoki xaridor emasmu?

* * *

Yigit o'zini hamma kishidan donoroq bilur, ammo shu ishi bila u hammadan nodonroqdur.

* * *

Xalq birovning malomatin qilmoqdan va ayblarin aytmoqdin bir lahza forig' emasdur.

* * *

Uyqu uchun ko'p vaqt sarf qilib, kunduzni kechaga aylantirmoq hikmatdin ermasdur.

* * *

Mol har qancha aziz bo'lsa ham, uni do'stlardin darig' tutmag'il.

* * *

Xaloyiqqa boyning hech foydasi bo'lmasa ham uni do'st tutg'usidur, hech zarari yetmasa ham qashshoqlarni dushman tutg'usidur.

* * *

Mol har nechakim azizdur, ammo joningdan aziz ermasdur.

* * *

Kichiklik ranjin chekmaguncha ulug'lik rohatiga yetolmag'aysen.

* * *

Ko'p narsaga hirs qo'yg'on kishi ko'p narsadin tezroq ajralur.

* * *

Safar qilg'on, yaxshi va yomonni imtihon etgan kishilar ziyrak va dono bo'lurlar.

* * *

Yaxshilikni bilmag'on kishiga yaxshilik qilmoq shoriston¹ yerga tuxum sochmoqdur.

* * *

Sendan talab qilmasa, kishiga nasihat qilmag'il, pand bermag'il, xususan, seni tinglamag'on kishiga hech so'z dema, chunki bunday kishilar pandni eshitmag'aylar.

¹ Shoriston — sho'r, sho'rxok.

* * *

Bug'doyni ko'rguzib, arpani sotmag'il.

* * *

Har turluk ish uchun diltang bo'lmag'ilkim, bu yosh o'g'lonning ishidur.

* * *

Xomushliq — salomatlik sababi.

* * *

Yigitlik jununning¹ bir nav'idur.

* * *

Donishmandlar uyquni kichik o'lim debdurlar.

* * *

Bizlarga umrimizning ko'prog'in bedorlikda o'tkarmak kerakdur, nedinkim, tiganmas uyqu oldimizda bordur.

* * *

Taqdir va tadbir bila yaratg'on ozgina mol taqdirlsiz va tadbirsiz ko'p moldin yaxshiroqdur.

* * *

Yaxhilarga ko'ngul bila va yomonlarga til bila do'stlik qilg'il. Toki ikki toifaning ham do'stligi senga nisbatan hosil bo'lsun, nedinkim, kishining hojati tanho do'stig'a tushmag'usidur. Bir vaqt bo'lurki, kishining hojati zarurat yuzidin yomonlarg'a ham tushg'usidur. Demak, bu ikki toifaning ham do'stlig'in hosil qilg'il.

* * *

Aqlsiz do'st aqli dushmanidan yomonroqdur.

¹ Junun — telbalik, devonalik, savdojilik.

* * *

Agarchi ojiz bo'lsang ham g'ayrat qil, o'zingni ojiz ko'rguzmag'il.

* * *

Nodon kishi bila munozara qilmag'il.

* * *

Agar hojat tilamak qoidasin bilsang, hech joydin hoja-tingni bitkazmay qaytmassan.

* * *

Ilmni do'st, bekorchi turmushni dushman tutg'il.

* * *

Past nazarlik ulug'larga zarar yetkazur.

* * *

Masalda bordurki, imtihon qiling'on dev, imtihon qiling'on bo'ri imtihon etilmag'on odamdin yaxshidur.

* * *

Bu jahon bir ziroatgohdur¹, har nima eksang, shuni o'rasan va har na so'z desang, shuning javobini eshitursan.

* * *

Har kishi badbaxt bo'lmoq tilasa, yomonlarning suhbatin ixtiyor qilur.

* * *

Agar aqling bo'lsa, hunar o'rgang'il, nedinkim, hunsarsiz aql — boshsiz tan, suratsiz badandekdir.

¹ Ziroatgoh — ekinzor.

* * *

Hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf yetkurmas.

* * *

So'z agar yaxshi bo'lsa, ammo noo'rin ishlatilsa, gar-chand u har nechuk yaxshi so'z bo'lsa ham yomon eshitilur.

* * *

So'z bir nash'adur, undan xumor paydo bo'lur.

* * *

Ko'p kishilarning orasida bir kishiga pand-nasihat qilmag'il.

* * *

Bir kishig'a bir yaxshilik qilsang, ko'rgilki, yaxshilik qilg'on vaqtida u kishiga naqadar rohat etg'on bo'lsa, sening ko'nglingga ham undan ziyodroq shodlik va xurramlik yetishur. Agar bir kishiga yomonlik qilsang, unga naqadar ranj yetsa, sening ko'nglingga ham ul miqdor tanglik yetishur.

* * *

Bilg'ilki, donishmandlar oxiri g'am bo'lg'on shodlikni shodlik bilmalar va oxiri shodlik bo'lg'on g'amni g'am hisob qilmaslar.

* * *

Noumidlik vaqtida umidvorroq bo'l.

* * *

Ul miqdor ham muloyim bo'lmag'ilki, seni odamlar yomon ko'rmasunlar va durusht¹ bo'lmag'ilki, sendin qochmasunlar.

¹ Durusht — qo'pol, dag'al.

* * *

Yaxshidin yomonlikning chiqmog'i nomunosibdur.

* * *

Ikki yomonning bir yerda jam bo'lmag'i nihoyatda yomondur.

* * *

Dono ul vaqtida bo'lursankim, nodonlikdin xabardor bo'lsang.

* * *

Sen har nechaki dono bo'lsang, o'zingni xalqdin donoroq bilmag'il, nedinkim, o'zingni nodon bilding — dono bo'lding.

* * *

Rozingni o'zingdin o'zga kishiga aytmag'il, agar ayt-sang, so'ngra uni roz demag'il.

* * *

Xaloyiqning orasida bir kishining qulog'iga so'z aytish yaxshi emasdur. Agar bu so'z garchand yaxshi so'z bo'lsa ham, tashqarisindin uni yomon so'z deb gumon qiladilar va ko'p odamlar bir-birlaridan dargumon bo'ladilar.

* * *

Sovuq so'z bir tuxumdur, undin dushmanlik hosil bo'lur.

* * *

Ko'p bilib, oz so'zlag'il va kam bilib, ko'p so'z demag'il.

* * *

Agar rozimni dushman bilmasin desang, do'stingga aytmag'il.

* * *

Har kishining (bilimi) bo'lsa-yu, ammo unga loyiq aqli bo'lmasa, bu bilim unga zarar yetkargusidur.

* * *

Agar har kishini turmush ustodi dono etmasa, hech bir dono unga so'z o'rgatish uchun ranj chekmasun, ranji zoye bo'lur.

* * *

Agar xalq sening haqingda yaxshi so'z aytarin tilasang, xalq haqida yaxshi so'z aytg'il.

* * *

Agar o'z siringning ochilishini istamasang, birovning sirin fosh qilmag'il.

* * *

Odamning quvvati to o'ttiz yilgacha har kun ziyoda bo'lur. O'ttiz yoshdin so'ng quyosh osmonning o'rtasig'a yetg'ondek ziyoda bo'lmay va nuqson topmay turur. Undin so'ng botish sayri ohistaroq bo'lg'ay. Qirq yoshiga yetg'ondin so'ng to ellik yoshg'acha har yil o'zida nuqson ko'rg'aykim, burung'i yilda ko'rmamish bo'lg'ay. Ellik yoshidin oltmish yoshg'acha har oy o'zida nuqson ko'rarkim, avvalgi oyda ko'rmamish bo'lg'ay. Agar yoshi oltmishdan o'tsa, har soatda dard va ranj ko'rg'aykim, o'tg'on soatda ko'rmamish bo'lg'ay.

* * *

Yaxshi narsani qo'yib, undin yaxshiroq narsani talab qilmag'il, bunday mahalda tama bila undin ham bebahra qolq'aysan.

Ogahiy tarjimasi

YUSUF XOS HOJIB

(XI asr)

* * *

Nodonlar behisob, donolar esa barmoq bilan sanarli darajada kam.

* * *

Dunyoda bilimdan ham azizroq yana nima bor, bilimsiz degan so'z kishi uchun nechog'liq xunuk haqorat.

* * *

Qancha yillar o'tmasin, ezgulik qarimaydi, qancha e'zozlanmasin, yomonlik baribir aziz bo'la olmaydi.

* * *

Yaxshilik barchaga yarashadi.

* * *

Tikanli buta foyda keltirsa, men uning qulidirman, gul zararli bo'lsa, uning tag-tomirini qirqib, qo'porib tashlayman.

* * *

Ko'ngil sirlarini haddan ortiq qattiq sir tutish kerak.

* * *

Qaysi bir narsaga kishi mehnati singsa, jon rishtasi o'sha narsada bo'ladi.

* * *

Yomonlik qiluvchilarga imkoniyat bermaslik kerak.

* * *

To‘g‘ri bo‘lgan, to‘g‘rilik yo‘lida adashmagan, bu yo‘l seni yillar o‘tib, orzu-tilaklaringga olib boradi.

* * *

Bilib-tushunib so‘zlangan so‘z donolikdan dalolatdir, nodon-johilning so‘zi o‘z boshini yeydi.

* * *

Tabiat kimga zakovat, aql-idrok, bilim bersa, u ezgu ishlar qilishga qo‘l uradi.

* * *

Odam ikki narsa tufayli qarimaydi: biri — yaxshi fe’li, ikkinchisi — ezgu so‘zi.

* * *

So‘zlarining yanglish — xato bo‘lsa, o‘zingga ziyon keltiradi.

* * *

Hayotda yanglismaydigan odam bormi?

* * *

Olam paydo bo‘lganidan buyon zakovatlilar ezgu siyosat yurgizib kelganlar.

* * *

Yomonlik qiluvchilarning ishlari kundan kun orqaga ketaveradi.

* * *

Qadr-qimmat va izzat-e’tibor bilim tufaylidir.

* * *

Xasis o‘z narsasini o‘zidan ham qizg‘onadi, u narsasi-ni boshqalarga qachon beradi.

* * *

Yolg‘on qadringni tushiradi.

* * *

Odam sabrli bo‘lsa, har bir ishda baraka topadi.

* * *

Rohat bilan mashaqqat yondashib yuradi.

* * *

Havas bilan nafs ikkalasi ulug‘ yovdir.

* * *

Do‘sst tutinish oson, uni avaylash qiyin, dushman bo‘lish oson, yarashish qiyin.

* * *

Odamni qil qiluvchi narsa suqlikdir.

* * *

To‘g‘ri so‘z keskin bo‘ladi.

* * *

Rohat ortsa, uning mashaqqati ham ortadi.

* * *

Bilimli kishilardan balo-ofatlar yiroqlashadi.

* * *

Zakovat va bilimning ochqichi tildir.

* * *

Odamni til ulug'laydi, uni baxtiyor qiladi, shuning-dek, til odamni beqadr ham qiladi, uning boshiga balolar keltiradi.

* * *

Til qafasda yotuvchi arslon kabidir, qafasdagи g'addor wahshiy boshingga yetishi hech gap emas.

* * *

So'zlaringga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin, tilingni tiy, u tufayli tishing sinmasin.

* * *

Ko'p va ortiqcha so'z yuzni yerga qaratadi.

* * *

Johillar donolarga nisbatan doimo adovatda bo'ladi.

* * *

Agar ikki olam baxtiga erishish maqsading bo'lsa, uning chorasi ezgulik qilishdir.

* * *

Tillarda ikki turli nom takrorlanib yuradi, bir yaxshi va bir yomon nom dunyoda saqlanib qoladi.

* * *

Zakovatning va tilning ko'rki so'zdir, odamning ko'rki — yuz, yuzning ko'rki esa ko'zdir.

* * *

Zakovat qorong'i tundagi mash'al kabidir, bilim esa nur taratuvchi yorug'likdir.

* * *

Quyidagi to'rt narsaning ozini oz deb tushunmaslik kerak: biri — olov, biri — yov, uchinchisi — kasallik, to'rtinchisi bilimdir.

* * *

Mushk-anbar va bilim bir-biriga o'xshash narsalardir, ularni o'zidan bo'laklardan yashirib saqlab bo'lmaydi.

Mushk-anbarni yashirsang, uni hidi oshkora qiladi, bilimni yashirsang, uni tiling oshkora qiladi.

* * *

Bilim o'z sohibini qashshoq qilmaydigan bitmastonmas boylikdir, o'g'ri va qalloblar uni hech o'g'irlab ololmaydi.

* * *

Bilimsizning bilganlari va qilganlari o'zi uchun dushmandir, boshqa dushmanning keragi yo'q, shu ikki dushmanning o'zi kifoyadir.

* * *

Johil odamning nomi faqat tahqirga loyiq.

* * *

Bilimli uchun uning bilimi yetarli kiyim va oziqdir, bilimsizning qilmishlari o'zi uchun yovuz niyatli yo'l-doshdir.

* * *

Jaholat va g'azab bilan shoshilib ish ko'rma, bordi-yu bunday qilsang, o'z hayotingga zomin bo'lasan.

* * *

G'azabli odam hamisha o'kinchli bo'ladi, g'azab bilan ish qilgan kishi shubhasiz adashadi.

* * *

Mardlarga vazminlik va xushfe'llik yarashadi, kun va oy singari ularning chehralari ochiq bo'lsa, ayni muddadir.

* * *

Odam yaroqli va yaroqsiz narsalarning farqini ko'ra bilsa, kerakli va keraksiz narsalarni o'rinni joyiga qo'ya bilsa, yaxshi va yomonni farqlay bilsa va ajrata olsa, qanday ishda bo'lmasin o'zini tuta olsa, shundagina barcha ishlari tugal va pishiq-puxta bo'ladi.

* * *

Jaholat bilan g'azab odamga ashaddiy dushmandir, bu ikkala dushman dastidan jon hamisha azob tortadi.

* * *

Qahrli odam bilimsiz bo'ladi, g'azab odamni zakovatdan mahrum qiladi.

* * *

Johillik yaramas narsa, u kishining bilimini eltadi, jahl kelsa, yaxshi kishidan ham aql ketadi.

* * *

Yomonning yoshi qisqadir, u o'kinch bilan qariydi, yaxshining yoshi uzundir, u doim o'kinchsiz yuradi.

* * *

Odamiylikning belgisi himmat va muruvvatdir, odam o'z himmati va muruvvati barobarida qadrlanadi.

* * *

Rohat-farog'at istasang, mehnat va mashaqqat unga ulanib keladi.

* * *

G‘ofillarning ishlari hech qachon ko‘ngildagidek bo‘lmaydi.

* * *

Odam uchun har yerda ham tanish-bilish kerak, har qanday ish ham tanish-bilishlar ko‘magida bitadi.

* * *

Kishi sevsasi, suyukligining ayblari unga fazilat bo‘lib tuyuladi, agar sevmasa, fazilatlari nuqson bo‘lib ko‘rinadi.

* * *

Odamlarning yaxshisi o‘zgalarning mushkullarini oson qiladi.

* * *

Qut bugun bu yerda bo‘lsa, ertaga u yerdadir.

* * *

Shoshilib qilingan ishlarning oxiri voy bo‘ladi.

* * *

Ishning fursatini kutish, shoshilmaslik kerak, hamma ish vaqtisi-soati kelganda bitadi.

* * *

Sabr-chidamli odam ulug‘ martabaga erishadi.

* * *

Huzur-halovatni istab, odam ko‘p mashaqqatlar tortadi.

* * *

Qut-davlat kiyik kabidir, u odamdan qochadi, agar qo‘lga kirsa, uni tushovla va tizginlab ol.

* * *

Qo'lingga kirgan narsani tuta bilmasang, u chiqib ketadi.

* * *

Qaysi narsa to'g'ri bo'lsa, o'sha narsa soz bo'ladi.

* * *

Yomon bosh ko'tarsa, yaxshi mahv¹ bo'ladi, bordi-yu yaxshining qo'li baland kelsa, yomon yo'q bo'ladi.

* * *

Kimda-kim hozirgi huzurini tilasa, yomonlik qilishdan qaytmaydi, so'ngroq esa pushaymon yeysi.

* * *

Yomonlik qilganga ataylab yaxshilik qil.

* * *

So'ramaslaridan avval so'z so'zlama.

* * *

Tiling istagan kunda boshingni yeishi mumkin.

* * *

So'zning bir ulushi so'zlanadigan va to'qqiz ulushi tiyiladigan bo'ladi.

* * *

Tilni faqat yomonlash kerak emas, uning yaxshi to-monlari juda ko'p.

* * *

So'zi egri odam o'tda kuyadi.

¹ Mahv — yo'qolish, yo'qotish.

* * *

Tilingni so'zga ochmasang, odamlar seni gungalak dey-dilar, shuningdek, ko'p so'zlasang, ezmachuruk, deydilar.

* * *

Bosh omon bo'lsa, oltin-kumush topiladi.

* * *

O'limga qarshi dori-darmon foyda qilganda edi, tabiblar abadiy tirik qolgan bo'lardilar.

* * *

O'tkazib yuborgan kunlaring qaytib kelmaydi.

* * *

Yomonlik misoli bir ilondir, u seni chaqadi.

* * *

G'ofil odam farzandi behisob mol-dunyo yig'adi, lekin nima uchun terayotir, bu unga nasib etadimi, bu haqda sira o'ylamaydi.

* * *

G'am-alam o'tsa, ketidan xursandchilik keladi.

* * *

Kimga kimning biror mehnati o'tgan bo'lsa, evaziga undan ortiqroq mehnat singdirish kerak.

* * *

Ulug' bo'ladigan bola yoki zabardast bo'ladigan filning yoshligidayoq barcha belgi-nishonlari bo'ladi.

* * *

Donolar sabr-chidamli bo'lsalar, nechog'liq chiroyli bo'ladi!

* * *

Davlat bilimsizlarni kekkaytiradi, bilimlilarni esa bezaydi.

* * *

Agar davlat nomunosib odamga kelsa, ko'p o'tmay uni behudaga sovurib yuboradi.

* * *

Nodonlarning barcha qilgan ishlari nuqsonlidir.

* * *

Odam bilim o'rgansa, kunlari baxtli o'tadi, o'zi qancha kichik bo'lsa ham ulug'lanadi.

* * *

Insonni hayvondan bilim farqlaydi, bilim bilan inson har qanday ishni qilishga qodirdir.

* * *

Kimda aql-idrok va es-hush bo'lsa, uning belgisi shuki, u bilim, fazilatlar kasb etishga salohiyatli bo'ladi.

* * *

Ish qiluvchi odam o'z ishini qilaveradi, lekin uning yaxshi va yomon tomonlarini ko'rib-kuzatuvchi odam biladi.

* * *

Sadoqat odamiylikning negizi va boshlanishidir.

* * *

Bilimlilarning dushmanlari ham ko'p bo'ladi.

* * *

Asli ulug' odamlarning barchasi bilim tufayli sara va afzal bo'ladilar.

* * *

Asli yaxshi odam yaxshi bo'ladi.

* * *

Odam har bir ishni bilim bilan qilsa, zakovat bilan bajarsa, barcha ishlar ravnaq topadi.

* * *

Odamning dilida didi bo'lmasa, ko'zining foydasi yo'q, odamning aql-farosati bo'lmasa, uning aqlida rivoj yo'q.

* * *

Suqlik davosi iloji yo'q bir kasallikdir, bu dunyoning tabib va kohinlari¹ uni davolay olmaydilar.

* * *

Ko'zi suq odam mol-dunyo bilan boy bo'lmaydi, butun dunyo mol-dunyosiga ega bo'lsa ham u suq va gadoyligicha qoladi.

* * *

Kimda andisha bo'lsa, xulqi xush bo'ladi, har turli noma'qul ishlarga qo'l uravermaydi.

* * *

Kibru havo va ko'krak kerib gerdayish yaramaydi, bu odatlar to'g'ri yo'ldan ozdiradi.

* * *

Kibr-havo befoyda, u ko'ngil qoldiradigan odatdir, ko'ngilni kamtar tutilsa, u odamni ulug'laydi.

Qayum Karimov tarjimasi

¹ Kohin — ruhoniyligi, g'oyibdan xabar beruvchi, avliyo, sehrgar.

UMAR XAYYOM

(1048 – 1131)

* * *

Nokasdan sir berkit, tilingni bog'la,
Ablahdan yashirin bo'lmoqni chog'la.
Kimliging bilgali insonlarga boq,
Ko'zing ko'rganidan qadring so'rog'la.

* * *

Faqat ilm bilan balandmas odam,
Ahdu vafo bilan baland-past odam.
So'zi bilan ishi bir kelsa agar,
Har narsadan baland, muqaddas odam¹.

* * *

Bir non topib, agar yesang ikki kun,
Siniq ko'zang bo'lsa suv ichmoq uchun,
O'zingdan pastlarga yollanmoq nega,
O'zingdek xizmatin qilmoqlik nechun?!

* * *

Ahil bo'lsa olov ichra ham inson,
Ahil kishilarga olov ham oson.
Noahil kishilar suhbatidan qoch,
Noahil suhbati yomondan-yomon.

¹ Bu ruboiyda Mavlono Jaloliddin Rumiya ham nisbat beriladi.

* * *

Ey dil, bil, har nima tansiq jahonda,
Shodlik bog'in ko'kat bezar har yonda.
Kechqurun ko'katga shabnam singari,
Bir qo'nding-u, uchib ketding azonda.

* * *

Deding: "Haqiqat ne? Nimadir odam?"
So'zlasam — cho'zilib ketadi qissam:
Haq uni undirib daryo qa'ridan,
Qa'rige otadi yashatmay bir dam.

* * *

Kelolmagach qaytib ushbu olamga,
Qo'rqaman etmasmiz yoru hamdamga.
Bu damni g'animat hisob etaylik,
Balki yetolmasmiz hatto shu damda.

* * *

Tokay pastlar xizmatin etasan bajo,
Har yemishga pashshadek qilma jon fido.
Bir nonni ikki kun ye, tortma hech minnat,
O'zga nonidan o'z dil qoning ko'p avlo¹.

* * *

Bunchalik g'am yema, o'tkinchi jahon,
Bir damlik umringda bo'l shodu xandon.
Boshqalar ketidan kelmasdi navbat
Vafo nimaligin bilganda davron.

* * *

Ey tun-kun dunyoga ko'z tikkan kishi,
Aqlingni jo'ymasin dunyo tashvishi.
Axir, esingni yig', hushyorroq bir boq:
Nedir boshqalarga uning qilmishi.

¹ Avlo — yaxshiroq, afzalroq, munosibroq.

* * *

Bir so'ngakka sordek¹ qanoat qilg'on
Afvaldir nokasga bo'lgandan mehmon.
Nokasning shinnilik nonidan yaxshi
O'zing topib yegan burda arpa non.

* * *

G'urur libosini yechibon tezroq,
Suratingga emas, siyratingga² boq.
Mag'rurlik dilingda bo'lmos*'i* darkor,
Uvadada sulton nog'orasin qoq.

* * *

So'zimga quloq os, ey do'sti a'lo,
Dunyo ishlarini o'ylama aslo.
Qanoat go'shasin aylabon makon,
Olam ishlarini qilgil tamosho.

* * *

To'g'rilik bo'lsaydi falakning ishi,
Yoqtirgan bo'lardi uni har kishi.
Dunyoning ishida bo'lsa adolat,
Bo'lmasdi donolar ko'nglin og'rishi.

* * *

Shuhrat topsang, kishilar hasadi yomon,
Yolg'iz qolsang, sendan qilishar gumon.
Xizr³ bo'lsang hamki, hech kimni bilma,
Seni ham bilmisin, mayli, biror jon.

¹ Sor — chug'urchuq.

² Siyrat — odat, xislat, xulq-atvor, tabiat.

³ Hizr — obi hayot — tiriklik suvini izlab topgan va undan ichib, abadiy hayotga noil bo'lgan payg'ambar. U odamlarni mushkul ahvoldan qutqaradigan, ularga to'g'ri yo'lni ko'rsatadigan xaloskor va oshiqlar homiysi hisoblanadi.

* * *

G‘ayrating sarf etsang kiymoq, ichmoqqa,
Arziydi bu ishni ma’zur tutmoqqa.
Hushyor bo‘l, qolganin bari arzimas
Umrinngi sarf etib o‘tib ketmoqqa.

Shoislom Shomuhamedov tarjimasi

* * *

Dunyo g‘amini chekma qo‘lingdan kelsa!
Bor-yo‘jni unutib, qani bir dil kulta!
Yaxshi yeb-ichu shod yasha, eltolmassan —
Bir arpa u dunyoga xazinang bo‘lsa!

* * *

Aslida umid donasi xirmonda qolur,
Bog‘ hamda saroy na san-u na manda qolur.
Bas, siymu¹ zaringni donalab yiqquncha,
Do‘sstar-la yeb-ich, bo‘lmasa dushmanda qolur!

* * *

Harchand baxting mangu tuyulgay, ey do‘sst,
Jisming esa sog‘lom va go‘zal — bekam-u ko‘sst.
Sen qattiq ishonma bu tanang chodiriga,
To‘rt ustuni ham uning omonatdiru sust.

* * *

Kimlar bu jahon ichra yashab o‘tgan emas,
Qo‘lida birov haq durini tutgan emas.
Savdoyi kabi behuda so‘z der barcha,
Ammo haqiqatga hech kishi yetgan emas.

¹ Siym — kumush, kumush tanga.

* * *

Rizqing bilan umring ko'pu oz bo'lmaydi,
Qayg'u bilan olam ishi soz bo'lmaydi.
Qo'lingdagi mum emas bu dunyoning ishi,
Aylab uni istagingga mos bo'lmaydi.

* * *

Haq rizqing azalda qildi ko'p yoki kam,
Oshirmagay endi-yu, ozaytirmas ham.
Yo'g'iga xafa bo'lma, qanoat ayla,
Boriga shukr qilu yasha xotirjam.

* * *

Koshki bu zamon dardidan ozod yashasang!
Boriga qanoat aylabon shod yashasang!
Qadriga yetib hayotni har lahzasini,
Qilmay sira bor-yo'q g'amini shod yashasang!

* * *

Oftob, oyu yulduz ko'k uchun ziynatdir,
Aql ahli uchun vositai hayrattdir.
Bechorayu ojizligidin g'ussa chekish
Asli-azal oqillar uchun qismatdir.

* * *

Behuda g'amu qayg'uni qo'y, shod yasha!
Dunyodaadolatni qilib yod yasha!
Dunyo ishining oqibati yo'qlik ekan,
Yo'qliknchiqar dildanu ozod yasha!

* * *

Har kimga jahon kayfiyati bo'lsa ayon,
Dunyo g'am-u shodligi unga teng begumon.
U yaxshi-yomonlikni barobar ko'radi,
Xoh barchasi darmon uni, xoh dardu fig'on.

* * *

Kun o'tsa kuningdan, hech uni yod etma,
Kelmay turib erta hali faryod etma,
Bas, o'tganu kelmagan uchun dod etma,
Har lahzani shod o'tkazu barbod etma.

* * *

Bu dashtdan ajab xavfu xatar kelgaydir,
Hayrat zo'ri bo'g'zimga qadar kelgaydir.
Hech ma'lum emas: bu dasht aro karvonlar
Qayga ketaru qaydan ular kelgaydir?...

* * *

Begona yaqin menga vafo qilsa agar,
Yot hatto qarindosh-da, jafo qilsa agar.
Gar yoqmasa bol — bormi zahardan farqi?
Bol o'midadir zahar davo qilsa agar.

* * *

Ishq — boshi jahon daftarinig, ma'nosi,
Yoshlik g'azalin matla'si¹ — muddaosi.
Ey, angla, xabarsiz yurgan ishq olamidan,
Ishq birla yaralgan bu bashar dunyosi!

* * *

Gar maqsadi pul bo'lmasa-da dononi,
Pulsiz esa zindon ko'radi dunyoni.
Qo'l qisqaligi sabab binafsha munglig',
Xandon labi gulning zo'ridan tilloni!

* * *

Bilgilki, g'arib ko'ngli bir shod etmoq —
Sozdir nechakim, jahonni obod etmoq.
Lutfing bila aylasang asir bir dilni,
Hech qoshida mingta qulni ozod etmoq.

¹ Matla' — g'azalning birinchi bayti.

* * *

Hech kimsani ranjitma iloj topsang agar,
Og'ritma biror dilni — sira sochma zahar.
Gar mangu farog'atni etarsan tama,
Chek yolg'iz o'zing uchrasa har qancha qadar¹.

* * *

Jon olamida aql ila ish tutmoq xush,
Dunyo ishida yaxshisi turmoq xomush.
To o'rnida erkan ko'zu til hamda qulqoq,
Topgaysan ularni unutib osoyish.

* * *

Shodlik tatimas, bo'lmasa dil xotirjam.

* * *

Dunyoda murod urug'ini soch, gavhar ol!

* * *

Har kimsani bor bo'lsa yekishga noni
Ham o'ziga loyiq uyi-yu oshyonii,
Ul qul-da emas birovga, hokim-da emas,
Bas, qandini ursin o'sha — xush davroni!

* * *

Oqil kishi chekmas sira erta g'amini,
Taskin sira to'ldirmadi ko'ngil kamini.
Dunyoda haqiqiy oqil inson o'sadir,
Kim bilsa g'animat o'tayotgan damini.

* * *

Daryo suviyu sahro eliday xuddi
Umrim hisobidan yana bir kun o'tdi.
Qo'y o'tgan-u kelmagan kuning tashvishini,
Oqil na uni-yu na buni yod etdi.

¹ Qadar — g'am-g'ussa, anduh, hafalik, g'ashlik.

* * *

Dunyoda nima bo'lsa, azalda bo'lgan,
Haq hukmi bilan yaxshi-yomon tug'ilgan.
Chekingga yozilganni berar taqdir ham,
Behuda ekan barcha yugurgan-yelgan.

* * *

Shod bo'l nimani ko'rsa ravo, chunki falak
Inson tilagiga ko'ra yurgan emas-ey!

* * *

Bir toifaning ko'nglida ming kibru g'urur,
Bir toifaning ko'nglida qasru zaru hur.
Bir kun ko'tarilsa parda, ma'lam bo'ladi,
Har ikkisi ham Sendan uzoqlarda erur.

* * *

Yaxshilik oqibati yomonlik bo'lmash,
Yaxshi kishiga yaxshi hisob bo'lgaymish.

* * *

Har kimda agar zarracha aqlu hush bor,
O'tkazmas umrni bir damini bekor.

Ergash Ochilov tarjimasi

IMOM G'AZZOLIY

(1058 – 1111)

* * *

Ey farzand, nasihat qilmoq oson, ammo uni qabul etmoq qiyin emish. Zero, nasihat ko'ngil talabiga ergashib ish ko'rguvchi kishi tabiatiga malol keladi.

* * *

O'qib o'zlashtirgan ilmiga amal qilmagan odamning qiyomat kunidagi azobi ikki hissadir.

* * *

Aniq bilgilki, beamal ilm hech qachon foyda bermaydi. Masalkim, bir kishi sahroda yolg'iz qoldi. O'nta hindiy qilich-u yana qurollari bor, o'zi ham mohir, baquvvat. Shu asno, deylik, bir sher unga hamla qildi. Ayt-chi, qurol-larning o'zigina haligi odamni ofatdan saqlay olurmi? Yo'q, albatta. Ul odam qurollarni yaxshi ishga solsagina, sher hamlasini qaytarishi mumkin.

Binobarin, bir kishi yuz ming masalani o'qib-o'rganib, boshqalarga o'rgatsa-yu, o'zi amal qilmasa, bundan ne naf?

* * *

Basharti yuz yil ilm o'rganib, mingta kitobni jamuljam etsang-u, amal qilmasang, Ollohning rahmatidan umidvor bo'lishga haqqing yo'q.

* * *

Ey farzand, ogoh bo'l, kechalari kitob mutolaa aylab, uyqungni harom qilding. Bundan maqsad ne? Agar

niyating dunyoviy obro‘-e’tibor topishu mol-mulk to‘plash yo bu foni yunyoda biron-bir mansab, lavozim egallash va yoki yaqinlaring-u tengdoshlarin orasida maqtanish bo‘lsa, unda holingga voy!..

* * *

Yaxshi amalga — yaxshi hukm, yomon amalga — yomon hukm.

* * *

Ey farzand, ogoh bo‘l, amalsiz ilm telbalikdan boshqa narsa emas. Va lekin ilmsiz amal ham naf keltirmagay.

* * *

Ruh — ulug‘ hodisakim, u faqat yaxshi amallarni xohlaydi, billoh¹, yaxshi amal qil, nafsing buyurgan yo‘lga yursang, muqarrar halok bo‘lursan.

* * *

Ey farzand, bu til — yaxshi-yomon gaplarni so‘zlaguvchi va bu qalb shahvatu g‘aflat ila to‘igan esa, bilgilki, baxtsizlik alomatidir.

* * *

Bo‘yningda birovning haqi qolmasin.

* * *

Yagona najot — gunohlardan forig‘ bo‘lmoqlikdir.

* * *

Insonlarni ko‘rdim: ba’zilari ba’zilarini mazammat, haqorat va g‘iybat qilurlar. Buning bahonasi — bandalarning mol-dunyo, mansab-martaba uchun bir-biriga hasad qilishida deb bildim.

¹ Billoh — Xudo haqqi.

* * *

Shaytondan o'zgani dushman guman etmoq joiz emas ekan.

* * *

Kishiningkim zohiri botiniga muvofiq kelmasa — munofiqlikdir.

* * *

Tavakkal biror nimani senga hatto jumlayi jahon ravo ko'rmay, harchand qaytarishga urinsa-da, agar taqdiringga bitilgan bo'lsa, o'sha narsa muqarrar, senga nasib etishiga yoxud, aksincha, yozug'ingda¹ bo'lmasa, ahli jahon yeng shimarsa ham ish chiqmasligiga ishonmog'ingdir.

* * *

Odamlar hurmat-izzatingni joyiga qo'yib, ta'zim bajo keltirishadi va bundan senda riyoy paydo bo'ladi.

* * *

Hech bir masala ustida birov bilan toqating toq bo'l-guncha bahslashib, nizo chiqadigan darajada tortishma. Chunki buning foydasidan ko'ra zarari ko'proq.

* * *

Riyoy, hasad, kibr, kin, adovat va boshqa illatlar yomon xulqlarning manbayidir.

* * *

Bahsdan murod — bilag'onligingni ko'z-ko'z qilmoq emas.

¹ Yozug' — peshona, taqdir, qismat.

* * *

Unutmagilki, sen uchun murakkab, bir qadar mushkul bo‘lgan masalani olim-u donishmandlardan so‘rab bilmog‘ing — xuddi og‘riq qalbni hoziq¹ tabibga davolatgandek bir gap.

* * *

Nodon, johil odamlarning qalblari kasal, bemordirkim, ularni davolovchi tabib — olimlar-u donishmandlardir.

* * *

Ahmoqning javobi — sukut.

* * *

Hasadgo‘y nimayiki qilmasin, neki demasin, bari-ba-rini o‘tda yoqadi.

* * *

Muolajani qabul etmaydigan kasallik — ahmoqlikdir.

* * *

Ahmoq shunday kishikim, ozgina muddatda aqliy va shar’iy² ilmlardan nari-beri xabardor bo‘ladi-da, duch kelgan odam bilan ana shu o‘rganganlari yuzasidan munozaraga kirishib, tortishib yuradi.

* * *

Deylik, bir odamning hovlisiga sel bostirib kelayotir. Sen bundan voqif bo‘lib, o‘sha odam va uning oilasini hadahan:³ “Seldan qoching, saqlaningiz!” — deya ogohlantirasan. Shu xatarli holatda hovli egalariga notanish bo‘lgan jimjimador so‘z va ishoratlar bilan takalluf aylab, ularni seldan ogohlantirish risolaga rost keladimi? Yo‘q,

¹ Hoziq — bilimdon, o‘z ishining ustasi.

² Shar’iy — shariatga — islom dini qonunlariga tegishli.

³ Hadahan — tez, darhol.

albatta. Axir, sen qanday so'z bo'lmasin, tezroq ularni ofatdan qutqarib qolishing kerak-ku!

* * *

Va'z aytuvchining takallufdan saqlanmog'i vojib.

* * *

Shaytoniy vasvasada bir yashirin ofatlar bor.

* * *

Har vaqt kishilar bilan bir ish qilmoqchi bo'lsang, o'zingga manzur va ma'qul kelgan narsani ularga ham ravo ko'r. Chunki, o'ziga ma'qul narsani boshqa bir musulmon birodariga ham sog'inmaguncha hech bir bandaning iymoni komil bo'lmaydi.

* * *

Bir kun umring qolgan bo'lsa ham, qalbni musaffo etib, nafsni poklashga xizmat etuvchi ilmlar bilan shug'ullanib qolmoq zarur.

* * *

Ziyarak fahmga bir so'z, oqilga bir ishora kifoya, dey-dilar.

* * *

Topmaydi qazo¹ pardasiga yo'l hech kim.

Ali Botir va Isroil Subhon tarjimasi

¹ Qazo va qadar — ilohiy ilm. Qazo — Olloh taoloning hamma narsalarning kelajakda qanday bo'lishini azaldan bilishi. Qadar — hamma narsalarning Ollohnинг azaliy ilmiga muvofiq ravishda vujudga kelishi. Ma'lum bo'tadiki, qazo va qadarning ma'nosi bandalar tomonidan kelajakda sodir bo'ladigan ishlarning Olloh tarafidan oldindan bilib turilishi.

MAHMUD ZAMAXSHARIY

(1075 – 1144)

* * *

Yoki ilmli bo'l, yoki ilmga tayanib ish tutadigan bo'l,
loaqal ilmn ni tinglab eshitadigan bo'l, biroq to'rtinchisi
bo'lma, chunki kasodga uchrab, halok bo'lasan.

* * *

Agar biror qayg'u-alam yuz bergani yoki ta'ziyali joyni
eshitsang, darhol u yerga bor, agar ziyo fatu mehmondor-
chilikka chaqirilsang, unda o'zing bilasan.

* * *

Boshingizga mushkul ish va tashvish tushganda mu-
nis bo'lib, odamlarga mehr-muhabbatliroq bo'lasiz, ammo
davlatu ne'matlariga erishganingizda bag'ritoshlikka moyil
bo'lasiz.

* * *

Ahmoq kishi hikmat lazzatini bilmaydi, bamisoli tu-
mov kishi gulning hidini sezmaganidek.

* * *

To'g'ri va Haq yo'ldan yurgan kishining yurishi arslon
yurishidan ko'ra ham mahobatliroqdir.

* * *

Halol-pokiza kishi doimo xotirjam-u tinchlikdadir, birovga
xiyonat-u yomonlik qiladigan kishi esa halokatga giriftordir.

* * *

Sizlar bir-biringiz bilan do'stsiz va bir-biringizga azizsiz, vaholanki, bu boshingizga biron-bir xastalik, ochlik va boshqa ba'zi musibatlar tushmagan paytdadir.

* * *

Nizo va nifoq mavjud joyda noxushlik bo'lar, qayg'u-hasrat-u faqirlilikka tushilur.

* * *

Savdogarning shuhrati va obro'-e'tibori kissasida, olimning shuhrati-yu obro'-e'tibori yozgan kitoblarida.

* * *

Bu dunyo ibratli ishlaru pand-nasihatlarga to'ladur, ayni vaqtida ko'z yoshlariga ham serob.

* * *

Tilingdan chiqqan sadaqa ba'zan qo'lingdan chiqqan sadaqangdan ko'ra xayriroqdir.

* * *

Ko'pincha vaqtida ishlatilgan hiyla-yu tadbirkorlik kuch-u quvvatdan g'olib kelur.

* * *

Ko'p vaqtida ziyodalik, ortiqlik ziyon keltiradi. Masa-lan, bir qo'lida oltita barmoq bo'lsa, bu ortiqlik bo'lmay, kamchilik hisoblanadi.

* * *

Ko'pincha til bilan yetkazilgan jarohat qilich bilan yetkazilgan jarohatdan og'irroqdir.

* * *

Yer-u zaminning ko'rkaligi olimlar bilan bo'lsa, osmonu falakning ziynati esa yulduzlar bilandir.

* * *

Lovillab yonayotgan olovni suv o'chirgani kabi nondon odamlardan chiqayotgan alangani hakimu oqil odamlar so'ndirarlar.

* * *

Quyosh nurlarini berkitib bo'lmanidek, haqiqatning chirog'ini ham so'ndirib bo'lmas.

* * *

Olam uzra shunday yurginki, to butun olamning yelksiga oyoq qo'ygandek bo'l, shunda jami borliqdan ustun bo'lursan.

* * *

Ezgulik, xayrli ishlarga astoydil kirish, ularni paysalga solib, keyin qilarman degan o'ylardan voz kech, shayton yo'ldan uradigan shoshma-shosharlik bilan emas, tafakkur va idrok bilan ish tut.

* * *

Yomon, xasis kishi har bir tilda la'natlanadi, saxiy, karim kishi har joyda izzatu ikromda bo'ladi.

* * *

Kimki adovatu xusumatni eksa, albatta u tashvishu mashaqqat o'radi.

* * *

Tili-yu dili to'g'ri va haqgo'y bo'lgan odamning xato-yu nuqsoni kam bo'lur.

* * *

Kimki o'z nafsi balosi-yu, orzu havasi domiga tushib qolsa, u beshak o'zini o'zi chuqur qa'riga tashlagani mu-qarrardir.

* * *

Mard va olижаноб кишининг eng go'зal fazilatlaridan biri o'з birodarining ayblarini bekitib, uning barcha ishlарini bamisoli o'zining ishlари o'mida ko'rib ish tutishidir.

* * *

Kimki baxt-iqbolli, solih¹ kishilarning etagiga yopishsa, u albatta murodu maqsadiga erishib, xayr-u baraka topar.

* * *

O'з va'dasida turmaganda turli-tuman vaj-korsonlar ko'rsatuvchi kimsa hech qachon mard va himmatli inson bo'lolmaydi.

* * *

Go'zal sifat va husni xulq siyratlari bezamagan kishini hech qanday chiroyli kiyimlar ko'rkan qilolmas, gunoh va xatolardan saqlanmagan kimsaning qalbi sira aybdan forig' bo'lmas.

* * *

Takabburlik hech bir kimsaning qadr-qimmati va ulug'verligini ziyoda qilmaydi, u bor-yo'g'i dovul ichidagi shamoldan boshqa narsa emas.

* * *

Tadbirkorlikda sa'y-harakat ko'rsatish taqdir-u qismatlarda g'oliblikka olib kelish demakdir.

* * *

Tog' tepasidagi qoyalarni ko'chirish minnat eshitish yuklariga nisbatan yengilroqdir.

Ubaydulla Uvatov tarjimasi

¹ Solih — pokdil, pokdomon, taqvodor, pok kishi.

ABDULXOLIQ G'IJDUVONIY

(1103 – 1166)

* * *

Ko‘p kulish g‘aflatdandir va u qalbni o‘ldiradi.

* * *

Birovlarning maqtoviga uchma.

* * *

Ilm yo‘lida sobitqadam bo‘l.

* * *

Biror kishi seni maqtasa g‘ururlanma, tanqid qilsa ran-jima.

* * *

Baxillik va hasaddan yiroq bo‘lginki, baxil va hasadgo‘y qiyomat kuni do‘zax olovida bo‘ladi.

* * *

Dunyo g‘amidan qutulgan kishi himmati oldida yer yuzi bir zarra kabidir.

* * *

Har qanday holda ham pok xislatli bo‘l, chunki kamol ahli pokiza xislatlidirlar.

* * *

Riyo bilan qilingan ming yillik ibodatning bir arpacchalik qimmati yo‘q.

* * *

Zohiringga oro bermagilkim, zohirning oroyishi botin-ning xarobligidandir.

Sadriddin Salim tarjimasi

* * *

Gar bir kishidan dilda shikoyat bo'lgay,
Dil og'rig'i undan benihoyat bo'lgay;
Hech o'ylama intiqom¹ olishni, chunki
Yomonga yomonligi kifoyat bo'lgay.

* * *

Poklashga agar dilingni mashg'ul bo'lasan,
Odob-u muomalada ma'qul bo'lasan.
Boq yaxshi-yomonga rahmat ko'zi bilan,
Haq nazdida shoyad eng suyuk qul bo'lasan!

* * *

Insonga go'zal xulqi emish husn-u jamol,
Topgay u go'zal xulqi bilan fazl-u kamol.
Haq rahmatiga agar yetishmoq tilasang,
Sharti shuki: xulqingni mukammal qila qol!

* * *

Xohlar bo'lsang, haq o'zi yoring bo'lgay,
Har ranj-u g'ammingda g'amguzoring² bo'lgay,
Haq farmonidan tashqari hech qo'yma qadam,
Haq lutf ila shoyad madadkoring bo'lgay!

* * *

Ollohgga bashar qismati boshdan ma'lum,
Rizq ustida fikr etma, bu fikring — mavhum.
Rizq izlab chopma to buyurmay qismat,
Rizq asli azaldan qilingan taqsim.

¹ Intiqom — o'ch, qasos.

² G'amgusor — g'amxo'r, mehribon.

* * *

Yop ayb-u gunohini har odamini,
Dunyo g‘amini o‘ylama, chek dil g‘amini.
Olloh rizosi talabida bo‘lsang,
Qo‘y dardiga xalqni yaxshi xulq malhamini.

* * *

Umringki, o‘tar ekan, muruvvat ayla,
Qo‘lingki, tutar ekan, saxovat ayla.
O‘z hosilini o‘zi o‘rar har kimsa,
Bas, parvarishi uchun riyozat¹ ayla.

* * *

Shuhrat noni birla nafs itin shod etma,
Xalq ichra bo‘lar-bo‘lmas o‘zing yod etma.
Kamtar bo‘l — o‘zingni qilayin deb mashhur
Boy berma diningni yana, barbod etma!

* * *

Yomon kishilarga bo‘lma hech hamsuhbat,
Pok noming ular bulg‘agay aylab g‘iybat.
Har qancha ulug‘ bo‘lsa-da, oftobni qara,
Bir parcha bulut boshiga solgay zulmat.

Ergash Ochilov tarjimasi

¹ Riyozat — tariqatga kirgan solikning kamolot kasb etish va Haqqa yetish yo‘lida chekadigan mashaqqatlari, ranj-u iztiroblari.

XOJA ORIF AR-REVGARIY

(XII asr o'rtalari)

* * *

Hoy-u havas yuqoriga ko'tarilmoqqa to'siqdir.

* * *

Odamni saodatga yaqinlashtiruvchi xislat shuki, o'zni maloyikaga¹ monand etsin.

* * *

Dunyoviy firib-nayrang, lazzatlarni o'zingga manzur etmagaysen!

* * *

Qora yurak, chirkin ko'ngil butun a'zoyi badanni palid (harom) qilgay!

* * *

Ul qushki, bo'ynida og'ir (dunyoviy) yuk osig'liq ekan, bas, qandoq ko'kka parvoz aylasun?!

* * *

Modomiki kambag'allikdan qo'rqsang, bas, munofiqsen!

* * *

Odob pok odamlar ziynatidur.

¹ Maloyika — farishtalar.

* * *

Ma'rifatning' chegarasi — nafsdan xoli bo'lmoq va buning tadbiri (usuli) halol narsalardangina bahramand bo'lmoqni odat qilmoqdur.

* * *

Takabbur — gunohga itoat etuvchi shaxsdur va uning toati gunohidan ko'ra battarroqdur va o'ziga gunohidan ko'ra zararliroqdur.

* * *

Bu dunyoda vujuding bilan va oxiratda qalbing bilan bo'll!

* * *

Qaysi odamiki, istig'for² etib, tag'in gunohga qo'l urgay, Ollohdan taolo bundaylarning tavbasini harom qilgay va alar tomonga hargiz³ nazar tashlamas.

* * *

Seni Ollohdan to'suvchi parda dunyodur!

* * *

Goho sukunatning ta'siri kalomdan ustuvor turgay!

* * *

Insonlar fitnasidan ogoh bo'ling, insonlar!

* * *

Mard — Ollohdan muhabbatiga yetishgan kishining haddi⁴ uldurkim, Ollohnинг unga bergani-yu bermagani (g'amshodlik) bir xilda bo'lgay...

¹ Ma'rifat — Ollohdan mohiyati haqidagi ilm, irfon.

² Istig'for — tavba qilish, afv so'rash.

³ Hargiz — aslo, hech qachon.

⁴ Had — bu yerda: daraja, maqom.

* * *

Sizga Olloh taolo qay bandadan rozi bo‘lishini aytaymi — ul kishikim, mehnatiga va mehnatdan kelgan ne’matga shukrona qilur.

* * *

Olloh taolo rizqni bermoqqa kafil bo‘lgan, lekin odamzot o‘zini mashaqqatlarga solgay va oxirat darajasini topmoq uchun sa’y-harakat qilmagay, bovujud¹ bilgayki, amalsiz oxirat xarobdur.

* * *

Dunyoviy muhabbat — barcha kulfat va yomonliklar kalitudur.

* * *

Bas shunday mardlar borki, mabraz (hojatxona)ga kirurlar va u yerdan pok bo‘lib chiqurlar va shunday kishilar ham borki, Ka’baga borurlar va u yerdan palid (harom) bo‘lib qayturlar.

* * *

Ikki narsa qalbni fosid (iflos) qiladi: ko‘p yemoq va ko‘p uxlamoq.

* * *

Hazrati Xoja (ya’ni Abdulxoliq G‘ijduvoniy) dedilarki, kimeki uch narsani do’st tutgay, uning joyi do‘zaxdur. Birinchisi — laziz taomlarni yemoqqa haris, ikkinchisi nafis liboslarni kiymoqqa ruju qo‘yan kishi, uchinchisi — faqir-kambag‘allar suhbatini pisand etmay, boy-badavlatlar suhbatini orzu etgan kishi. Zero, bularning har biri hoy-u havas va nafs murodi ila hosil bo‘lur.

Sadriddin Salim va Isroil Subhon tarjimalari

¹ Bovujudi — 1) shunday bo‘lsa-da, shunday ekan; 2) agarchi; 3) qisqasi.

SULAYMON BOQIRG'ONIY

(XII asr)

* * *

Har kim ko'rsang, Xizr bil,
Har tun ko'rsang, qadr¹ bil.

* * *

Barcha — yaxshi, biz — yomon,
Barcha — bug'doy, biz — somon.

* * *

Mening xor bo'l mishim o'z g'aflatimdin.

* * *

Hojat ermas bu dunyoni muncha yig'moq,
Bu xasis dunyo uchun muncha yelmoq.
Bir kun ko'chib borsanu, qo'yub bormaq,
Qo'yub bormaq hasratini sonmasmusan?²

* * *

Aytmag'il, qari o'lar, yigit o'lmas,
Ko'b, telim³ yigitlar qari bo'lmas.
Vaqti etsa, dam olgali zamon bermas,
Yigitlik o'lumindin qo'rmasmusan?

¹ Qadr — Laylat ul-qadr: ramazon oyining 26-dan 27-ga o'tar kechasi. Qur'oni karim shu kechada nozil etila boshlagan. Bu kechada farishtalar yerga tushib, musulmonlarning gunohlari kechirilishini so'rab, Ollohga iltijo qilar ekanlar. Shuning uchun bu kechada qilinadigan duo-iltijolar darhol ijobat bo'lar emish.

² Sonmoq — bu yerda: o'yamoq, bilmoq, hisoblamоq.

³ Telim — ko'p, talay.

* * *

Manmanlikni o'zingga ezgu sonma.

* * *

Qismatimdin ortuq taom yemas bo'lsam,
Bu dunyoni yig'ib-terib netoyin...

* * *

Bilur bo'lsang, ganj turur yer vayron turur.

* * *

Suhbatlik oriflarga¹ jonim berub,
Suhbatsiz nodonlardin qochg'um kelur.

* * *

Ikki sevukluk sig'mas bir ko'ngulning ichinda.

¹ Orif — ma'rifat sohibi, Oloehni tanigan kishi, komil inson. Oloehning zoti, sifatlari va ismlarini mushohada etadigan zavqiy va vajdiy ilmlar egasi bo'lgan zot.

NIZOMIY GANJAVIY

(1141 — 1209)

* * *

Hunar o'rgan, chunki hunarda ko'p sir,
Yopiq eshiklarni ochar birma-bir.

* * *

Bu kun bir kunitga yara, ey odam,
Bir kunitnga yarab qolurman men ham.

* * *

Osmon-u zaminda ne bo'lsa, bari —
Insonning fikridan emas tashqari.

* * *

Noumid bo'limg'il qaro kunda ham,
Qut¹ qatrasi qaro bulut ichra jam.

* * *

Dunyoda yechilur har qanday tugun,
Lekin birdan emas, ohista, sekin.

* * *

O'zgalar aybiga tetik nazar sol,
O'z aybing ko'rgandek, undan ibrat ol.

* * *

Yaxshi bil, qaro tun tushsa ham boshga,
Oxiri etursan porloq quyoshga.

¹ Qut — 1) yegulik, ovqat, taom; 2) jon, ruh. Bu yerda: rizq.

* * *

Noloyiq so'z zohir etsa nodon til,
Unga sukunatni javob aylagil.

* * *

Eshitganing yuvib tashla suv misol,
Faqat ko'rganingdan de ko'zgu misol.

* * *

Umrimiz-ku shom-u xufton orasi,
Yaxshilik qiladi odam sarasi.
Bu dunyo hech kimga qolmas abadiy,
Do'st dilini ovla, gapning xullasi.

* * *

Dushman so'zi deya do'stdan kechmoqlik xato.

* * *

Bir kun bir yosh yigit go'rige yetdim,
Go'rdan chiqar edi yuz nola, faryod.
"Nechun noliysan, ey navqiron?" — dedim,
Dedi: "Keksalikka yetolmadim, dod!"

Shoislom Shomuhamedov tarjimasi

* * *

Bil, adl-u adolat zafarlar sababi,
Bil, zulm-u sitam barcha zararlar sababi.
Bil, xayr-u saxo ayb-u gunohni yopgay,
Pastlig-u xasislik kadarlar sababi.

* * *

Ertangi kuningga ham umid yo'q hatto,
Bas, to'xtama yaxshilik qilishdan aslo.
Hech kimga vafo qilmas ekan bu olam,
Ovlab yasha do'stlar dilini har asno!'

Ergash Ochilov tarjimasi

¹ Asno — vaqt, payt, fursat.

FARIDIDDIN ATTOR

(1145 — 1221)

* * *

El bo'lib, chaqmoq bo'lib manzilga yet.

* * *

Ne uchun darkor¹ kishiga do'st-u yor
Bo'lmasa agar qaro kunda mador?

* * *

Shubha bo'lgan dilda bo'lmas ishtiyoq.

* * *

Nafsim — dushmanim.

* * *

Gar birovlar maqtasa yolg'on dakam,
Shod bo'lur nafsing o'shal yolg'on danam.

* * *

Bitta orzuga yetar bo'lsang, tamom,
Bosh ko'targay senda yuz iblis hamon.

* * *

Qancha termulma, tikan gul bo'lmagay.

¹ Darkor — kerak, lozim, zarur.

* * *

Toki yo'ldoshing erur nafsi xasis,
Boq, najosat ichradir joni aziz...

* * *

Har nafasni bil g'animat erta-kech,
Andin ortiq bormu shu olamda hech?

* * *

Oyga yetgaymu chumoli tirmashib?

* * *

Kimki sarkashdir¹, chekar zahmat base.

* * *

Soya qolgaymu yuz ochsa oftob?

* * *

O'zgalar aybini ko'rgaysen chunon,
Lekin o'z aybingni ko'rmog'ing gumon.

* * *

O'zgalar aybin ko'rarsen besh-u kam,
Izlagil bir bora o'z aybingni ham.

Ko'z ochib, ko'rsayding aybingni agar,
O'zgalar aybiga solmasding nazar.

* * *

Har kishi insofli ersa, mard o'shal,
Yo'qsa insofi, qabih, nomard o'shal.

* * *

Ilm-u fan yo'llarda mash'aldir, chiroq.

¹ Sarkash — o'jar, qaysar.

* * *

Lojaram' oltinga tengdir yaxshi so'z,
Aytmagan so'z ersa oltindan aziz.

* * *

Jahonda bir chumoli topsa barham¹,
Jahon ortiq emas yo bo'lmagay kam.

* * *

Haqiqat ne? Tafakkurga to'lish ul,
Kechib o'zdin, o'zing birlan bo'lish ul.

* * *

Uzatsang yaxshilik sori ilikni³,
O'zingga aylagaysen yaxshilikni.

* * *

Ochilsin ko'zlarim deb istasang fol,
Ko'ngilni ilm-u donish⁴ bahriga⁵ sol.

* * *

Kishikim bilga-yu etmas amal ul,
O'ziga aylagay koni zarar ul...

* * *

Ilm birlan amalda ko'r o'zingni.

* * *

Bugun oz-ozdin ekkil yaxshilik, bas,
Yomon deb ertaga noming taralmas.

¹ Lojaram — albatta, shubhasiz.

² Barham topmoq — yo'qolmoq, nobud bo'imoq.

³ Ilik (ilg) — qo'l.

⁴ Donish — bilim, ma'rifat.

⁵ Bahr — azim daryo, dengiz.

* * *

Chayondin yaxshilik kutgaymi odam?
Chayon tishlar chayonni, yamlagay ham.

* * *

Bunda har nafas bir imtihondir.

* * *

Hama ishda chiroydir sabr-u bardosh.

* * *

Sababkor jumla ofatga — shitobdir.

* * *

Yomon so'z aytma, yolg'on so'zlama, boq,
Gunoh bo'lgaymu bundan ham yomonroq?

* * *

Hasadga berma yo'l, kuydirgusi ul,
Ko'ngilni jonidin to'ydirgusi ul.

* * *

Bit ishga gar kirishsang, o'yla o'bdon,
Ne birlan oxiri topgusi poyon...

* * *

Ko'ngilni besabrlik tirkagay goh,
Sabr qilsang, tagi oltindir, illo¹.

* * *

Tilingga bermagil erk, ushla tilni,
Chu o'ttiz tish ila sen tishla tilni.

* * *

Agar so'z so'zlasang, xush so'zla doim —
Ki, andin yaxshilik bo'lgusi qoim².

¹ illo — agar, ammo, biroq.

² Qoim — mustahkam, barqaror.

* * *

Buyuklar so'zini sen aylagil yod,
Ularning hikmati umringga ustod.

* * *

Kichik deb dushmaningga boqmagil xor —
Ki, uchqun ostida ulkan olov bor.

* * *

Jahonga kelmading o'ynab-kulish-chün,
Kelibsen bu jahonga yuksalish-chun.

* * *

Necha erlarki bor arslon misoli
Vale ish oldida ojiz chumoli.

* * *

Agar xalq birla bo'lsang, mehribon bo'l,
Tilingga berma erk, shirinzabon¹ bo'l.

* * *

Kishikim, umrini zoye etar, kul,
To'kib o'z qonini, ichguvchidir ul.

* * *

Zig'irdek bir harom luqma yesang gar,
Azobi to abad jonningni o'rtar...

* * *

Agar qorningni band etsa najosat,
Nechuk kelgay senga ilm-u farosat?

Jamol Kamol tarjimasi

¹ Shirinzabon — shirintilli, xushmuomala.

* * *

Ey dil, shod bo'l, yaxshi-yomon o'tgusidir,
Bir kuni qulni begumon o'tgusidir.
Bor ne'mati-yu quvonchi bu dunyoning
Umring kabi solgancha suron o'tgusidir.

* * *

Nokas kishilardan bu dilimda g'amdir,
O'lsang qani, chunki suhbati motamdir.
Nokas kishilar bilan bihishtga¹ tushsam,
Do'zax tilagum, unda uqubat kamdir.

* * *

Ey dil, bu tuban dunyo uchun xor bo'lma,
Murdoriga karkas² qushidek yor bo'lma.
Dunyoga jahon xalqi giriftor bo'ldi,
Sen o'zni tani — unga giriftor bo'lma.

* * *

Nokas ila non yesam agar, qon bo'lgay,
Sassiq so'zidan tab' uyi vayron bo'lgay.
Bir lahza yonida o'tirish bir yon-u,
Ul yetti jahannam o'ti bir yon bo'lgay.

* * *

Tog' orgasidan yuzini ko'rsatdi kun,
Shod ayla diling, har nima bo'lsa-bo'lsin!
Umring-ki vafo qilmasa, ne foydasi bor —
Har qancha uying oltin-u zarga to'lsin?!

¹ Bihisht — jannah.

² Karkas — o'limtik bilan kun ko'ruchchi yirtqich qush.

* * *

Bilmoq esang osuda yashash hikmatini,
Ranj' etsa, unut xafa bo'lish odatini.
Har ikki jahon daryo kabi ursa-da jo'sh,
Har ikki jahonga sotma dil rohatini.

* * *

Kim bo'g'zigacha botsa bu dunyo loyiga,
Bor-yo'g'ini boy berib, jahondan ketgay.

Ergash Ochilov tarjimasi

¹ Ranj — azob, mashaqqat, qiyinchilik.

ADIB AHMAD YUGNAKIY

(XII asr oxiri — XIII asr boshi)

* * *

To‘g‘ri bo‘l, to‘g‘ri yur, to‘g‘ri nom qozon,
To‘g‘ri desin seni har bitta inson.
To‘g‘rilik to‘nin kiy, egrilikni qo‘y,
To‘g‘rilik to‘nidan huzur topar jon.

* * *

Baxil ishi harom mol-dunyo yig‘ish,
O‘lib ketdi olib la’nat-u so‘kish.
Talash bo‘ldi moli kishilar aro,
El qarg‘ishi bo‘ldi baxilga ulush.

* * *

Dunyoga hirs qo‘yan, ey haris yurak,
Ayt-chi, bu harislik nimaga kerak?
Rizqing belgilikdir — ozmi yoki ko‘p,
U zarra ko‘paymas, bo‘lma jonhalak.

* * *

So‘zni bilib so‘zla, shoshib so‘zlama,
Bo‘limg‘ur so‘z aytib, keyin bo‘zlama.
Do‘sting mingta bo‘lsa, ko‘p ko‘rma sira,
Dushman bitta bo‘lsa, uni oz dema.

* * *

Yaxshining qo‘lidan yomonlik kelmas,
Yomon hech yaxshining qadrini bilmas.
Ey yomonlik qilib, yaxshilik kutgan,
Kim tikan izlasa, u uzum yulmas.

* * *

Bilimsizga haq so‘z tatimas hech ham,
Pandga qulqutmas bilimsiz odam.
Yuvinsa pok bo‘lar har qanday nopok,
Johil pok bo‘lmaydi ming yuvinsa ham.

* * *

Har qancha ishonchli do‘sting bo‘lsa ham,
Ko‘ngil sirlariga aylama mahram.
O‘zingning ichingda tinch turmagan sir,
Birovning ichida turarmi mahkam?

* * *

Ulug‘lar ne bersa, yemasman dema,
Qo‘ling cho‘z, og‘iz ur, yemasang-yema.

* * *

Otadan xato kelsa, ko‘rma xato,
Savob bil xato toki qilsa ota.
Otaning xatosini bilgil savob,
Seni yuz balodan qutqargay Xudo!

* * *

Bilimdan so‘zlayman — so‘zimni eshit:
Bilimli kishiga o‘zni yaqin tut.
Bilimdan ochilar saodat yo‘li,
Bilim ol — saodat manziliga yet.

* * *

Suyak — ilig-u yer — bilim bilan, bil,
Suyak ko'rki — ilik, er ko'rki — aql.
Bilimsiz iliksiz suyakday bo'm-bo'sh,
Iliksiz suyakka uzatilmas qo'l.

* * *

Bilimdan er kishi bo'ldi belgilik,
Bilimsizga tirik o'lmoq ko'rgulik.
Bilimli o'lsa-da, oti o'lindi,
Bilimsiz hayot-u oti-chi — o'lik.

* * *

Bitta bilimli ming bilimsizga teng,
Bilimli biladi bilim qadrin deng.
Endi o'zing boqib, uqib, sinab ko'r:
Bilim foydasiga nima kelar teng?!

* * *

Olim yuksaladi bilimi bilan,
Bilimsiz kishilar bo'ladi tuban.
Bilimli bo'l, sira erinma, Rasul —
Kim bilimli bo'lsa, ulug'lang degan.

* * *

Bilimli bilimni farqlagan bo'lar,
Bilimning qadrini bilimli bilar.
Erga bilim qadrin bilim bildirar,
Bilimni bilimsiz nodon ne qilar?

* * *

Quloq tut — bilimli nimalar deyar:
Adab boshi — tilni tiyishlik bo'lar.
Tilingni tiyib yur, tishing sinmasin,
Tilingni tiymasang, tishing sindirar.

* * *

Bilimli ne qilar — biladi tayin,
Bilib qilganidan o'kinmas keyin.
Bilimsizga har ish to'g'ri ko'rinar,
Shundan unga chora yo'q o'kinmayin.

* * *

Bilimli kerakli so'zin gapirar,
Keraksiz so'zini ko'mib yashirar.
Bilimsiz ne desa, uqmasdan deyar,
Uning o'z tili o'z boshini yeyar.

* * *

Haqni tanishga ham kerak ma'rifat,
Bilimsizlikda yo'q hech ezgu jihat.
Bilimsizligidan ko'p qavmlarga
Qo'lini but¹ qilib, sig'inish odat.

* * *

Aqli bo'larmi tili bo'sh kishi?
Ko'p boshlar ketdi — bu bo'sh tilning ishi.
Kishi tilini top, o'chakishtirma,
O'q yarasi bitar, bitmas til nishi².

* * *

O'ylab so'zlaganning so'zi haqiqat,
Yomon til o'zingga dushman beshafqat.
So'zga ehtiyyot bo'l, tiling tiyib yur,
Tiyiqsiz til boshga keltirar ofat.

* * *

Kishiga ne kelsa, tilidan kelar,
Tildan kishi yaxshi-yomonlik ko'rар.
Qulog tut bu pandga — u barchaga teng,
Kim uni dilga jo qilur, yukinar.

¹ But — sig'iniладиган нарса, санам.

² Nish — тиг', тикан.

* * *

Tilingga erk berma, qisqa qil so'zing,
Tiling tiyib yursang, omonsan o'zing.
Rasul der: kishini o'tga tashlar til,
Tiling tiy, bu o'tdan xalos qil o'zing.

* * *

Kim ikki narsadan emasdир xoli,
Yopilgaydir unga muruvvat yo'li.
Birisi — behuda vaysasa tinmay,
Birisi — ko'p yolg'on so'zlasa tili.

* * *

Tili yolg'on erdan yiroq tur tez-a,
Umrinги kechirgil to'g'rilik uza.
Og'iz, til bezagi to'g'ri so'z bo'lar,
So'zni to'g'ri so'zla — dilingni beza.

* * *

Qattiq yashir — siring kishi bilmasin,
So'zingdan o'zingga o'kinch kelmasin.
Barcha pinhon siring bo'lib oshkora,
Ko'rgan-eshitganlar senga kulmasin.

* * *

Yolg'on — sassiq piyoz, to'g'ri so'z — asal,
Piyoz yeb sasima, bol ye har mahal.
Yolg'on so'z dard bo'lsa, to'g'ri so'z — davo,
Bu haqda shunday deb to'qilgan masal.

* * *

Bu dunyo misoli bir karvonsaroy,
U karvon ahliga vaqtinchalik joy.
Bir karvon bu yerdan yo'lga chiqqanda,
Bir karvon manzilga yetdi, hoynahoy.

* * *

Bu dunyo ketidan yugurar necha,
Baxil tinmas jigar qonini icha.
Boylikka muncha dil boylamoq nechun?
Boylik vafo qilmas birovga hecham.

* * *

Boylik bugun kelsa, ertaga ketar,
Mulking boshqa birov qo'liga o'tar.
Neki butun bo'lsa, yemrilar bir kun,
Neki obod, xarob sari yuz tutar.

* * *

Qancha obod yerning chiqdi taqiri,
Gurkiragan elning bitdi taqdiri.
Qancha dono edi, qancha faylasuf,
Qolmadi ularning mingidan biri.

* * *

Ko'ngildan chiqar mol-dunyo suqligin,
Ista ust butligi, qorin to'qligin.
Yeyish-ichishdamas boy-kambag'allik,
Qashshoqlik deb bilma oziq yo'qligin.

* * *

Dunyo boyligidan kiyim, yegulik —
Bo'lsa bas, ortig'i ziyon degulik.
Ekinzor deb aytdi dunyoni Rasul,
Unda ekin ekkan topdi ezgulik.

* * *

Bebaqodir ushbu dunyo lazzati,
Yeldek kechar uning totli muddati.
Yangi eskiradi, yigit qariydi,
Beli bukiladi, ketar quvvati.

* * *

Dunyo goh qosh qoqar, goh qovoq solar,
Bir qo'lida asal, birida zahar.
Asal bilan totli qilib taoming,
Ortidan zaharli qadahni tutar.

* * *

Shirinlik yeganda achchiqlikka yo'y,
Bir rohat ortida o'n g'am tortar bo'y.
Ey mashaqqat chekmay rohat istovchi,
Bu orzung ushalmas sira — bilib qo'y!

* * *

Mol-dunyo tufayli bo'lding-u ulug',
Kibr-u havo seni qul qildi to'liq.
Moldan ne naf, o'lgach yalang'och ketsang,
Qolsa uy-joy, hamyon, mol to'la sandiq.

* * *

Kibr to'nin kiyib, ko'krak kermagil,
Xalqqa tiling bilan ozor berma mo'l.
Mo'minlik nishoni tavoze erur,
Agar mo'min esang, tavozeli bo'll!

* * *

Ilondek dunyoning ishi sehr-jodu,
Yuvosh deb aldanma, ichi liq og'u.
Yuvosh ko'rinsa-da, fe'li ko'p yomon,
Hazir bo'lmaganni o'ldiradi u.

* * *

Bu dunyoning juda chiroyli tashi,
Lekin ichidadir ming bir noxushi.
Bas, uning sirtiga mahliyo bo'lib,
Ko'ngil bog'lamoq, bil, xatolar boshi.

* * *

Niqobin ko'tarib, dunyo yuz ochar,
Qo'l yozar quchgudek bo'lib-u qochar.
Ko'klam bulutidek yo shirin tushdek,
Baxt yel kabi kechar yo qushdek uchar.

* * *

Ey do'stim, bilimli kishi izlagil,
Agar so'zlasang so'z, bilib so'zlagil.
Saxovat ahlini maqta, ulug'la,
Baxilga qattiq yoy o'qin ko'zlagil.

* * *

Saxiyni ulug'lar barchanining tili,
Bor aybini yopar saxiyning fe'li.
Saxiy bo'l, to senga la'nat kelmasin,
Saxovat berkitar la'natning yo'lin.

* * *

Eng qattiq ko'ngilni saxiy yumshatar,
Eng oliy maqsadga saxiy er yetar.
Baxillikni hech kim maqtagan emas,
Saxiylikni ham xalq, ham Haq madh etar!

* * *

Saxiy ilm qadriga yeta bildi — ko'r,
Borini ularhib, olqish oldi — ko'r.
Bu dunyoda umri qisqa insonning
Qiyomatga qadar oti qoldi — ko'r.

* * *

Ey boylik egasi, saxiy, yaxshi er,
Haq senga berdimi, sen ham xalqqa ber.
Bermay bosib yotgan la'natga loyiq,
In'omdan qochmasang, dunyo yig'avet!

* * *

Dunyoda eng yaxshi saxiy degan nom,
Baxil oti esa yomondir mudom.
In'om beruvchi qo'l qutlug'dir juda,
Qutsizdir qaysi qo'l bermasa in'om.

* * *

Baxillik davolab bo'lmas darddir ul,
Saxovat yo'li berk baxilga butkul.
Yig'ib ko'ngli to'lmas ko'zi och baxil,
Mol-dunyo go'yo shoh, baxil esa qul.

* * *

Xalqning eng yaxshisi saxiy er erur,
Saxiylik shon, obro', qadr orttirur.
Sevilmoq tilasang kishilar aro,
Saxiy bo'l, saxiylik seni sevdirur.

* * *

Baxil, tuban kishi boylik posboni,
Yig'ar, yemas-ichmas, tutar berk uni.
Do'stga ravo ko'rmas hatto osh-tuzin,
O'lgach bari qolar — yeysi dushmani.

* * *

Yana bir keraklik so'zim bor senga,
Aytayin men uni — qulqut tut menga.
Takabburni boshdan oshirib tashla,
Tavozeni top-u do'st tutin unga.

* * *

Haris to'ymas dunyo molini terib,
Harislik qarimas egasi qarib.
Haris kishi qo'yar harisligini
O'lib yitsa tuproq ichiga kirib.

* * *

Karam binosidan hilm bo'lar hosil,
Karam keng dengiz yo gulzor ichra gul.
Xulq-odob egallab, o'zni kamtar tut,
Karam egasiga arzir bo'lsa qul.

* * *

O'zingdan kattani hurmat qil, hurmat,
Tashla, qancha bo'lsa, yomon fe'l, odat.
Yaramas ishlaring yoshlarni buzib,
Kattalar ichida qo'zg'aydi nafrat.

* * *

Haris dunyo yig'ib charchamas bo'lur,
Harislik dardiga davo kim bilur?
Daromad xabari berilsa kimga,
Ikki qo'l dinorni¹ u o'n qo'l qilur.

* * *

Odamlar fe'lini yaxshi kuzat, bil,
Kimda karam bo'lsa, uni er degil.
Mevasiz daraxtdek karamsiz kishi,
Mevasiz daraxtni kesib o'rtagil.

* * *

Yomonlik qilganga sen yaxshilik qil,
Muruvvatning boshi shudir — yaxshi bil.
Agar birov senga qilsa yaxshilik,
Uning duosidan to'xtamasin til.

* * *

Gunohkor kishining gunohin kechir,
Adovat ildizin tubidan ko'chir.
G'azab o'ti agar olsa alanga,
Halimlik² suvin soch — ul o'tni o'chir.

¹ Dino r — oltin tanga.

² Halimlik — yumshoqlik, muloyimlik.

* * *

Shodlikka yo'y balo kelsa, sabr etib,
Shodlik kelishiga ko'z tut qon yutib.
O'char kulfat o'ti — kechar navbati,
Qolar sabr qilgan savobni tutib.

* * *

Ulug'likka yetsang, yanglishma o'zing,
Atlas kiyganingda unutma bo'zing.
Fe'lingni yaxshilab ulug'larga xos,
Katta-yu kichikkha yumshoq qil so'zing.

* * *

Tadbirli kishi ham goh xato qilar,
Mohir ustada ham biror ayb bo'lar.
Bir ayb uchun odam boshi kesilsa,
Dunyo boshdan oyoq odamsiz qolar.

* * *

Yasha odamlarning ko'nglini olib,
Yomon odatlarni orqaga solib,
Bir ish qilar ekan, o'ylab qil, uning —
Kerakli yo keraksizligin bilib.

* * *

Senga to'g'ri kelsa qay ishni qilmoq,
Yaxshidir uning old-ortini bilmoq.
Agar xayrlidir dil bersa arzir,
Agar o'kinchlidir lozim qutulmoq.

* * *

Do'sti yaxshi o'zi ham yaxshi bo'lar,
Yaxshi do'stdan doim yaxshilik kelar.
Yomonga qo'shilma, yomon suhbati
Seni ham yomonlik yo'liga solar.

* * *

Zamonni ayblama xalqni qo'yib, bas,
Bor ayb odamlarda, zamonda emas.

* * *

Ey yaramas kishi, kibringni tashla,
To hayot ekansan, yaxshi ish boshla.
Istagancha tinch-u qayg‘usiz yasha,
Yaxshi ishing bilan ko‘ngilni xushla.

* * *

Ey boylik oshig‘i, bilsang, mol-u mulk
Bu dunyoda hasrat, u dunyoda yuk.
Harom bo‘lsa moling — qismating azob,
Halol bo‘lsa moling, hisobi bor lek.

* * *

Mol-dunyoga nega muncha och ko‘zing?
Boylik dildagi g‘am, tildagi so‘zing.
O‘lgach, yiqqanlaring dushmanga qolur,
Senga nasib bo‘lar ikki gaz¹ bo‘zing.

* * *

To‘plagan mol-dunyong ulfatdir senga,
Lekin yashirganing kulfatdir senga.
Shirin tuyuladi bu kun mol yig‘mak,
U kun tashlab ketish hasratdir senga.

* * *

Bu dunyo lazzati ko‘p achchiq maza,
Tashvishi mo‘l uning, rohati oz-a.
Qayda asal bo‘lsa, arisi ham bor,
Asal deb, zahrini tortasan toza.

* * *

Hunar bilan davlat birga bo‘lishi
Bu dunyoda barcha ishdan sozroqdir.

Ergash Ochilov tarjimasi

¹ Gaz — 0,71 metrga teng uzunlik o‘lchovi; arshin.

BOBO AFZAL

(1195/96 – 1256/65)

* * *

Uyat bo'ladi ulug'lasa o'zni kishi,
 Eldan oshirib, katta desa so'zni kishi.
 Boq: barchani ko'rga-yu o'zini ko'rmas,
 Bu borada ibrat bilsin ko'zni kishi.

* * *

Aqlingni yig'ib, angla hayot mazmunini,
 Ol qo'lga chuvalgan ishlaring tizginini.
 Butxona¹ bo'libdi har xayoldan ko'ngling,
 Sindir butini — Ka'baga aylantir uni.

* * *

Davr evrilishiga chek-u poyon yo'qdur,
 Dunyo ishida me'yor-u mezon² yo'qdur.
 Har tashvish-u g'amda qiynama joningni,
 Sovrilgan umr dardiga darmon yo'qdur.

* * *

Bu dunyoda bir do'st topish oson emas,
 Beg'am yashamoqni sira ham qilma havas,
 Bor bo'lsa jahonda kishi beg'am bu nafas,
 Yo odam emas, yoki bu olamdan emas³.

¹ **Butxona** — butparastlar ibodatxonasi.

² **Mezon** — tarozi, o'lchov, barobar.

³ **Bu ruboiy Badriddin Hiloliya ham nisbat beriladi.**

* * *

Bu dabdaba-yu davlat-u davron hechdir,
Jang qilsa ajal, sovut-u qalqon hechdir.
Ish oqibatiga boqqaningda ko'rasan:
Yaxshilikdan boshqasi yolg'on, hechdir.

* * *

Dunyo ishiga aql azal hayrondir,
Oqil-u hunarmand ahli sargardondir.
Yetdim deb shodlikka g'ururlanma sira,
Shodlik qatida hamisha g'am pinhondir.

* * *

Mol-dunyo uchun muncha chekarsan qayg'u?
Ko'rdingmi jahonda yashaganni mangu?!
Bu tandagi har bir nafasing omonat,
Umringga ishonch — eng aldamchi tuyg'u.

* * *

Qattiq bo'lsang, tig'dek yuqori tutishar,
Yumshoq bo'lsang, mum kabi ezib o'tishar.
Egri bo'lsang, tortishar o'zga yoydek,
To'g'ri bo'lsang, o'qdek uzoqqa otishar.

* * *

Himmati ulug' kishi sanalgaydir mard,
Mol-dunyo havasi ko'ngliga solmas dard.
Tuproq uyin tasarruf¹ etsa harchand,
Himmat etagiga sira qo'ndirmas gard.

* * *

Kam so'zla hamisha, behuda so'zni unut,
So'z so'rmasa sendan to birov, saqla sukut.
Til bitta, og'iz bitta, qulqoq ikkitadir,
Bu degani bitta gapir-u ikki eshit.

Ergash Ochilov tarjimasi

¹ Tasarruf — o'z ixtiyoriga olish, egalik qilish.

SA'DIY SHEROZIY

(1203 — 1291)

* * *

Nochor qolgan kishi zo'r berar tilga,
Mag'lub bo'lgan mushuk tashlanur itga.

* * *

Bu jahon hech kimga qolmas, birodar,
Dilingni Tangriga topshirsang yetar.
Tayanch deb bilmagil bu dunyo molin,
Ko'plarni o'stirib, berdi zavolin.
Jon berar ekansan, farqi yo'q sira:
Taxtda o'lasanmi, yo tuproq uzra.

* * *

Jahondan Humo¹ qush yitib ketsa ham,
Boyqush soyasini istamas odam.

* * *

Bulutdan chin hayot yomg'iri yog'sa,
Tol daraxt shoxida meva pishmaydi.
Urinma yomonni yaxshi qilishga,
Bo'yrabop qamishdan shakar chiqmaydi.

* * *

Agar sen istasang boylik va davlat,
Eng katta boylikka tengdir qanoat.

¹ **Humo** — kimning boshiga soyasi tushsa, o'sha kishi baxtli bo'ladi deb e'lon qilinadigan afsonaviy davlat qushi.

* * *

Keskir xanjar bo'lmas yomon temirdan,
Odam qilib bo'lmas kim esa nokas.
Go'zal tabiatli yomg'ir ming yog'sin:
Bog'dan lola unar, sho'rxok yerdan xas.

* * *

Yotlar bilan birgalashib kezgandan ko'ra gulshan,
Do'stlar ichra mayli edi bo'lsa oyoqda kishan.

G'afur G'ulom tarjimasi

* * *

Yomon ham o'tar, yaxshi ham, yaxshi bil,
Semi yaxshi nom birla yod etsin el.

* * *

Qololmas jahon ichra mangu kishi,
Faqat qolgusi yaxshi nom-u ishi.

* * *

Gunohsiz kishi so'zga botir bo'lur.

* * *

Aqli kishi sabr etar har nafas,
Jaholatga yengilgan oqil emas.

* * *

Yomonlik qilib, yaxshilik kutmagil,
Tikanzor uzum bermagay, yaxshi bil.

* * *

Kishini buzuq nafs etar xor-u zor,
Gar oqil esang, sen uni ayla xor.

* * *

Eshitgan emasman shu yoshga kirib:
“Yomonning jazosi bo'lur yaxshi!” — deb.

* * *

Bo'lak yaxshi nom istama — shul yetar:
Seni yaxshi odam desa, el agar.

* * *

Kishi pul bilan bo'lmagay muhtaram,
Eshakdir — eshak gar ipak kiysa ham.

* * *

Shirin so'zli shilgay g'anim po'stini,
Dag'al so'zli dushman qilur do'stini.

* * *

So'z inson kamolotidir, yaxshi bil,
Bilib so'zlagil, hurmating to'kmagil.

* * *

Hunarmand kishi men hunarmand demas,
Uni ta'rif aylar hunar har nafas.

* * *

Kishi yaxshi kun qadrini bilmagay,
Yomon kun agar boshiga kelmagay.

* * *

Umiding agar ersa xirmon qilish,
Ekinni qil o'z vaqtida parvarish.

Chustiy tarjimasi

* * *

Ishim, so'zim to'g'ri bo'lsa, ne g'amim,
Nima desa-desin g'iybatchi g'anim!.

¹ G'anim — dushman, raqib.

* * *

**Qo‘lingdan kelgancha mehnat qil, mehnat,
Mehnatdan yog‘ilur boshingga rahmat.**

* * *

**O‘z tengiga boqsa balanddan kishi,
Hech kim ulug‘ demas, shudir aql ishi.**

* * *

Yomonga yomonlik qilmoqlik oson.

* * *

**Kim o‘zi kattadan ko‘rmasa jabr,
Kichiklar holiga achinmas axir.**

* * *

**Har ishda bo‘lmog‘i kerak andoza,
Qilmagan ishingni qilma ovoza.**

* * *

**Sochgan donang tushsa toshga muttasil,
Kuzda ololmaysan ekindan hosil.**

* * *

**Yopiq bo‘lgandaydi og‘zing g‘unchadak,
Guldek yirtimasdi yoqa va ko‘ylak!**

* * *

**Yaxshi nom qoldirmoq istarsan agar,
O‘g‘lingga aql ber, o‘rgatgil hunar.**

* * *

**Boylik davlatingga suyanma zinhor,
Boylik bebaqodir, davlat beqaror.**

* * *

**Agar bo'lsa kishi qo'lida hunari,
Qo'lin cho'zmagay hech kishilar sari...**

* * *

**Yomonlik yoqmasa, o'zing qilmagil,
Keyin boshqalarga qilmagil degil.**

* * *

**Aqling bo'lsa, do'stdan o'girma yuzing,
Dushman jur'at etmas o'yemoqqa ko'zing.**

* * *

**Ranjitib yubordi kimki o'z do'stin,
Dushmani payt poylab, shiladi po'stin.**

* * *

**Yaxshilar ketidan qolmay choparsan,
Ezgu tilagingni shunda toparsan.**

* * *

**Qoqildim-u hikmatini bildim:
“Pand yeb olur odamiy, axir, pand”.**

* * *

**Davlating borida ishing sol yo'lga,
O'tib ketajakdir u qo'ldan qo'lga.**

* * *

**Avval o'ylangiz, so'ngra so'ylangiz
Devordin avval qo'yilur negiz.**

* * *

**Beodobga nasihat,
Sho'r yerga don ekmakdir.**

* * *

**Kimki befoyda umrin o'tkazdi,
Hech narsa olmasdan oltin ketkazdi.**

* * *

**Sevinma dushmanim olmish deb ajal,
Bir kuni senga ham gal keladi, gal.**

* * *

**Birlashsa chumoli ittifoq bo'lib,
Arslon terisini olajak shilib.**

* * *

**Ikki kishi o'rtasiga o't tashlar kezi,
Bu o'rtada aqlsizning kuyadi o'zi.**

* * *

**Dono kishi vujudi misoli zar-u tillo,
Har qayerga borsa ham qimmati tushmas aslo.**

* * *

**Harakat bo'lmasa, bo'shab kishani,
Orzuga yetolmas polvonlar tani.**

* * *

**Chin azm-u harakat qilmay muttasil,
Hech kimsa murodi bo'lmedi hosil.**

* * *

**Bo'lsa bir hunaring, agar yuz aybing,
Do'st nazdida hunar yopar yuz aybing.**

* * *

**Istar esang otangdan meros,
Bog'la otang ilmiga ixlos.**

* * *

Bilim mezonida so'zing o'lchab ol,
Ilmsiz gap bari shamoldir, shamol.

* * *

Harchand o'qibsan — bilimdonsan,
Agar amal qilmading — nodonsan.

* * *

Ustiga kitob ortilgan eshak
Na olim va na donodir beshak.

* * *

Nodon qulog'iga pand xuddi qafasda shamol,
Olamning nasihati g'alvirdagi suv misol.

* * *

Sulh istar kishining ko'nglin sindirma,
Sulh eshigin qoqsa, sen jang qidirma.

* * *

Mol-dunyo qo'lga kirgizmoq hunarmas,
Qo'lingdan kelsa gar bir dilni ovla.

* * *

Gar ish bitsa lutf-u yaxshilik bilan,
Na hojat janjal-u ur-sur qilishdan.

* * *

Muloyimlik bilan yurmasa ishi,
Nochor dag'allikka kirishar kishi.

* * *

Yomon bilan o'tirgan inson,
Bir yaxshilik ko'rmas hech qachon.

* * *

Och ichakni to'yg'izar bitta nonning ovqati,
Och ko'zni to'ydirolmas butun olam ne'mati.

Shoislom Shomuhamedov tarjimasi

JALOLIDDIN RUMIY

(1207 — 1273)

* * *

Yaxshilik yoki yomonlik etmayin,
Bir nafas dunyoda turmog'ing qiyin.

* * *

Oqil ulkim, ibrat olgay doimo
Do'stlari boshiga kelganda balo.

* * *

Kim pisib kelsa, ishi tuhmat bo'lur,
Kim dadil kelsa, ishi jur'at bo'lur.

* * *

Past kishi o'zdin balandga yov bo'lur.

* * *

Bergusi fil quvvatini ittifoq.

* * *

So'yladingmi, sirga aytgil alvido,
Gar birov bilsa, taralgay el aro.

* * *

Jahd-u jadal tavakkaldan ustun.

* * *

Bu jahon — tog‘, fe'l-u atvoring — nido,
Ul nidoni senga qaytargay sado.

* * *

Yer haloldir — bexiyonat har mahal,
Ekkanningni qaytarib bergay tugal.

* * *

Do'stlar bir-birga hadya bersalar,
Hadya ermas, balki do'stlikdan xabar.

* * *

So'z agar bir ersa, ma'no mingtadir.

* * *

Vaqt lozim qondan ayrilguncha sut.

* * *

Ma'nini izlab, yetishgan baxlidir.

* * *

Surat insonni adashtirdi nuqul.

* * *

Tuyg'uni aqlingga sarvar¹ aylama.

* * *

Bir tiniq oyina ermish sof ko'ngil,
Ko'rsatur yaxshi-yomon suvratni ul.

* * *

Orzu qil, lekin biroz haddingni bil,
Bir somon cho'p birla tog'ni yiqlmagil.

* * *

Ul quyoshkim, bizga ko'kdin nur tarar,
Gar yaqinlashsa, jahonni yondirar.

¹ Sarvar — yetakchi, yo'lboschi, rahbar.

* * *

**Yaxshilardin ko‘p aziz sunnat¹ qolur,
Fitnakordin zulm ila la’nat qolur.**

* * *

**Kim yomonlar jinsidandir, ul kishi
To qiyomat, bas, yomonlikdir ishi.**

* * *

Nafsni sindirmoq... oson emas.

* * *

**Poklarga ta’na otgay gar kishi,
O’zini sharmanda etgay qilmishi.**

* * *

Yo‘l ravon, ostida lekin domlar.

* * *

**Olam ichra necha bir dunyo — aql,
Benazir, cheksiz, buyuk daryo — aql.**

* * *

**Dilda bo‘lsa ko‘zga kelgay mahsuli,
Ko‘z nuri — ko‘ngil nurining hosili.**

* * *

Uzri nodon aybidin og‘ir kelur.

* * *

**Hind-u turk boqsang gahi parvonadek,
Ikki turk boqsang gahi begonadek.**

¹ Sunnat — yo‘l, ravish, odat.

* * *

Hamko'ngillik hamzabonlikdan¹ go'zal.

* * *

Bildirur insonni insonning yuzi.

* * *

**Fe'l u xo'y ing² chohiga tushgan zamon,
Anglagaysen — yov o'zingsan begumon.**

* * *

Boshqalardanmas, o'zingdan et gina.

* * *

Izlagan topgay degan gap to'g'ridur.

* * *

Sen yomon bo'lma yomonga, yaxshi bo'l.

* * *

So'zni ham tinglash kerakdir avvalo.

* * *

Dil topolmassan magar dil bermasang.

* * *

Anglamoqqa hamma ham qodir emas.

* * *

Kunni zoye etma pashsha o'ldirib.

* * *

Suvratin qo'ygil-da, sen ma'noni ko'r.

¹ **Hamzabon** — tili bir; suhbadosh, sirdosh.

² **Xo'y** — odat, fe'l, tabiat, xarakter.

* * *

Meva ma'no ersa, guldir suvrati.

* * *

Kimki o'z nafsi o'lдirmish tugal,
Unga oftob-u bulut ham bosh egar.

* * *

Muddao so'z so'zlamoqdin — anglatish.

* * *

... borliq tor erur, kengdir xayol.

* * *

Haddin oshsa kibr-u avzoying sening,
Yetti qat yer ostidir joying sening.

* * *

Gar o'tin ko'p bo'lsa, otashga ne g'am,
Qo'rwmagay qassob suruv yuz bo'lsa ham.

* * *

O'z maqomingdan oshirib so'z aytish senga
ziyon keltiradi.

* * *

Sabr-u parhezdek davo bir narsa yo'q...

* * *

Bir kishi ko'rganni goh ko'rmas jahon.

* * *

Mol-u dunyo ham tabassumdirki, ul
Bir tabassum birla bizni mast qilur.

* * *

Har kishikim o‘z nuqsonin bilur,
O‘z kamoli manziliga ot solur.

* * *

Sabr eltar orzuga, etma shitob.

* * *

Toki foydadan xabar berilmas ekan,
bandasi qimirlamas.

* * *

Gar yurarsen egrilarga esh bo‘lib,
Aql-u hushingdan qolarsan ayilib.

* * *

Qismati tirnoqcha, lekin hirsi tog‘.

* * *

Tamali ko‘ngil qachon ravshan bo‘lur?

* * *

Ishla sen, to ishga tan qodir erur.

* * *

Kimda bo‘lsa yaxshi xulq, topgay najot,
Kim ko‘ngil ovorasi — maydonda mot.

* * *

Har kishi ko‘rsaydi o‘z aybin ayon,
O‘zni ul isloh etardi har zamon.

* * *

... qasam — aldoqchilarning odati.

* * *

Behaqiqat ermas olamda xayol.

Jamol Kamol tarjimasi

* * *

Inson bu dunyoga bir ish uchun kelgan: g'oya udir, agar uni qilmasa, hech bir ish qilmagan hisoblanadi.

* * *

Zamonamiz olimlari qilni qirq yoradilar, o'zlariga bog'-liq bo'limgan narsalarni juda yaxshi biladilar, ammo o'ta muhim, o'zlar uchun qolgan barcha narsalardan yanada yaqin bo'lganni, ya'ni o'zlarini bilmaydilar. Hamma narsadan yaqin borliq — bu ularning menligi. Ular biror-bir ish to'g'risida bu — to'g'ri, bu — xato, bu — halol, buni — harom deb hukm chiqarishadi-yu, o'z mohiyatlarining halol yo harom ekanligini bilmaslar.

* * *

Vujudning ham buyuk bir asli, xizmati bordir.

* * *

Odam borki, dengizlarga qonmas, odam bo'ladiki, bir tomchi suv bilan kifoyalanadi.

* * *

Xalq bilan qiziqmagan, aksincha, undan noligan, uning uchun jonni kuydirmagan inson, inson emasdир.

* * *

Insonni tanimoqchi bo'lsang, uni gapga sol: so'zidan uning kimligini bilib olasan.

* * *

Bir haqiqat yuzta shubhadan a'lodir.

* * *

Zolim hech qanday xayrli va foydali ish qilmagan kim-sadir.

* * *

Aql inson vujudida bir amir kabitidir. Modomiki, vujud raiyat lari¹ unga bo'ysunsa, barcha ishlar tekis ketadi. Agar aksincha esa, hammasi izdan chiqadi.

* * *

Ichkaridagi o'g'ri kelib eshikni ochib bermaguncha, tashqaridagi o'g'ri uyga kirolmaydi.

* * *

Daraxtga namlik, avvalo, uning ildizidan kelmasa, sen yuqoridan quygan suv — behuda.

* * *

Ko'rinishdan yuz yoshda bo'lsa ham, ammo narsalarning faqat zohirinigina biladiganlar hali bolalardir.

* * *

Ba'zilarning amali bor-u ilmi yo'q. Ba'zilar esa — aksincha. Agar insonda ham amal, ham ilm bo'lsa, u o'ta muvafqaqiyatli zotdir.

* * *

Ilm hamma narsadan ustundir.

* * *

Ko'z-ko'z uchun amal qilgan kimsa yaramasdir.

* * *

Nafs xohishlarini ado etishdan saqlansangiz, abadiy murodingizga yetasiz.

* * *

Insonda shu qadar ulkan ishq, hirs, orzu va dard bordirki, yuz minglarcha olam o'ziniki bo'lsa ham, ko'ngli tinchimaydi.

Ulug'bek Abduvahob tarjimasি

¹ Raiyat — fuqaro, xalq.

* * *

Gar istar esang, hamisha xurram bo'lsang,
Yetsa qadaming qayga, mukarram bo'lsang,
Pok bo'l-u halol yasha-yu ilm o'rgangil,
To toji bashar, hazrati Odam bo'lsang!

* * *

Qil yaxshilik — yaxshilikni bilgay dunyo,
Poydordir u yaxshilik tufayli tanho.
Mol qoldi-ku hammadan, qolar sendan ham,
Qoldirdi baxil — mol, yaxshilikni — dono.

* * *

Kim kam yesa, u ziyrug-u hushyor bo'ladi,
Kim ko'p yesa, u ablah-u bekor bo'ladi.
Nafsga ruju qo'ysa kishi xor doim,
Har kimsaki, kam yesa, u kam xor bo'ladi!

* * *

Har narsaki, ko'p bo'lsa agar xor bo'ladi.

* * *

Yomonlik etib, yaxshilik istar esa kim,
Bilgilki, o'shal kimsaning iymoni yarim.
Besh qo'ldek ayon-ku, arpa ekkan kishiga
Bermasligi bug'doyni Xudovandi karim!

* * *

Maqsad sari eltar asli himmat kishini!

* * *

Harakat qilgan haqiqatga yetadi.

* * *

Chuqur qazgan har kuni,
Suvga yetar bir kuni.

* * *

Ilm agar dilda bo‘lar — yordir u,
Ilm agar tilda bo‘lar — xordir u.

* * *

Bir og‘iz so‘z dunyoni qilar vayron,
Bir og‘iz so‘z murdaga bag‘ishlar jon.

* * *

Mehr-u shafqat emish inson sifati,
Qahr-u shahvat emish hayvon sifati.

* * *

Dono kishi bilan do‘stlashki, azal —
Nodon do‘stdan dono dushmandir afzal.

* * *

Me’yorida bo‘lsin orzu-yu havas,
Tog‘ni qo‘zg‘atolmas o‘rnidan hech xas.

* * *

Yomon bir o‘ziga qilmas yomonlik,
Butun dunyo undan topmas omonlik.

* * *

Arslonni aylagan tulkimijoz,
Ehtiyojdir, ehtiyojdir, ehtiyoj.

* * *

Ma’nili narsa o‘zi paydo bo‘lar,
Ma’nisiz narsa o‘zi rasvo bo‘lar.

Ergash Ochilov tarjimasi

AZIZIDDIN NASAFIY

(XIII asr)

* * *

Bilim va boylikka ega bo‘lish odamning sa’y-u harakatiga bog‘liq: odam qancha ko‘p g‘ayrat qilsa, bilimi va mol-mulki shuncha ortadi. Yaxshilik yoki yomonlik qilish, kam yejish yoki ko‘p yejish — inson ixtiyoridagi ish va u qancha mehnat va kuch sarflasa, shuncha ko‘p topadi.

* * *

Agar odamning intilish va orzulari ahamiyatli bo‘lganda edi, hech kim qashshoq va benavo bo‘lmasdi, hamma boy va badavlat bo‘lar, sog‘lom, baxtiyor yashardi.

* * *

Yer amalga oshmagan behad ko‘p orzular joyidir, bitta ushalgan orzu, amalga oshgan ish ostida o‘nta amalga oshmaganlari yotadi. Oriflar buni bilib, orzulardan voz kechdilar, talvasani tashlab, osoyishtalik va tamkin¹ — taslimni ixtiyor etdilar.

* * *

Garchi sen to‘g‘ri fikring, xayrli tadbirding, sa’y-u harakating orqali dunyoviy ne’matlarga erishib, mol-dunyo va mansabga ega bo‘lsang ham, ertaga nima bo‘lishini bilmaysan va bilolmaysan: sog‘-u salomat turasanmi, dardga chalinasanmi, ishlaring chappasiga ketadimi, iste’fo kutayaptimi seni — bilishing qiyin. Ertaga qanchadan qancha

¹ Tamkin — viqor, e’tibor.

shohlar sarnigun¹ bo'lib, qanchadan qancha boylar qash-shoqlarga qo'shiladi; qancha qashshoqlar ertaga badavlat bo'ladi va qancha taxtdan ag'darilganlar ertaga podshoh bo'ladi? Bu xuddi to'lqinlanayotgan dengizday gap, to'lqin bir naqsh bo'lib ko'tariladi, ammo u yo'qolmasdan yangi naqsh paydo bo'lib, oldingisini mahv etadi.

* * *

Insonning vazifasi — uzluksiz ma'rifatga intilish, (ko'nglini) nur bilan to'ldirish va ilm topib, musaffolik sari intilishdir.

* * *

Jism ham, ruh ham ikkalasi birga rivojlanadi va komillikka erishguncha kamolot zinapoyalaridan ko'tarilib bora-veradilar va darajalarni egallaydilar.

* * *

O'zini anglamagan har bir kishi esa, hech narsani anglamay dunyodan o'tadi.

* * *

Shunday bo'lgilki, sendan beixtiyor hamisha yaxshilik va saxovat yog'ilib tursin.

Najmiddin Komilov tarjimasi

¹ Sarnigun — boshi quyi; to'ntarilgan, ostin-ustun.

AMIR XUSRAV DEHLAVIY

(1253 — 1325)

* * *

**Do'stlaring ko'payar farovonlikda,
Ularni sinab ko'r notavonlikda.**

* * *

**Kimki yomon ishni ko'rarkan ravo,
O'zin qilmishidan topadi jazo.**

* * *

**Rostlikda tanilgach, zarurat bilan —
Yolg'on gapirsang ham rostga yo'yishar.
Yolg'on bilan mashhur bo'lsang-chi, unda —
Rostingni ham yolg'on gap deb qo'yishar.**

* * *

**Yosh har qancha bo'lsin ishda g'ayratli,
Ko'p ko'rgan keksaning ishi ibratli.**

* * *

**Kimning yaxshi nomi qolsa agar yod,
Arzir bu dunyodan ketaversa shod.**

* * *

**Saxiy mardlar yozsa dasturxon,
Hatto itga tegar ustixon.**

* * *

**Ertaga qolmasa bugungi ishi,
Bu dunyoda g'olib yashar shul kishi.**

* * *

**Kim so‘zida tez-tez “gapim rost” desa,
Xuddi shu “gapim rost” degani yolg‘on.**

* * *

**Ip uzilsa, uni ulab bo‘ladi,
Ammo o‘rtasida qoladi tugun.**

* * *

**Kimning agar bo‘lsa baland himmati,
Eski kiyim birla-da zo‘r izzati.**

* * *

**To‘g‘ri yo‘lda qaltirasa dorboz oyog‘i,
Ne bo‘ladi holi, dorga chiqqani chog‘i.**

* * *

**Agar pinhon xazina aql,
Uning kaliti og‘izdagi til.**

* * *

**Bemahal so‘zdan yiroq,
Jim o‘tirgan yaxshiroq.**

* * *

**Kim ari nishiga qilolmas toqat,
Asalni ko‘radi uzoqdan faqat.**

* * *

**O‘tib ketgan yilingdan top-chi bir kun,
Bugun qaytib kelurmi kechagi kun.**

* * *

Kim san'atni o'lchar boylik, mol bilan,
U gavharni ko'rар teng safol bilan.

* * *

Kishi dardiga kim hamdard emasdir,
Kishilar nazdida u mard emasdir.

* * *

Qilichdan igna ko'p yaxshidur albat,
U yirtar, bu tikar — qilmas jarohat.

* * *

Ishga yarab qolsa ilming bir muddat,
Yana oshirmoqqa aylagil shiddat.

* * *

Ozgina yaxshiga qilgil qanoat,
Cheksiz hashamatni istama g'oyat.

* * *

Qisqa so'zlik qara, ne yaxshi, holdir,
Sergaplik esa, dilga maloldir.

* * *

Boylik qidirib kon qazisang magar,
Avval tosh-qum chiqar va so'ngidan zar.

* * *

Jahd ila ilmgan kim urdi boshin,
Shamoldan yurgizdi tegirmon toshin.

* * *

Ulug'lik sharafin istagan odam,
Kichiklarga aylar himmat-u karam.

* * *

Xaloyiq og‘zini yopmoqdan chunon,
Dengiz uzra ko‘prik yasamoq oson.

* * *

Qancha ishbilarmon bo‘lsang ham biroq,
Topilar sendan ham ishbilarmonroq.

* * *

Badnom yashagandan ming marta afzal,
Murodga yetmayin mahv etsa ajal.

* * *

Kimning yaxshi nomi qolsa yodgor,
Arzir bu dunyodan ketsa baxtiyor.

* * *

Kimda tamiz kamdir va odamlik kam,
O‘lik misolidir tiriklikda ham.

* * *

Hayotda qoldirsa kim abadiy nom,
Eng baxtli odam shu, xullasi kalom.

* * *

Kimdanki yomonlik ko‘rdi odamzod,
Yaxshi nomi axir bo‘ladi barbod.

* * *

Kim bo‘lmas o‘zidan ogoh gohi goh,
O‘zgalardan qachon bo‘libdi ogoh.

* * *

Ilm qoidasi bor, o‘ziga xos:
Jaholat, g‘ururdan etadi xalos.

* * *

Do‘stlikning asosi bo‘larkan mahkam,
Zamon balosidan xalal yetar kam.

* * *

Kimki o'z o'limin dildan etsa yod,
O'zga o'limidan nechuk bo'lg'ay shod.

* * *

Birga bo'lsa shodlikda, g'amda,
Faqat shuni do'st tut olamda.

Shoislom Shomuhamedov tarjimasi

* * *

Mol-dunyo g'amidan dilimiz qon bo'lmas,
Hirs-u tama deb xayol parishon bo'lmas.
Sovuq suv-u arpa non-u xilvat go'sha¹,
Bundan-da go'zal jahonda davron bo'lmas!

* * *

Kunlar quvishib bir-birini o'tgusidir,
Dildan supurib g'am kirini o'tgusidir.
Dardingga davo bo'lolmay umring behuda —
Solguncha sekin ko'z qirini o'tgusidir.

* * *

Bordim men azizlar mozoriga bir kun,
Kun-kecha edilar safimizda mammun,
Har qancha fig'on chekmayin endi dilxun²,
Hech bittasidan eshitmadim men bir un.

* * *

Ehson yo'lini har kishi tutsa yaxshi,
Har nima bag'ishlasa, unutsa yaxshi.
Kim bergenini qayta olishni istar,
O'z qusganini it kabi yutsa yaxshi.

Ergash Ochilov tarjimasi

¹ Go'sha — burchak, hilvat, chet, chekka.

² Dilxun — dili qon, g'amgin, mahzun.

PAHLAVON MAHMUD

(XIII asr o'rtalari — 1322)

* * *

Yaxshi kishining yaxshilik o'ng-so'lidadir.

* * *

Ma'no siri davlati o'zingda, ey dil,
Orzular ijobati o'zingda, ey dil,
Sen izla erinmay vujuding zulmatidan,
Obi hayot¹ hikmati o'zingda, ey dil.

* * *

Gar yoydag'i o'qdek yuz yil to'g'ri yashab,
Bir bor xato qilsang, butun umring xato.

* * *

Ko'klam beradi o'rniga yuz dona agar
Bir donani kuz yeli to'kib ketgusidir.

* * *

Tuproq degani to'zib yotar dunyoda, bas,
Hech kimsa uning taqdirini etmas havas.
Har qancha azizlar qoshiga qo'nsa-da, hech —
Gard narxi oshib, qadri aziz bo'lgan emas.

¹ Obi hayot — mangulik suvi. Tasavvufda sa'y-harakat bilan urishib bo'lmaydigan, Olloh tomonidan o'zi xohlagan bandalarga beriladigan laduniy (ilohiy) ilk ma'nosida keladi.

* * *

Bilgan kishi sog'liq sirini tutdi nihon,
Yo so'zlasa-da, qilmadi rostini bayon.
Bilmas kishining barcha degan so'zi xato,
Bilgan kishi qilmadi nima bilsa ayon.

* * *

Kimni qarama, katta gapirgay so'zni,
Tortishni tilar guldek o'ziga ko'zni.

* * *

Eski ekani libosni hech aybi emas,
Libosning o'zida ayb agar bo'lsa — yomon.

* * *

Aytib edi menga bir kuni sohibi dard:
Kim qilmasa mard¹ xizmatini — bo'lmadi mard!
Hech xizmatini qilma o'shal kimsanikim,
Gar qilgan emas yoshligida xizmati mard.

* * *

Badfe'l kishi hamisha dilxasta bo'lar,
Unga talab eshigi mudom basta² bo'lar.
Gar yaxshi-yomon bilan chiqishsa har kim,
G'amdan qutulib, quvonchga payvasta³ bo'lar.

* * *

Tuymoq necha qof⁴ tog'ini hovon birlan,
Ko'kni bo'yamoq yurakdagi qon birlan,
Zindonda yotish bir asr afg'on⁵ birlan
Soz hamdam o'lishdan dame nodon birlan!

¹ Mard — tasavvufda Haqqa yaqin kishilar, ilohiy sirlardan xabardor oriflar, valiyalar ma'nosida keladi.

² Basta — yopiq, bog'liq.

³ Payvasta — bog'langan, ulangan, tutashgan.

⁴ Qof (Ko'hi Qof) — ajdodlar tasavvuriga ko'ra, butun dunyoni o'rab olgan tog'.

⁵ Afg'on — nolalar, fig'onlar, faryodlar.

* * *

Me'mori azal¹ qasr ila ayvon aylar,
Bo'lgay-da yasab, so'ng uni vayron aylar.
Har toqiki, yetgan edi bul kun ko'kka,
Ertan yana tuproq ila yakson aylar...

* * *

Fil bo'l-u chumolidek yasha xor-u haqir,
Har ikki jahon mulki bilan misli faqir.
Ko'rsang-da hayotda aybini har kishining,
Lozim bo'ladi o'zni tutish ko'r-u basir.

* * *

Aytmay sira olma kishining uyiga yo'l,
Qadringni tushirma uzatib noniga qo'l,
Minnatli kabobidan birovning doim
Qoq non ila suvingni baland qo'yguchi bo'l!

* * *

Yomonning sira hatlama ostonasidan,
Yeb tushma tuzog'iga tag'in donasidan.
O'q rostligidan bilib kamonni egri,
Ko'r qochishini shitob uning xonasidan!

* * *

Oqil sira his-tuyg'uga bo'lmaydi asir,
Zar qadri pasaymaydi hasad birla, axir.
Nomard — it esa, mardning qiyosi — daryo,
Bulg'anmadi it tegsa-da, daryo baribir!

* * *

Ey dil, sira atlas to'nini qilma havas,
Tark aylama eski-tuski kiymakni-da, bas,
Gar istasang yengil kechishin ushbu hayot
Hech bo'lma qaram o'zgani qoshida, abas²!

¹ Me'mori azal — azal me'mori, ya' ni Xudo.

² Abas — behuda, besfoyda.

* * *

Shohlik tilasang, gadosi bo'l xalqingning!
O'zni unut-u, fidosi bo'l xalqingning!
Boshiga ko'tarsin, desang, el toj yanglig',
Qo'lin o'p-u, xokipoyi¹ bo'l xalqingning!

* * *

Oh cheksang agarda, yo'lga tikkil ko'zni,
Choh yonidan o'tsang, ehtiyot qil o'zni.
Do'stlar uyida qachonki mahram bo'lsang,
Odobini buzma dil-u qo'l-u ko'zni.

* * *

Shabnam kabi o'tkazma kulib umringni.

* * *

Moddiy hamma rishtalarни kestirganman,
Bag'rimda qanoat gulin o'stirganman.
Men sabr-u qanoat tog'idan tosh qo'parib,
Nafs-u tamaning og'ziga bostirganman.

* * *

O'zingdagi bu kibr-u adovatni yo'qot,
Nafsing butiga sig'inma, sindir uni, ot.
Dunyo xayoli-yu bu xayol zanjiridan
Uzganda kishi ko'nglini topqusi najot.

* * *

Yuz masjid-u yuz rabotni² obod qilsang,
Yuz qulni xarid qilsang-u ozod qilsang.
Yuz yillik ibodatingdan afzal yuz bor.
Bir dil g'amini aritsang-u shod qilsang!

¹ Xokipo(y) — oyoq osti tuprog'i.

² Rabot — karvonsaroy, musofirxona; majozan: dunyo.

* * *

Har bir kuni umringning yorug' yulduzdir,
Har bir kecha qadr-u har sahar Navro'zdir.
Har lahzasin e'zozla aziz umringning,
Har qancha qadrlasang ularni ozdir.

* * *

Har bir damidan hayotning olgil lazzat,
Ro'yobi uchun orzularing chek zahmat.
Avval mol-u dunyoga ko'marsan o'zni,
Keyin uni tark etishga kelgay navbat.

* * *

Ey dil, bekor o'tirma, bir ish boshini tut,
Umrin ni sovurma yelga ko'p, qadriga yet.
Tuproq ne ulug'larni quchoqqa olmish,
Ko'zingni och-u hoy-u havas tarkini et.

* * *

Bu boqqa bahor kelgusi-yu ketgusidir,
Bu shoxga anor kelgusi-yu ketgusidir.
Bir ish boshini tutki, jahonga inson,
Nahotki, bekor kelgusi-yu ketgusidir.

* * *

Bu umr o'tar gohida shod, gohi karaxt,
Bir qismida g'am ko'pdir-u bir qismida baxt,
Bog'laydi jahondan bir kuni ko'chgali raxt¹,
Teng nazdida oqil kishining tobut-u taxt.

* * *

Non-u suv bilan ham, qara mard himmatini,
Qondirsa bo'lar nafsining hojatini.
Bas, nega o'zingdan quyiga amr etmoq,
Qilmoq yoki o'zing kabilar xizmatini.

Ergash Ochilov tarjimasi

¹ Raxt — bu yerda: safar anioni.

SHOH NE'MATULLO VALIY

(1329 — 1431)

* * *

Qush sahroda-yu baliq esa daryoda,
 Kun kechiradi har biri bir ma'voda¹.
 O't ichra samandar² xush-u xurram yashasa,
 Qushlar terib yeidi rizqini havoda.

* * *

Jon xasta ekan, qilsa davo soz bo'ladi,
 Kor qilsa³ davo, ishing bajo, soz bo'ladi.
 Biz gar tikan eksak, hosili gul bo'lmas,
 Bas, yaxshilik etsa doimo soz bo'ladi.

* * *

Din ilmin egallasang, shariat⁴ bo'ladi,
 Unga amal aylasang, tariqat⁵ bo'ladi,
 Gar ilm-u amalni haq rizosi yo'lida
 Ixlos ila jam etsang, haqiqat bo'ladi.

* * *

Olim agar ezgulik etar — oqil o'sha,
 Ilmiga agar etmas amal — g'ofil o'sha.
 Olimdan agar amal talab etsa-yu ilm,
 Olim agar etmasa amal — johil o'sha.

¹ Ma'vo — boshipana, makon; maqom, manzil.

² Samandar — afsonaga ko'ra, olov ichida tug'ilib, olov ichida yashovchi, rangi ham olovrang jonivor.

³ Kor qilmoq — ta'sir qilmoq.

⁴ Shariat — islom dini qonun-qoidalari.

⁵ Tariqat — 1) umuman so'fiylik yo'li; 2) so'fiylikning muayyan yo'nalishi; 3) so'fiylikning bosqichlaridan biri.

* * *

Har bitta daraxtning to gul-u yaprog'i bor,
Ko'rmoq kerak unda bir jahon mevani, yor.
Hosil chog'ida daraxt-u mevaga qara:
Har bir meva bir daraxt bo'lg'usi qator.

* * *

Hirs-u hasad-u adovat-u kin-u riyο,
Insonga azaldan to abad bo'ldi balo.
Mard etagining gardiga ham yetmassan,
Dil barcha qusurlardan pok bo'lmasa to.

* * *

To kelsa qo'lingdan yaxshilik qil begumon,
Ko'rmas kishi yaxshilikdan aslo ziyon.
Hech kim senga yaxshilik agar qilmasa-da,
Doim qilaver yaxshilik oshkor-u nihon.

* * *

Behuda tirikliging tiriklik bo'limas,
Hech kimga tirikliging keraklik bo'limas.

Ergash Ochilov tarjimasi

LUTFIY

(1366 – 1465)

* * *

Haris¹ bo'lsa kishi, xor ham haqir² bo'lur.

* * *

Qayda bir donodurur, ul javri nodon tortadur.

* * *

Kishikim, yo'qturur mehr-u vafosi,
Agar xurshidt³, andin ne hosil?

* * *

Har kishining aslini bilsa bo'lur axloqdin.

* * *

Odam o'g'li o'lmasa, oxir topar ermiss⁴ murod.

* * *

Ma'mur bo'lur adl ila har qayda viloyat⁵.

* * *

Kimki qilsa xuni⁶ nohaq, ko'p vuboli⁷ bordurur.

* * *

Muflis⁷ kishi topsa guhar yoshurmog'i nochor erur.

¹ Haris — ochko'z, tamagir.

² Haqir — past, tuban, arzimas.

³ Hurshid — quyosh, ostob.

⁴ Viloyat — o'lka, mamlakat.

⁵ Hun — qon.

⁶ Vubol — gunoh.

⁷ Muflis — kambag'al, qashshoq.

* * *

Yaxshi emaskim, yaxshi kishilar bo'lsa yamonliq bila mashhur.

* * *

Kishiki ko'rklu erur, har ne qilsa yaxshi kelur.

* * *

Bir kun yarog'ay deb kishi oltun, kumush paydo qilur.

* * *

Umri aziz kimga jahonda vafo qilur?

* * *

Bir gul qanikim, olida yuz xor¹ topilmas?

* * *

Mehr-u vafo darig²ki², ey umr, sanda yo'q.

* * *

Bir go'sha yo'qli dunyoda, yuz ming shikori³ yo'q.

* * *

Kim tijoratda ziyon qilsa, nadamdin⁴ chora yo'q.

* * *

Bir bahona besh⁵ emastur odam o'g'lig'a ajal.

* * *

Qaysi bir gulzor erurkim, yo'qtur aning bulbuli.

¹ Xor — tikani.

² Darig['] — afsus, nadomat.

³ Shikor — ov.

⁴ Nadam — afsus, nadomat.

⁵ Besh — ko'p, ortiq, ziyoda.

ABDURAHMON JOMIY

(1414 – 1492)

* * *

Fazl-u hunari emas, balki otasi bilan
Maqtansa agar o'g'il, odamlikdan u uzoq.
Harchand mevali daraxt tanasida o'ssin shox,
Agar bermasa meva, u o'tindir bir quchoq.

* * *

Yuziga tuproq to'lgur dunyo ne'mati uchun,
Har nokasning bo'yningga ortma minnat yukini.
Bir-ikki kunda qo'lidan ketar bu ne'mat, lekin
To qiyomat tortasan or-u hasrat yukini.

* * *

Tish bilan temirga naqshlar solish,
Tirnoq bilan tog'dan yo'l ocha olish;
Yonib turgan o'tga o'zini otish,
Ko'zning milki bilan cho'g' terib o'tish,
Yuz tuya yukini yelkaga olish,
Sharqdan g'arbga qadar yugurib-yelish,
Barchasi Jomiyga ko'rinar har on
Pastlar minnatini tortishdan oson.

* * *

Kimki nokas bo'lib tug'ilgan, mangu
Odam bo'lmay, shunday ketadi o'lib.
Harchand o'zgartirma itpashshani, u
Tabiatan qolar itpashsha bo'lib.

* * *

Qanoat davlatin topdim qutqarib
Tama zanjiridan himmat bo'ynini.

* * *

Noqobilga qilmas tarbiya hech kor,
Oshirsang-da adab darsini ming bor.
Devorning ustiga tizib qo'ysang ham,
Yomg'irdan ko'karmas xor-u xas zinhor.

* * *

O'zingdan past bilan bo'lma hamsuhbat,
O'zingdan kuchlini izla muntazam.
Yetkazma unga ham ammo malomat,
O'zidan pastroqni istamas u ham.

* * *

Beruvchi qo'l oluvchi qo'ldan
Afzalligin bilasanmi hech?
U boylikni haydasa o'zdan,
Bu o'ziga tortar erta-kech.

* * *

Bu dunyo — jang maydoni, ajab,
Tug'ma aql — mardning davlati.
Aql bo'lmasa, o'rgansin adab,
Bunda lozim ustod xizmati.
U ham yo'qmi, mol yig'sin chidab,
Ayb bekitish molning xislati.
Agar u ham bo'lmasa, yo Rab¹,
O'lgani soz bunday la'nati.

¹ Yo Rab — Ey Xudo.

* * *

Tama to'la dil bilan ta'na qilma sira ham
Falonchining fe'lida yo'q, deb zig'ircha karam.
Insof tarozisida tortishsa ikkisini,
Tubanlikda tama hech xasislikdan emas kam.

* * *

Vatanda do'stga zor bo'lgandan ko'ra,
Safarda yotga qul bo'lganing yaxshi.
Dushman qo'lida xor bo'lgandan ko'ra,
Ajalingdan burun o'lganing yaxshi.

* * *

Nimani xohlasang gapir-u faqat
Aqling elagida avval elab ol.
Tinglovchiga yoqsa, so'zga och-u lab,
Yoqmasa tilni tiy, bo'lma so'zamol.

* * *

Yaxshilikdan boshqa ish qilma,
Sendan qolar yaxshilik tanho.

* * *

Dushman harchand xor-u mag'lub bo'lsa ham,
Hushyorlik jilovin mahkam tut, mahkam.
Boshiga oyoq qo'y, dumiga emas,
Oyog'ing ostida ilon ko'rghan dam.

* * *

Kecha xoja uyin peshtoqiga shan
Yozgandilar: "Umring uzoq bo'lsin!" — deb.
Bugun qabristondan o'tsang ko'rasan,
Yozibdilar: "Go'ring nurga to'lsin!" — deb.

* * *

Do'stidan dushmanlik ko'rsa ham harchand,
Do'stligi ortgan do'st do'stdir chinakam.
Jabr-u sitamini qilmasdan pisand,
Sadoqat rishtasin bog'lar mustahkam.

* * *

Garchi zilol suvdek totli so'zing bor,
Malollik keltirar topsa u takror.

* * *

Hech kim yashamaydi ikkinchi bora,
Ilm yo'lini tut — yo'q o'zga chora.

* * *

Har bir ishda bor ilmga ehtiyoj,
Ilm tufayli ishlaring topgay rivoj.

* * *

Agar ixlos bilan amal bo'lmas yor,
Donolar nazdida topmas e'tibor.

* * *

Mardning qadri emas mol-davlat,
Mardning qadri ezgu xulq-xislat.

* * *

Katta-yu kichikka ma'lum bu ma'no:
Nodon o'lik bo'lsa, tirikdir dono.

* * *

Donolar hikmati mashhur har bobda,
Dono o'zi go'rda, ilmi kitobda.

* * *

Cho'z do'stlarga muruvvat qo'lin,
Tut ehson-u futuvvat¹ yo'lin.

* * *

G'am har qancha bo'lsin farovon,
G'am yo'q, yoring bo'lsa mehribon.

* * *

Har odamdan oshnolik istama,
Har oshnodan ro'shnolik izlama.

* * *

Kimni ikki bo'lsa gul kabi yuzi,
Unda nima qilsin vafoning izi?!

* * *

Va'da berma, agar bersang, vafo qil,
Bevafolik aylamoqdan ibo qil.

* * *

Rostni izla, rostni tanla, rostni ko'r,
Rostni gapir, rostni eshit-u rost yur.

* * *

Rost yoursang, el ichra sarvar bo'lasan,
Qimmatda tengi yo'q gavhar bo'lasan.

* * *

Egrilik har yerda yetkazar xalal,
"Najot — to'g'rilikda" — bor ezgu masal.

¹ **Futuvvat** — Xasrdan boshlab Mavarounnahr va Xurosonda xalqning og'irini yengil qilish, zolim hukmdorlarga qarshi kurashish, uyushgan holda yurtni tashqi dushmanlardan himoya etish maqsadida paydo bo'lib, o'zida xalq ichidan turli kasb-hunar egalarini birlashtirgan harakat. Bu toifa javonmardlar, fatiylar, ahiylar, ayyorlar deb ham yuritilgan.

* * *

Bilmay turib mard himmatini,
Anglamaysan qadr-qimmatini.

* * *

Qanoatli yashar osuda,
Ochko'z azob chekar behuda.

* * *

Nafs g'amidan ozod bo'l mudom,
Qushni tama qilar bandi dom.

* * *

Ulug'lardan qolgan bu rost gap:
Gadodir u, kim qilsa talab.

* * *

Izzati nafs uchun xor bo'lma,
Hirs-u tama deb abgor bo'lma.

* * *

Nokaslardan kutma muruvvat, vafo,
Devdan odamiylik izlama aslo.

* * *

Mevadan olgandek meva rang, naqshin,
Yaxshilik o'rganar yaxshidan yaxshi.

* * *

Avval o'zing o'rganib adab,
So'ng o'zgadan aylagil talab.

* * *

Dona sochsang, bir kun xirmon bo'ladi,
Tikan eksang, etagingni yuladi.

* * *

So'z bo'lsa go'zal-u ta'sirchan, xushta'b,
Har qanday kishini qo'yar sehrlab.

* * *

Barcha fazl-u hunarlar toji — ilm,
Barcha eshiklarning ochqichi — ilm.

* * *

Ilm egallahga bog'la belingni,
Boshqa barcha ishdan tortgin qo'lingni.

* * *

Avvalo, ilmdan bo'lgin bahramand,
Jaholat tuzog'iga ko'p bo'lma band.
Kasbi kamol uchun jahd etish kerak,
Ezgu maqsad uchun ahd etish kerak.

* * *

Ilm cheksizdir-u qisqadir umr,
Shug'ullan qaysi ish bo'lsa eng zarur.

* * *

Ilm tufayli soz dunyoning ishi,
Ilmsiz qiyindir ishning yurishi.
Agar ilm bilan limmo-lim ko'ngil,
Qo'l-oyoq uchun ham bo'ladi yengil.

* * *

Ustoz eshigidan uzma hech qadam,
Dunyo tashvishidan ozod u har dam.
Har so'zidan charxlanar idrok,
Suhbatidan xulqing bo'lar pok.

* * *

Nodonligim angladim qachon,
Dono bo'lib qoldim o'sha on.

* * *

O'zni mudom ilm olishga yo'lla,
Ilm olgach, uni hayotda qo'lla.

* * *

Ilm amal bilan agar bo'lmas yor,
Dononing nodondan qanday farqi bor?

* * *

Agarda baxtimga ochay desang yo'l,
Kecha-kunduzingni uch qismga bo'l:
Birida ilm o'rgan — g'aflatda yotma,
Chunki bilimsizlik aybdir, unutma.
Ikkinchisini et amal uchun sarf,
Uchinchida o'rgat bilimsizga harf.

* * *

Dononing tilidan chiqqan so'z gavhar,
Bu gavharga ko'ksing sadaf etsang soz.
Dono hikmat duri to'la xazina,
Bu xazinani et hamisha e'zoz.

* * *

Fazl-u adab bilan bezatmay o'zni,
Izzat-e'tiborga tikma hech ko'zni.
Botin adab bilan bezalgan joyda,
Zohirga berishdan zeb nima foyda?!

* * *

Fazl-u hunar bilan maqtanishdan kech,
Oyog'ing uchidan ko'zing olma hech.

* * *

Eshit pand-u ilming unga ayla yor,
Bilib oldingmi, bo'l ishga talabgor.

* * *

Bo'lmasa donoda pul, zinhor gadoga mengzama,
Dil to'la ilmi bilan u yer yuzin sultonidir.

* * *

Mansabga o'tirsang, bezat o'zingni
Har xil fazl-u hunar bilan shubhasiz.
Inson aziz emas mansab tufayli,
Balki mansab inson tufayli aziz.

* * *

Nodondek ko'p bo'lma otaga payvand,
Vaqt keldi — bo'l fazl-u hunarga farzand.

* * *

Agar nodon bo'lsa dono bilan yor,
Ilmi ortar, umri bo'lar ma'nolik.
Agar qilsa dono suhbatidan or,
Hayotda ko'rmas u biror ro'shnolik.

* * *

Johil qo'lidagi qilichdan afzal,
Oqil uchun aql-idrok har mahal.

* * *

Ma'no tutadi da'veni dushman — qochadi,
Kim ko'rsa qaroqchini, u, zotan qochadi.
Da'vo kirsa qayerda uy eshididan,
Ma'no oshiqib, biror teshikdan qochadi.

Ergash Ochilov tarjimalari

ALISHER NAVOIY

(1441 – 1501)

* * *

Bir deganni ikki demak xush emas,
So'z chu¹ takror topdi, dilkash emas.

* * *

Bu gulshan ichra yo'qdur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur qolsa yaxshilik bila ot.

* * *

Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q.

* * *

Yomonni agar yaxshi qilsang gumon,
Erur yaxshini ham degandek yomon.

* * *

Ilmni kim vositai joh² etar,
O'zini-yu xalqni gumroh etar.

* * *

Yo'l yomon-u yaxhisidin yema g'am,
Bismilloh, degil-u, qo'yg'il qadam.

¹ Chu (Chun) — 1) -ki, chunki, shu sababdan; 2) agar, vaqtiki, modomiki; 3) o'xhash, monand.

² Joh — 1) amal, martaba; 2) davlat, boylik; 3) buyuklik, shavkat.

* * *

Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig',
Yor o'lung bir-biringizgakim, erur yorlig' ish.

* * *

Odami bo'lsa vafo andin yiroq,
It vafo bobida andin yaxshiroq.

* * *

Chunki tama bo'ldi gadolar ishi,
Bilki, gadodur tama etgan kishi.

* * *

Yaxshilig' gar qilmasa, bori yomonlig' qilmasa,
Kim yomonlig' qilmasa, qilgancha bordur yaxshilig'.

* * *

Befoyda ish natija bermas.

* * *

Istasang dushmaning o'lg'ay sanga do'st,
Kirmagil do'st bila dushman aro.

* * *

Ka'baki, olamning o'lub qiblasi,
Qadri yo'q, andoqli, ko'ngul ka'basi.

* * *

Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,
Oncha borki, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay.

* * *

Lof aro ermen degan ermu bo'lur?
Kelmas ishni ilkidin dermu bo'lur?

* * *

Pil' o'lsa sening xasming², desangki, zarar topmay,
Bir pashshag'a olamda yetkurma zarar hargiz.

* * *

O'tkandin shikva³ qilsa bo'lmas,
Har negaki, o'tti, yetsa bo'lmas.

* * *

Havas tortib sinon⁴ chun kelturub zo'r,
Burun aylar xiradning⁵ ko'zlarin ko'r.

* * *

Agar qilmadi el himoyat sanga,
O'zingdin kerakdir shikoyat sanga.

* * *

Aytur so'zni ayt, aytmas so'zdin qayt.

* * *

Besha⁶ sherin gar zabun qilsang shijoatdin emas,
Nafs itin qilsang zabun, olamda yo'q sendek shujo⁷.

* * *

Bir diram olmoq chekibon dastranj⁸,
Yaxshiroq andinki, birov bersa ganj.

¹ Pil — fil.

² Xasm — yov, dushman.

³ Shikva — shikoyat.

⁴ Sinon — tig', hanjar, nayza.

⁵ Xirad — aql, idrok.

⁶ Besha — to'qay, changalzor, o'rmon.

⁷ Shujo — dovuyrak, pahlavon.

⁸ Dastranj — kasb-kor, ish.

* * *

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano¹ boshig‘a.
Ikki jahoningg‘a tilarsen fizo²,
Hosil et ushbu ikkisidin rizo.
Tun-kuningga aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.
So‘zlaridin chekma qalam tashqari,
Xatlaridin chekma qadam tashqari.

* * *

Birovkim, qilsa olimlarga ta’zim,
Qilur go‘yoki payg‘ambarg‘a ta’zim.

* * *

Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim va orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.

* * *

Befoyda so‘zni ko‘p aytma va foydalig‘ so‘zni eshiturdin qaytma.

* * *

Bori dushvorliqlarni³ o‘zungga aylasang osan,
Boshi dushvorliqlar dog‘i bo‘lg‘ay shoyad osonliq.

* * *

Dedi, har ishki qilmish odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod.

* * *

Dono dushmandin naf imkoni bor va nodon do‘s-din zarar imkoni.

¹ Ano — ona.

² Fizo — bag‘ishlash.

³ Dushvorliq — qiyinchilik, mashaqqat.

* * *

Ilm ortuqkim, ikki jahon shohlig'i.

* * *

Yigitlikda yig' ilmnning maxzani¹,
Qariliq chog'i xarj qilg'il ani.

* * *

Kamol et kasbkim, olam uyidin
Senga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o'tmak biaynih² ,
Erur hammomin nopol chiqmoq.

* * *

Ko'ngulda til sinoni jarohati butmas,
Anga hech nima marham yerin tutmas.

* * *

Kimki ulug'roq, anga xizmat kerak,
Ulki kichikroq, anga shafqat kerak.

* * *

Ko'p degan ko'p yangilur³ va ko'p yegan ko'p yiqilur.

* * *

Ko'p demak birla bo'limg'il nodon,
Ko'p yemak birla bo'limg'il hayvon.

* * *

Ko'zni o'z aybingdin olma va o'zgalar aybig'a ko'z sol-ma.

¹ Maxzan — xazina.

² Biaynih — xuddi, aynan.

³ Yangilmox — yanglishmoq, adashmoq.

HUSAYN VOIZ KOSHIFIY

(1442/46 – 1505)

* * *

Bilgilkim, hech bir ish ustozsiz amalga oshmagay va kimki ustozsiz bir ishni qilur ersa, ul ishning asosi mustahkam bo‘imagay.

* * *

Agar komil ustozi kim deb so‘rasalar, u pok mazhabli, o‘z aybini ko‘radigan, dono va tamizli kishidur, deb aytgil. Unda hasad, gina va baxillikdan asar bo‘lmaydi.

* * *

Agar shogirdlikning binosi nimaning ustiga quriladi deb so‘rasalar, irodat¹ ustiga deb javob bergin.

* * *

Zohiriy adab botin² adabining belgisidir.

* * *

Har bir vaqtning, har bir holatning, har bir maqomning o‘z odobi bordir.

* * *

Agar birov poklik yuzasidan boshqa birovga va yo yaxshi suratga qarasa, bunda hech ziyon yo‘qdir.

¹ Irodat — sidq, ixlos, e’tiqod.

² Botin — ich, ichki dunyo, ko‘ngil, xayol, ichki olam, yashirin.

* * *

Mol-dunyoga o'ch ochko'z odam do'stlikka arzimaydi.

* * *

Olamda yaxshi do'stdan ko'ra saodat yo'qdir.

* * *

Ko'p gapirish aqli noqislik belgisidir.

* * *

Hayvon yeish uchun yashaydi, inson esa yashash uchun yeydi.

* * *

Umr o'tkazishga zarur vosita (maosh) hosil bo'lma-guncha kishi xotiri osoyishta bo'lmaydi.

* * *

Kimki jamiyatdan foyda ko'rsa-yu, lekin foyda yetkaz-masa, u ishlagagan bo'ladi.

* * *

Uyqu o'limning ko'rinishi.

* * *

Ma'rakaning asosi fayz olish va fayz yetkazish.

Najmuddin Komilov tarjimasi

* * *

G'iybat qiluvchilar o'limtik yeguvchi qurtlar kabi-durlar. Zero, insonda odamiylik siyoqi bo'lsa, o'limtik go'shtni iste'mol qilmas.

* * *

Mehribon va rahmdil bo'lmoq umrning va rizqning barakali bo'lishiga sabab bo'ladi.

* * *

Vafodorlik va oliyjanoblik komil insonlar xislatidur.

* * *

Ohistalik barcha ishlarning kamolga yetishiga omildur.

* * *

Shoshma-shosharlik va tezlik ko‘p ishlarda ziyon kel-tiradi.

* * *

Agar kishi biror ishni ohistalik va og‘irlik bilan bosh-lasa, ul ish ko‘ngil istaganidek anjom¹ topar. Agar kishi ishni yengiltaklik va tezlik bilan boshlasa, ko‘zlagan maqsadi hosil bo‘lmay, xijolatga qolur.

* * *

Har bir ishni maslahat bilan qilishning foydasi ko‘pdur. Birinchidan, kengashli to‘y tarqamas. Ikkinchidan, kishi agar maslahat qilgan ishini amalga oshirolmagan taqdirda ham boshqalar unga ta’na toshini ota olmaydilar va uni ma’zur tutadilar. Uchinchidan, bir kishining o‘zi tanho bo‘lajak ishni atroflicha mushohada qilolmaydi. Agar ko‘p-chilik bosh qotirsa, har kimdan biror fikr chiqadi va ba-maslahat bu fikrlardan eng oqili tanlab olinish imkoniyati tug‘iladi.

* * *

Hech kim ishning bamaslahat qilinganidan ziyon ko‘rgan emas.

* * *

Ustoz va muallimlar hurmatini o‘rniga qo‘yganlar bu dunyoda ham, oxiratda ham baraka-yu saodat topar.

¹ Anjom — oxir, nihoya.

* * *

Ulug'lar aytibdurlarki, barcha insonlar aqlga muhtoj-durlar. Aql esa tajribaga suyanadi. Chunki tajriba aqlning oynasidur. Hayot tajribasi ko'p umr ko'rish natijasida hosil bo'lur.

* * *

Yaxshilar bilan hamsuhbat bo'lish baxt-u davlat keltiradi. Yomonlar bilan birga bo'lish afsus va nadomatga yo'liqtiradi.

* * *

Ulug'lar aytibdurlarki, agar biror kishi sening oldingga kelib: "Falon odam sening haqqingga undog' dedi, mundog' dedi", deb aytsa, sen uchun olti narsa vojibdur¹. Birinchidan, uni rostgo'ylar qatoriga qo'shmagaysan. Ikkinchidan, uni chaqimchilikdan qaytargaysan. Uchinchidan, uni dushman qatorida hisoblagaysan. To'rtinchidan, chaqimchining so'ziga kirib, bir musulmonga nisbatan badgumon bo'lmagaysan. Beshinchidan, uning so'ziga e'tibor bermagaysan va so'zini xushlamagaysan. Oltinchidan, uning aytganiga ishonib ish qilmagaysan. Umuman, chaqimchini o'zingga yaqin yo'latmagaysan va uni dushman bilib, so'ziga qulqoq tutmagaysan.

* * *

Takabburlik kaltabinlar va insoniylik tariqidan² chiqqalarning xislatidur.

* * *

Takabburlik qilish orqali kishilar o'zlarining nuqsonlarini yashirmoqchi bo'ladilar. Ammo shuni bilmaydilarki, takabburlik xislati aslida ularning nuqsonlarini oshkor qilib, beobro' qilur.

Asadali Hakimjonov tarjiması

¹ Vojib — zarur, majburiy, farz.

² Tariq — yo'l, mazhab.

SAYYID QOSIMIY

(XV asr)

* * *

Nafs-u havo odamini ozdurur,
Nafs-u havo tarkin etar ozdurur.

* * *

So‘z bila ortar kishining izzati.

* * *

Nafs-u havo ilgina berma inon¹,
Hirs-u havas uyida qilma makon.

* * *

Har kishi yesa kishini ne’matin,
Vojib erur qilsa aning xidmatin.

* * *

Bo‘lma yomon kishi kibi xudparast²,
Yaxshiliq et barchaga yetgancha dast³.

* * *

Manzili maqsuda yetar ul kishi,
Shom-u sahar bo‘lsa riyozat ishi.

¹ Inon — ixtiyor, jilov.

² Xudparast — manman, shuxratparast, takabbur.

³ Dast — qo‘l.

* * *

Dushman agar mo'r¹ esa, ko'rma haqir,
Har nechakim bo'lsa alingda² asir.

* * *

Aytmag'il ul odamini sen kishi,
Umri kechib, qilmadi juz³ nafs ishi.

* * *

Rost kerak odamig'a e'tiqod,
Egri kishi topmadi hargiz murod.

* * *

Qizil til yugrugi nuqsoni jondur,
Tilin tiygan kishi doim omondur.

* * *

Kimung bo'lsa karam fe'l-u sifoti,
Yoyilg'ay elga mundak yaxshi oti.

* * *

Muruwwatni o'zinga ayla odat
Ki, uldir davlat-u baxt-u saodat.

¹ Mo'r — chumoli.

² Al — qo'l.

³ Juz — bo'lak.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

(1483 – 1530)

* * *

Olam bog‘ida topmoq guli bexor¹ mushkildur.

* * *

Aysheki o‘tti — o‘zga ani zikr aylama,
Har nimaiki yitti — so‘roqig‘a arzimas.

* * *

Bori² elga yaxshilig‘ qilg‘ilki, mundin yaxshi yo‘q —
Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig‘.

* * *

G‘aflat uyqusidin uyg‘on — gar tilar bo‘lsang murod —
Kim, yetar maqsadg‘a har kim bo‘lsa ul bedorroq.

* * *

Aysh-u tarab gulbunig‘a³ suv berib,
G‘ussa niholini qurutmoq kerak.

* * *

Har nimag‘a g‘am yema — g‘am ko‘pturur,
Aysh bila o‘zni ovutmoq kerak.

¹ Bexor — tikansiz.

² Bori — bari, barchasi, hammasi.

³ Gul bun — gul butasi, tupi.

* * *

Muvofiq yorlar birla bu damni xush kechur, Bobur,
Na uchunkim, kelur damg'a bo'la olmas kishi zomin¹.

* * *

Nekim taqdir bo'lsa, ul bo'lur tahqiq², bilgaysiz,
Erur jang-u jadal, ranj-u riyozat barcha behuda.

* * *

O'zungni shod tutqil, g'am yema dunyo uchun zinhor —
Ki, bir dam g'am yemakka arzimas dunyoi farsuda³.

* * *

Gar iliktin kelsa, bir damni kechurmang g'am bila.

* * *

Yo'lni ne bilgay kishi to rahnamo ko'rsatmagay.

* * *

Dushmanniki, bu dahr zabardast qilur,
Naxvat⁴ mayidin bir necha kun mast qilur.
G'am yemaki, yetkursa boshini ko'kka,
Oxir yana yer kibi oni past qilur.

* * *

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur!
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur!
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonliq hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur!

* * *

To dahrdurur, budur aning rasmikim,
Oyrib kishini azizidin xor aylar.

¹ Zomin — kafil.

² Tahqiq — tekshirish, tadqiq qilish, narsaning mohiyatini bilish, haqiqatga yetish.

³ Farsuda — eskigan, xarob, zaif.

⁴ Naxvat — kibr, g'urur, manmanlik.

* * *

Kim yor anga ilm, tolibi ilm kerak,
O'rgangali ilm tolibi ilm kerak!
Men tolibi ilm-u tolibi ilme yo'q,
Men bormen ilm tolibi — ilm kerak.

* * *

Yotlarni, kerakki, oshno kam qilsang,
Har kimki vafo qilsa, jafo kam qilsang.

* * *

Davlatqa yetib, mehnat¹ elin unutma!
Bu besh kun uchun o'zungni asru² tutma!
Borg'oni, kel emdi, yod qilmay, ey do'st,
Borish-kelishingni lutf etib, o'ksutma!³

* * *

Ko'ngli tilagan murodig'a yetsa kishi,
Yo borchha murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikki tuyassar o'lmasa olamda,
Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi.

* * *

Yod etmas emish kishini g'urbatta kishi,
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatta kishi.
Ko'nglum bu g'aribliqda shod o'ljadi, oh,
G'urbatta sevunmas emish, albatta, kishi.

* * *

Dushman so'ziga kirma, eshit do'st so'zin,
Eshitmasa so'zni do'st, dushman ne degay?

¹ М е х н а т — 1) qiyinchilik, mashaqqat; 2) balo, musibat; 3) dard, g'am.

² А с р у — ko'p, ortiq, ziyoda.

³ О'к с у т м о q — kamaytirmoq, ozaytirmoq.

* * *

Nosih¹ so'zi sanga necha mardud² o'lg'ay,
Yaxshi-yu yamon qoshingda nobud o'lg'ay.
Bori emdi maosh³, bir nav' etkim,
Haq rozi-yu olam eli xushnud o'lg'ay.

* * *

Otani chunki qibla debturlar,
Qibla yanglig⁴ anga nazar qilg'il.
Ota og'ritma, ey otam, zinhor,
Ota ozoridin hazar qilg'il.

* * *

Birovnikim, birovdin ko'ngli qolur,
Kishi yuz so'z bila ko'ngulni olur.

* * *

Davlat uchun ko'ngulni zor etma!
Izzat uchun o'zungni xor etma!

* * *

Nafsning kasbidur havo-yu havas,
Ruh olidadur bular yaramas.

* * *

Nafs dushmanedur yaqin⁵ bilgil,
Do'stum, bu so'zumni chin bilgil.

* * *

Dushmanedur, agarchi, o'tru emas,
Lek, bir lahza sendin ayru emas.

¹ Nosih — nasihatgo'y.

² Mardud — rad qilingan, inkor etilgan.

³ Maosh — tirikchilik, yashash.

⁴ Yanglig' — kabi, o'xshash, monand.

⁵ Yaqin — haqiqat.

* * *

Garchi zohirda to‘g‘ridektur nafs,
Jisming uyida o‘g‘ridektur nafs.

* * *

Burnog‘ilar so‘zin nazar qilg‘il,
Uyning o‘g‘risidin hazar qilg‘il.

* * *

Nafs tavsanini¹ rom qil o‘zunga,
Qodir o‘l harma so‘z desang so‘zungga.

* * *

Har so‘zki eshitsa, desa bo‘lmas,
So‘z borki, aytsa — desa bo‘lmas.

* * *

Yaxshilik² chun qilmading, bore yomonlig² qilmag‘il.

* * *

Har kimki ko‘p aytur, parishon aytur.

* * *

Yomonlik qilganingdan keyin ofatlardan emin² bo‘lma,
chunki tabiatning beradigan jazosi aniq.

* * *

Ishlar vaqtida bajarilishi kerak, vaqtida bajarilmagan
ish sust bo‘ladi, sust.

* * *

Olamda jon vahmidin yomonroq nima bo‘lmas emish.

¹ Tavsan — arg‘umoq, o‘ynoqi ot.

² Emin (emn) — tinch, osuda, xotirjam.

* * *

Agar yuz yil va agar birgina kun yashasang ham, ko'ngil ochuvchi bu qasrdan ketish kerak bo'lur.

* * *

Sen o'zingga yomonlik qiluvchini turmush hukmiga havola qil. Turmush senga o'ch olib beruvchi xizmatkor-dir.

* * *

Har kimdin yaxshi qoida qolg'on bo'lsa, aning bila amal qilmoq kerak.

* * *

Agar ota yomon ish qilg'on bo'lsa, yaxshi ish bilan badal qilmoq kerak.

* * *

Har bir yuzaga kelgan yaxshi-yomonlikni tekshirib qarasang, turmush uchun xayriyatlidir.

* * *

Har kimki hayot majlisig'a kiribtur, oqibat ajal pay-monasidein¹ ichgusidur va har kishikim, tiriklik manzilig'a kelibtur, oxir dunyo g'amxonasidan kechgusidur.

* * *

Yomon ot bila tirilgandin, yaxshi ot bilan o'lgan yax-shiroq.

* * *

Uluqlar ko'tarimlik kerak.

¹ Paymona — qadah, kosa.

UBAYDIY

(1487 – 1540)

* * *

Yor o'lg'usidur ko'b kishi davlatda sanga,
Xush so'z degusidur bari xilvatda sanga.
Alarni sog'inma¹ yor-u yor oni sog'in:
Kim yorlig' etar barchag'a mehnatda senga.

* * *

Har kimki, tuz² etsa niyatın — rahmat anga!
Haq niyatig'a ko'ra berur davlat anga.
Har kishiki, turluk aylasa niyatini,
Xosiyatin ul nav' berur niyat anga.

* * *

Zinhor adab o'rganing, ey ahli talab,
Kim bordur adab kulli³ saodatqa sabab.
Shaytonki, adabsiz erdi — qoldi mahrum,
Odamni, ko'rung, ne yerga yetkurdi adab!

* * *

Olam aro joiz ul-xato insondur,
O'z nafsi uchun hamisha sargardondur.
Gah nafsi uchun makr qilur, gahi hiyal⁴,
Bilmas netarin — o'z ishiga hayrondur.

¹ Sog'inmoq — bu yerda: hisoblamoq, o'yamoq, gumon qilmoq.

² Tuz — bu yerda: to'g'ri, rost.

³ Kull — hamma, barcha, jami.

⁴ Hiyal — hiylalar, nayranglar.

* * *

O'tkarma g'am-u mehnat ila umrungni,
Dunyo deganing ko'z yumub-ochquncha o'tar.

* * *

Ey nafs, yamon yuruy-yuruy horg'ungdur,
Oxir so'ng ishing eshikda yolborg'ungdur.
La'nat-la'nat debon o'zungga doim,
Rahmat-rahmat deb o'zgaga borg'ungdur.

* * *

Har do'stkim, ul dushmanga yordurur,
Bilkim, sanga ul yor emas, ag'yordurur.
Aylang hazar andinkim, aningdek kishida
Bir nav' xayol-u bir balo bordurur.

* * *

Sabr etsa kishi, murodig'a yetgusidur,
O'zini sabr ahlidin etgusidur.
Sabr etmakidin anga yetib xurramliq,
G'am xayli¹ aning xotiridin ketgusidur.

* * *

Hargiz dema hiyla yuzidin yolg'on so'z,
Yolg'on so'zdin yiroq bo'lub, evur yuz.
Oxir sensen — yoy kibi bo'lsang egri,
Avval sensen — alif² kibi bo'lsang tuz.

* * *

Hiqd-u³ hasad-u kibr ila hirs-u amal,
Odamg'a kerakmas nimadur hech mahal.
Olarni ketarmasang ko'nguldin, bilkim,
Ham dinga zarar qilur, ham iymonga xalal.

¹ Xayl — 1) to'da, guruh, toifa; 2) el, jamoa.

² Alif — arab alifbosining birinchi harfi: «a», «o»; majozan: tik va to'g'ri.

³ Hiqd — gina, kek.

* * *

Odamg'a adab keraktur, ey yor, mudom,
To bo'lg'ay anga adab maqomida maqom.
Har kimniki ko'rsangiz, tavoze yuzidin
Zinhor bering anga adab birla salom.

* * *

Gar bo'lsa omonatqa xiyonat sendin,
Tegmas egasig'a omonat sendin.
Etting bo'lubon xoinu ondin so'ngra
Ketti, bil, omonat-u diyonat sendin.

* * *

Sharh aylama dardsizga rohat qadrin,
Mehnat ko'rgan bilur farog'at qadrin.
Chekmay alamu og'rimayin bilmas emish
Umrinda kishi rohati sihhat qadrin.

* * *

Odamg'a berib Xudo adabning shavqin,
Oliy-yu fuzun¹ qildi maqom-u zavqin.
Bilkim, bir adabsizlik anga qilg'on uchun
Soldi shayton bo'ynig'a la'nat tavqin.

* * *

Ey yor, kulub bo'lmas emish el tilidin,
Xurram ham o'lub bo'lmas emish el tilidin.
Elning tilidin qutulmoq ishin qo'ykim,
Bir dam qutulib bo'lmas emish el tilidin.

* * *

Bilmas kishi ne'mat aro davlat qadrin,
Davlat aro izzat bila hurmat qadrin.
Alqissaki², sihhat-u farog'atda, biling,
Zinhor farog'at bila sihhat qadrin.

¹ Fuzun (afzun) — ko'p, ortiq, ziyoda.

² Alqissa — xullasi kalom, gapning qisqasi, xulosa qilib aytganda.

* * *

Dunyoning o'tar avvali nodonlig¹ ila,
O'rtasi aning g'am-u parishonlig¹ ila.
Oxiri dog'i o'tgusidur, ohkim, aning
Hasrat bila anduh-u pushaymonlig¹ ila.

* * *

Ey do'st, adabturur saodat sababi,
Tolibqa sharaf izzu¹ adablik tałabi.
Maqsudig'a bot ikki jahonda tolib
Etmasa ajab erur gar o'lsə adabi.

* * *

Bo'lmas nima olamda adabdin yaxshi,
Ham rohat-u ham g'amda adabdin yaxshi.
Yo'qtur, ko'ramen, barcha sifatlar arokim,
Yaxshi sifat odamda adabdin yaxshi.

* * *

Hech tutma o'zingga yor bekirlarni,
Ko'rlik hamisha xor bekirlarni.
Bir ish boshini tut — sira bekor yurma,
Tark ayla bekorlikni-yu, bekirlarni.

* * *

Hech kimsaga tekkizma zaboni² poking,
Bo'lsin, desang, osuda bu joni poking.
Iflos qiladi og'izni g'iybat, bilsang,
Bas, bulg'ama hech qachon dahoni³ poking.

* * *

Kim ilmi-yu fazliga juda mag'rurdır,
O'z baxtiga dushmanlık ila mashhurdır.

¹ Izz — izzat, sharaf.

² Zabon — til.

³ Dahon — og'iz.

* * *

Mard ulki, agar mute'i farmon bo'lsa,
Bir nojo'ya ish qilsa, pushaymon bo'lsa.
Kam ko'rmaq o'zin — mardlar kamoli, toki
Har narsada o'z aybi namoyon bo'lsa.

* * *

Sen mardsan agar bo'lsang amir nafsingga,
Ogoh-u hazir bo'l bir umr nafsingga.
Olamda sira ozodlik topmassan,
Ey banda, agar tushsang asir nafsingga!

* * *

Har kimki, agar qilib gunoh ishlarni,
Orttirmasa o'z boshiga tashvishlarni,
G'am go'shasida o'ltiribon hasrat ila
To'kmas edi ko'zdan oh urib yoshlarni...

* * *

Har kim senga bir omonatin keltirdi,
Va'dangni olib, senga ishonch bildirdi.
Bas, aslo omonatga xiyonat qilma,
Ul yukni diyonat yuzidan qoldirdi.

* * *

Kim to'kkali obro'ying shitob qilgaydir,
Xalq o'rtasida ta'na-itob qilgaydir,
Sen unga javob aylama-yu, jim o'ltir,
O'mingga farishtalar javob qilgaydir.

* * *

Ey dil, meni na dev-u na dad¹ qo'rqtgay,
Yo ayb-u gunohlar beedad qo'rqtgay.
Olamda bulardan sira yo'q xavfim, lek
Do'st ko'nglidagi kinu hasad qo'rqtgay.

¹ Dad — yirtqich, yovvoyi hayvon.

* * *

Ahdingga xilof ish sira, ey yor, qilma,
Har yerda o'zingni bu bilan xor qilma.
Va'daga ba'zan vafo qilolmassan ham,
Bas, hech kishiga va'dani bisyor¹ qilma.

* * *

Hech so'zlama yolg'on, ey yaxshi inson,
El oldida noravo gapirmoq yolg'on.
Bossin, desang, oldinga ishim rostlik ila,
Kasb ayla-yu rostlikni, rost so'zla har on.

* * *

Bir lahza nafs mute'i farmon bo'lmas,
O'z qilmishidan sira pushaymon bo'lmas.
Dunyodagi bor mazhablar hukmi bilan
Kofir atalur u — hech musulmon bo'lmas!

* * *

Tuz haqqini bilmasang agar, ey inson,
El or qiladi atashga hatto hayvon.
To senda bu xil yomon sifat mavjud ekan,
Sen inson emassan, devsan yo shayton.

Ergash Ochilov tarjimasi

¹ Bisyor — ko'p, ortiq, ziyoda.

FUZULIY

(1498 – 1556)

* * *

Yaxshimidir aylamak yomon od —
Kim, qilmas kimsa xayr ila yod?

* * *

Kimsaki, o‘zindin o‘la g‘ofil,
Bir o‘zgani bilmaga na qobil.

* * *

Gar cho‘q¹ istarsan, Fuzuliy, izzating, oz et so‘zi —
Kim, cho‘q o‘lmoqdan qilubdir cho‘q azizi xor so‘z.

* * *

Riyo ahlina ham cho‘q e’tiroz etmak riyodandir.

* * *

Fuzuliy, dahrdan kom olmoq o‘lmaz o‘lmadan giryon²,
Sadaf³ suv olmayincha abri naysondin⁴ guhar vermaz.

* * *

Sabr ayla, ulki dard verubdir, davo verir.

¹ Cho‘q — ko‘p.

² Giryon — yig‘lovchi, yig‘lab turuvchi.

³ Sadaf — ichida gavhar yetiladigan huqqa.

⁴ Abri nayson — nayson buluti, barakali, seryomg‘ir bulut. Nayson — suryoniy taqvimi bo‘yicha yettinchi oy — aprelga to‘g‘ri keladi. Rivoyat qilishlaricha, bu oyda yog‘adigan yomg‘ir tomchilaridan sadaf ichida marvarid hosil bo‘ladi.

* * *

Har kim kerak o'z ishinda komil.

* * *

Cho'q kimsana ganj uchun chekar ranj,
G'ayrina aning nasib o'lur ganj.

* * *

Muttasil hirmon¹ qilur hosil tamadan ahli hirs,
Turfakim, ortar anga keldikcha hirmondan tama.

* * *

Hech javshan² kimsani tiyri qazodan³ saxlamaz.

* * *

Kamoli jahl ila da'voysi irfon aylamak o'lmez.

* * *

Jahd ayla-yu qilma bir isha ahd,
V-ar⁴ ahd aylasang, vafoya qil jahd.

* * *

Sud istayan istamak ziyonda.

* * *

Gul g'unchaliginda xor ilandur,
Ochilsa, bir o'zga yor ilandur.
Aslinda tikan chekar azobin,
Faslinda hakim olur gulobin⁵.

* * *

Jahd aylaki, zohir o'lmayta ayb.

¹ Hirmon — qayg'u, kulfat.

² Javshan — sovut.

³ Tiyri qazo — ajal o'qi.

⁴ Var — va agar.

⁵ Gulob — gul suvi, atirgul yaproqlaridan olinadigan xushbo'y ichimlik; majozan: ko'z yoshi.

* * *

**Har vaqtdadur bir amr g'olib,
Har ahddadur¹ bir ish munosib.**

* * *

**Vahshi ila vahshi, tayr² ila tayr,
Hamjins ila xushdir aylamak sayr.**

* * *

Oqil kishi durbin³ kerakdur.

* * *

**Bir shishaki, o'ldi pora-pora,
Payvandina hech vormi chora?**

* * *

**Dunyo edi boshli ajdahodur,
Andishai ulfati xatodur.
Har lutfinadur darina⁴ ming qahr,
Har shahdinadur⁵ qarina⁶ ming zahr.**

* * *

**Dahr bir bozordur har kim mato'in arz edar:
Ahli dunyo — siym-u zar, ahli hunar — fazl-u kamol.**

¹ Ahd — bu yerda: davr, zamон.

² Tayr — qush.

³ Durbin — uzoqni ko'ruvchi.

⁴ Darina — bu yerda: omuxta, aralashgan.

⁵ Shahd — 1) bol, asal; 2) shirinlik, lazzat.

⁶ Qarin — yaqin; bu yerda: hamdam.

BOBORAHIM MASHRAB

(1640 – 1711)

* * *

Yomonni yaxshisi bo'lguncha, yaxshini yomoni bo'l.

* * *

Qanoat obro'yi ikki dunyodur, agar bilsang.

* * *

Hayf nodonlarga davlat bo'lsa sarf.

* * *

Rafiqi bad baloyi jon erur, sen hamsafar bo'lma.

* * *

Qo'lingdin kelmas ishni etmagin behbud¹ qilurman deb.

* * *

Ikki ish boshini tutsa har kishi,
Doyimo nimkoradur², bitmas ishi.

* * *

Har kishini xalqg'a ozori yo'q,
Xalqni ham ul kasga³ hargiz kori⁴ yo'q.

¹ Beh bud — 1) yaxshilik, to'g'rilik; 2) foyda, najot.

² Nimkora — chala, tugallanmagan.

³ Kas — kishi, odam.

⁴ Kor — ish.

* * *

Haqiqat yo'liga kirgan kishi hargiz balo ko'rmas.

* * *

Do'stlarni xor qilgan xordur.

* * *

To qiyomat boqiydur nomi neku¹.

* * *

Asli bilsang, nuri jondur tarbiyat,
Gavhari haft² osmondur tarbiyat.

* * *

Tikansiz — gul, sadafsiz — dur, mashaqqatsiz hunar
yo'qdur,

Riyozat chekmaguncha, yor vaslig'a yetib bo'lmas.

* * *

Tavofi olami dil qil jahonda har bashardin sen,
Agar bir dilni sen buzsang, yuzar³ Ka'ba buzilmazmu?!

* * *

Hech ilme siynag'a⁴ jo bo'lindi takrorsiz.

* * *

G'ofil kishilar kecha-yu kunduz tilagay mol.

* * *

Dunyoga ko'ngul bersa kishi, bo'lg'usi rasvo.

* * *

Xayr ani derlarki, arzandek⁵ riyosi bo'lmasa.

¹ Neku — yaxshi, ezgu.

² Haft — yetti.

³ Yuzar — yuzlab.

⁴ Siyna — ko'ks, ko'krak, yurak.

⁵ Arzan — tariq.

* * *

Nur bo'lur erdimki, nafs ajdahosi bo'lmasa.

* * *

Nafs uchun shayton bilan yurgan gadolarni ko'ring.

* * *

Oxiri manzilga yetmasdur kuduratlik¹ ko'ngul,
Dilga jo bermoq na hojat dushmani g'addorni².

* * *

Olimi guftor³ bo'lma, fozili kirdor⁴ bo'l.

* * *

Har piri komilki, o'z qavmiga payg'ambarcha bor.

* * *

Azobi qabr hijron dardidin albatta osondir.

* * *

Inoyat bo'lsa gar haqdinki, har mushkul ish oson-dur.

* * *

Jahonni ro'zgori⁵ gohi talxu⁶, gohi shirindir.

* * *

Mullalar ilmiga mag'rur, omilar isyonga g'arq,
Kas⁷ na bilsun, ro'zi mahshar⁸ kimni toshi kam kelur.

¹ Kuduratlik — g'uborlik, zang bosgan.

² G'addor — 1) makkor, hiylagar; 2) xoin, aldamchi.

³ Guftor — 1) so'z, gap; 2) gapirish, so'zlash.

⁴ Kirdor — ish, amal.

⁵ Ro'zgor — bu yerda: hayot, tirikechilik.

⁶ Talx — achchiq.

⁷ Kas — kishi.

⁸ Ro'zi mahshar — qiyomat kuni.

* * *

Gar boshing Arshga¹ yetishsa, sen o'zungdan ketma-g'il,

Har daraxtni mevasi ko'p bo'lsa, boshi xam kelur.

* * *

Har kishi xalq ta'nasini qilsa, jamoatdin emas.

* * *

Mori af'idin² batardir norasoning suhbati,
Kimki noqobil bilan yursa, dilin chirkin qilur.

* * *

Dushmaning o'tsa tavozu ayla mag'rur bo'Imagin,
Xor oyoq ostiga tushsa, nishtare paydo qilur.

* * *

Bandani aybini kim qildi, Xudo qahr aylagay.

* * *

Yoshligingda yo'lga kirgin, toki topqaysan kamol,
Gar jarohat ko'hna bo'lg'an so'ngra bemalham kelur.

* * *

Agar komil bo'lay desang, dilingdin dav'ini kam qilg'il.

* * *

Qo'lingdin kelsa doim yaxshi xalqlarni birodar tut.

* * *

Boshing gardunga³ yetsa, bo'Imgil zinhor xursande,
O'zungni har xas-u xoshokdin, ey banda, kamtar⁴ tut.

¹ Arsh — buyuk taxt. U xuddi olam ustidagi qubbaga o'xhash bo'lib, uni farishtalar ko'tarib turadi.

² Mo'ri af'i — ulkan ilon, ajdaho.

³ Gardun — osmon, falak.

⁴ Kamtar — bu yerda: kamroq.

MIRZO ABDULQODIR BEDIL

(1644 – 1721)

* * *

Afv et xalqdan kelsa yaxshi-yu yomon,
Adovatdan qochib, rohat qil, inson!
Kibr-u hasad bermas kishiga orom,
Odamni mensimay, quvildi shayton.

* * *

Harakatsiz bo‘lmas hatto chang paydo.

* * *

Hech kim nazar tashlamas o‘zining ahvoliga,
Bulbul bo‘ldi guldan mast, gulga havolash odat.

* * *

Baxmal to‘sak na hojat kelmasa uyqu.

* * *

Bo‘sh xayoldan o‘tsa kishi ro‘zg‘ori,
Qarg‘a tuxumidan chiqardi anqo¹.

* * *

Ko‘zadan ibrat ol, suvgaga chidolmas,
Avval kuydirmasa uni to olov.

* * *

Bir tutam junni yel eltadi oson,
Birlashsa bo‘ladi namat yo gilam.

¹ Anqo — Qof tog‘ida yashaydigan afsonaviy qushning nomi.

* * *

Ey inson, qo'lingda havas to'la jom,
Vasvasadan tinmas, dil besaranjom.
Sen o'sha-o'shasan — beshigingda ham
Tebratib turmasa, topmasding orom.

* * *

Yaxshilik qilsang, o'z diling baxtga yor,
Yomonlik ko'rguzsang, ko'ngilda g'ubor.
Hali qiyomat kun kelgani yo'q-ku,
Yaxshilik qilaver, hisob ne darkor.

* * *

O'zgaga yomonlik o'zingga sitam.

* * *

Tubanlar oldida to'kma obro'ying,
Hirs bo'lsa tashnalik, hayoni suv bil.

* * *

Qayda haq-u nohaq ajratilmaydi,
Kishilar ta'bida soflik bo'lmaydi.

* * *

So'zning ham bor baland, past pog'onasi.

* * *

O'zimizdan barcha yaxshi-yomonlik,
Ko'zguda ko'rganing o'zingdan axtar.

* * *

Hirs ahli vasvasadan tiyolsa qadam,
Ochko'zlik shu ondayoq topadi barham.
Ya'ni tama qo'lin tortgani zamon,
Iltimosdan yumilar uning labi ham.

* * *

Sir bo'lmas, bo'lmasa dilingda nihon.

* * *

— Nega ko'zing yumuq? — desam bug'doyga,
— Jim, ko'zim o'ngida, — dedi, — tegirmon.

* * *

To fazl-u hunar-la bezanmay inson,
Biron baxt eshigi ochilmish qachon?

* * *

Agar dushmaningni do'st qilolmasang,
Shunday qilki, do'sting bo'lmasin dushman.

* * *

Nafsin yengmoq uchun sabot kerakdir,
Qilich kesmas, dasta bo'lmasa unda.

* * *

Diltang bo'lmanang, ko'kda hilol misoli
Kaliti osig'liq har eshikning ham.

* * *

Tiliga zo'r berar aqlsiz inson.

* * *

Ochligingdan o'lganda ham zinhor-zinhor,
Chumolining og'zidagi donin olma.

* * *

Bir-ikki tosh bo'lsa ham oyoq ostida,
Toydirar tekis yo'ldan, unutma zinhor.

* * *

Oyoq ostidan chiqib, boshga qo'nar chang.

* * *

Tadbirsizlar doimo ofatga nishon,
Toshga bosh urar kimda bo‘lmasa es-hush.

* * *

Sinovdan juda ko‘p o‘tganki, shamshir
Usta qo‘lin kesar sayqal mahali.

* * *

Birovga bir narsa aylasang ehson,
Nomini tilingga olmagil oson.
Ul narsaning nomin tilingga olsang,
In’omingni qaytib olgandan yomon.

* * *

Tabassum bilan ish topsa saranjom,
Tirishtira ko‘rma peshonang zinhor.

* * *

Olamni zabt etar go‘zallik, bilsang.

Shoislom Shomuhamedov tarjimasi

* * *

Qo‘lingni tutar qo‘lini tutsang kimning,
Naf-manfaat asli qo‘lma-qo‘ldir bunda.

* * *

Temir bilan ushla qizigan temirni —
Rahm aylama rahmi yo‘q kishiga sira ham.

* * *

Ravnaq topdi inson mizojidan ilm.

* * *

Tilingni shirin qilsang agar sen, ravshan,
Bo‘lgusi yaqinlik ko‘zgusi dushman.

Jang, fitna qo'par mudom noo'rin so'zdan,
Uchraydi tayoq bahsiga bosh-u gardan.

* * *

Bedił, sira chekma qayg'u mol-dunyo uchun,
Dur mavjidan aslo rishta bo'lmas serob.

* * *

Xalq ichra yashab, xalqdan uzilib bo'lmas,
Suhbat o'lim emas, tiriklik ila xush.

* * *

Kim yengmasa o'zlikni! — jahon unga qafas,
Dil tangligidan qutulki, sahro shuldir.

* * *

Har diyda agar olmasa ibrat ko'rdir,
Har ovqat agar bermasa lazzat sho'rdir.
O'zgarmasa har kiyim kafanga o'xshar,
Uy topmasa tabdil² sira misli go'rdir.

* * *

G'aflat menga ko'p jabr-u sitamlar etdi.

* * *

O'tkinchi jahonda o'zni ustun bilma,
Hech do'st-u yaqin ranjigudek ish qilma.
Ofatsiz emas xijolati pok dilning,
Suvning o'ti bor ko'zguda — kuyib qolma.

* * *

Himmat ahli tufayli to shu fursat
Jilva qiladi saxovat ushbu surat:
G'ofilga nasihat-u faqirga davlat,
Xizmatdir ulug'larga, kichikka izzat.

¹ Ozlik — insonning nafs va dunyo bilan bog'liqligi. Ular har lahza kishiga o'zligini eslatib, uni Xudo yo'llidan chalg'itadi.

² Tabdil — o'zgartirish, almashtirish.

* * *

Dardi yo'qning fahmi-da har dam kam emish,
Bu dardga o'limdan o'zga malham kam emish.
Bilsa bo'ladi qarab soch-u tirnoqqa:
Qon kam joyda sezgi-yu his ham kam emish.

* * *

Ko'p bo'lma xayolga bandi, ne'mat o'zga,
Qo'y turfa tasavvurni, haqiqat o'zga.
Noz-ne'mat-u hur-pariga liq to'la bihisht —
Hirs-u tama mevasi-yu jannat o'zga.

* * *

Dunyo ishida yo'q sira tartib-u nizom,
Simob¹ kabi bilmas u halovat, orom.
Dengizdiru u mavji parishonligimiz,
Bir gavhari noyob beg'am bunda mudom.

* * *

Bu dashtda g'ofil karvonlar bordir,
Yo'lovchilar izlar yo'l-nishonlar bordir.
Bir yo'la kamolotga yetib bo'lmaydi —
To ko'kkacha yerdan narvonlar bordir.

* * *

Naf ko'rgan emas kibr-u g'ururdan inson.
Ko'zingni to'sar darajada ochma qo'ling,
Me'yorini bil xayr-u saxonning har on.

* * *

Ul toifadan mudom hazar qil, Bedil:
Or-nomusini boyligu pulga sotadi.

¹ Simob — kumushrang kimyoviy element. Mumtoz she'riyatda betoqatlik, beqarorlik ramzi va ko'z yoshi timsoli bo'lib keladi.

* * *

Har qayda agar lutf-u karam bo'lgaydir,
Dillarga iliqlik hamdam bo'lgaydir.
Axloq tilamang tuban tabiatlardan,
Sovuq urgan gul hidi kam bo'lgaydir.

* * *

Izzat tilasang, mumsiklardan uz dil,
Komil kishilar soyasida tut manzil.
Hech kim arig'-u chashmadan dur topgan emas,
Ey qatra, bo'lay desang dur ummonga qo'shil!

* * *

Behuda havas dastida qurban bo'lma,
Jam et shu qadar diling, parishon bo'lma.
Angla nimani anglash mumkin bo'lsa,
Anglab lekin aksini pushaymon bo'lma.

* * *

Ey g'ofil, mol yig'ishda sen afsona,
Bo'lma bu qadar hirs o'tiga parvona.
Molga to'libon uying, eshik halqasidek
Qolma ko'chada o'zing bo'lib hayrona.

* * *

Hangomasi yangi narsaning qizg'indir.

* * *

Bedil, yaramas so'ziga hech solma qulqoq,
Porloq shamidan adabni-da tushma uzoq.
Yo'l topsang ibo dasturxoniga agar,
Terning tuz-u noni haqqini saqla biroq.

* * *

Kech kibr-u havodan senu dil ravshan qil,
Idrok oyinasini, kel, ravshan qil.
Tokay o'qimoq "ko'kka havolash" darsin,
Ey sham, ko'zimiz oldini sal ravshan qil.

* * *

Har qancha saxiy bo'lma, baxildek ammo,
"Himmat dodini" berolmagaysan aslo.
Oltin-u kumushga ko'milib ham, ne ajab
Bu toifa hasratda etar tark dunyo.

* * *

Bedil, kechma zamon quvonch-u g'amidan,
Oson-u qiyinidan-u ko'p-u kamidan
Kir tong yelidek bo'lib hayot gulshaniga,
Ketma etagingni siltab olamidan.

* * *

Inson vujudida ham, agarda bilsang,
Soch, tirnoqdek hissiz uzvlar¹ bisyor.

* * *

Insondan umr yuz o'girib ketgusidir,
Bir zumda shamoldek yugurib ketgusidir.
Ranjima nodondan — kelib taklifsiz,
Davra hali tugamay turib ketgusidir.

* * *

Ibrat gulini dilda mujassam qiling,
G'am kelganda xotiringiz jam qiling.

¹ Узъ — а'зо.

* * *

Har kimning agar hayo hamrohi bo'lgay,
Har ofat-u kulfatda panohi bo'lgay.
Kamroq teradi hoy-u havas gardini u,
Chunki oyoq ostiga nigohi bo'lgay.

* * *

Soz bermas ovoz tegmas ekan to tirnoq,
Dur bo'lmasa, rishta yaltirarmi hech choq?
Shamdek kuymay, obro' topish osonmas,
Qon yutmas ekan, bo'ljadi yoqut porloq.

* * *

Kim bilsa jahonda nima sir, mazmundir,
Iblis nega la'natlangan — ma'lumdir.
Har ikki jahonda hazrati insonni
Kim sajdaga loyiq bilmasa mal'undir!

* * *

Har bir ichi qoraki, hasad hosilidir,
Poklar qasdiga nazari botilidir.
Bor, paxta il-u uyning shiftiga, qara:
Shamdan chiqqan tutun uning moyilidir.

* * *

Cho'zilsa uzoq, quvonch-da xuddi g'amdir,
To'y haddidan oshsa, oxiri motamdir.
Har narsa-da o'z me'yorida bo'lgani soz,
G'arq etsa, suv ham dushmani odamdir.

* * *

Ashyo¹ — ko'rish orzusini etmoq emish,
Asmo² degani afsona eshitmoq emish.
Bu barchasi o'zingdan uzoq aylagusi,
Inson bo'lmoq — o'zligingga yetmoq emish.

Ergash Ochilov tarjimasi

¹ Ashyo — narsalar, buyumlar, jonsiz mavjudot.

² Asmo — ismlar.

SO'FI OLLOYOR

(1644 – 1724)

* * *

O'zin bilan qachon qolgay talabdin.

* * *

Agar rutbang¹ erur a'loi ofoq²,
Yiqilg'on xastalarni holina boq.

* * *

Ishonma otaga, qolma talabdin,
So'ralmasdur qiyomatda nasabdin.

* * *

Takabbur qilmagil, ey bemaoni³,
Faloni o'g'lidurman deb faloni.

* * *

Hudoyim har ne bersa qil qanoat,
Yurakni qilma minnatdin jarohat.

* * *

Agar boshi bila choh qazsa banda,
Ko'zini yoshicha suv tobsa anda.
Vagar qazsa arig' kirpik bila mard,
Agar bir xo'shai jav⁴ qilsa parvard⁵.

¹ Rutba — martaba, daraja.

² Ofoq — dunyo, olam.

³ Bemaoni — bema'ni.

⁴ Xo'shai jav — arpa boshog'i.

⁵ Parvard — o'stirish, parvarishlash.

Agar tosh chaynasa eldin chiqib tosh,
Kishiga egmagay himmatli qul bosh.

* * *

Nabi aytdi: qiyomat bo'lsa, ey do'st,
Tamagirni yuzida bo'limgay po'st.

* * *

Galaga bo'ri chopsa, ey faloni,
Qayu ayrilsa, avval tishlar oni.

* * *

Keyinga boqmagudek bo'lsa banda,
Yetar maqsudiga tez izlaganda.

Agar boqsang keyin bu tog'-u cho'lda,
Mabodo qolmagaysan o'rta yo'lda.

* * *

Yomon olim yomonlarning yomoni.

* * *

Riyozat xokig'a¹ har kecha ur bosh
Yurak qon aylasa la'l² atanur tosh.

* * *

Riyozat mevasidur — mevasidur misli yong'oq
Agarchi zohiri tosh, botini yog'.
Maishat avvali narm³, oxiri qahr
Yilonni tashi yumshog'dir, ichi zahr.

* * *

Yema zarra harom og'ushta nondin,
Bo'lur chohi najas bir qatra qondin.

¹ X o k — tuproq.

² La'l — qizil rangli yaltiroq qimmatbaho tosh.

³ N a r m — nozik, muloyim, yoqimli.

* * *

Musulmon o'g'lida bo'lsa suchuk til,
Olib kelsa bo'lur bir qil bila fil.

* * *

Yomon til shumlig'iki, jonga urg'ay,
Gahi jondin o'tib iymong'a urg'ay.

* * *

Qanoatkim tabibi har kasaldur
Qanoat ahlig'a og'u asaldur.

* * *

Kishi tosh ursa boshga, ey xujasta¹,
Kulub boqg'il yuziga misli pista.

¹ Xujasta — yoqimli, muborak, qutlug'.

HUVAYDO

(XIII asr)

* * *

Agar yaxshi amal qilsang, savob hosil bo'lur, lekin
Sitam qilsang bo'lur albatta oldingda sitam paydo.

* * *

Gunoh qilmas kishi yo'qtur bu dunyo mulkida aslo,
Gunohingni mukofoti nadomat aylamak bois.

* * *

Kimki dunyoni tilodi, oqibat topti zarar.

* * *

Zoye etma yaxshi so'zni fahmi yo'q befahmga,
Na bilur shir-u¹ shakarni lazzatini sakmagas².

* * *

Har kishi bo'lsa kerakdur o'z maqomi haddida
Xar³ bilan teng bo'limg'oy harchand log'ardur⁴ faras⁵.

* * *

Dunyoni molini yig'sang, to'ymagay nafsi bading,
To quyulmay ko'zingga tufrog'din bir mushti kaf.

¹ Shir — sut.

² Sakmagas — itpashsha.

³ Xar — eshak.

⁴ Log'ar — oriq.

⁵ Faras — ot.

* * *

G‘aribni ko‘nglini buzmak gunohi beedad ermish,
Kaforat¹ bo‘lmaq‘ay yuz Ka‘bani qaytib bino qilsang.

* * *

Shubhalik bo‘lsa taome, yema andin, hazar et,
Pok kiy-u pok yegil, dilni musaffo tilasang.

* * *

Tiyra² ko‘nglung sham yanglig‘ o‘lgucha topkay ziyo,
Bir dame hamsuhbat o‘lsang mardumi³ dono bilan.

* * *

Kizbu⁴ g‘iybat, lag‘v⁵ so‘zdin uqmagaysan o‘zgani,
Hamnishin⁶ o‘lsang zamone johil-u rasvo bilan.

* * *

Asar qilmas, Huvaydo, toshqa gar qilsang nasihatni,
Qilurmu toshni yomg‘ur yog‘ib, mag‘zi dilin nammu?

* * *

Chorpodek⁷ yeb-ichib, jismin semirtib yursa ul,
Demog‘il odam onikim, ma’ni-yu fahm bo‘lmasa.

* * *

Bu nafsi sarkashing, o‘z royiga⁸ qo‘ysang, bo‘yun
bermas,
Qanoatdin anga solg‘il lijom⁹ albatta, albatta.

¹ Kaforat — gunohni yuvish, qilingan gunoh evaziga beriladigan narsa.

² Tiyra — 1) qora, qorong‘i, xira, nursiz; 2) qayg‘uli, g‘am-g‘ussali.

³ Mardum — kishi, inson.

⁴ Kizb — yolg‘on, nayrang.

⁵ Lag‘v — bema’ni, behuda.

⁶ Hamnishin — birga o‘ltiruvchi, do‘sst, hamdo‘sst, ulfat.

⁷ Chorpo — to‘rt oyoqli, ya’ni hayvon.

⁸ Roy — bu yerda: xohish, ixtiyor.

⁹ Lijom — yugan.

* * *

Davosiz dard uldir odamiga, ey birodarlar,
Yurub dunyoda g'ofillik bila umri ado bo'lsa.

* * *

Tan quvvatida yaxshi amallar qila ko'rgil,
Sandin ketar quvvate, darmonga ishonma.

* * *

Kechalar yotmoq bila hargiz kishi topmas murod,
Xobi g'aflat¹ mastligidin kimki hushyor o'lmasa.

* * *

Kishi bo'lmasa ma'nodin xabardor,
Oni odam dema, bil naqshi devor.

* * *

Ilojin qilmasang avvaldin, ey yor,
Ish o'tgan so'ng pushaymonda ne darkor.

* * *

Jafo jurmig'a² loyiq ko'rgay inson.

* * *

Nasihatni eshitmas mardi johil,
Qaro toshqa nasihatdin na hosil.

* * *

Kishining aybi bo'lsa, kulma zinhor,
Saning aybingga ham kulguchilar bor.

* * *

Kishikim rostu nekukor³ bo'lg'ay,
Anga baxti saodat yor bo'lg'ay.

¹ Xobi g'aflat — g'aflat uyqusi.

² Jurm — ayb, gunoh.

³ Nekukor — yaxshilik qiluvchi.

* * *

Mashaqqatsiz emishda yo'q lazzat.

* * *

Topilsa bemashaqqat har nimarsa,
Aning qadrini bilmasdur kim ersa.

* * *

Betole kishiga gul tikondur.

* * *

Bahori umr o'tmasdin burun gulni g'animat bil,
Bo'lur vaqtি xazon yetgach, gul-u gulzor nopaydo.

* * *

Bahosiz bebaho umrungni zoye qilma, ey nodon,
Qo'lingdin boy berib behuda ishga qilmog'il savdo.

* * *

Darig'o¹, hayf, odam bir-birini qadrini bilmas,
Qilur o'lg'onidin so'ng har nechuk odam qadr paydo.

* * *

Qanoat pesha qilg'il, beqanoat topmadi maqsad,
Qanoatdin sadafni ko'ksida bo'ldi guhar paydo.

* * *

Daraxti besamarga bo'lg'usi oxir tabar² paydo.

* * *

Har tikonda toza gul, har bahrda yo'qtur sadaf,
Gavhari qimmatbahoni bahri Ummondin tila.

¹ Darig'o — undov so'z: eh afsus, hay attang.

² Tabar — bolta.

* * *

Murda¹ dillarga nasihat aylamak jon kohishi²,
Yig'lag'an birla tirilmaydur o'lik bekor hech.

* * *

Na kori xayr³ qilibsan, tilinga olma ani,
Bo'lur kishiga borib so'zlag'an saxovat hech.

* * *

Jahonni molini qilsang zamoneda ehson,
Ketor savobi ani, qilma zarra minnat hech.

* * *

Qo'lda moling borida yor-u birodar, xesh ko'b,
Ore, bosh yostuqqa yetganda qarindosh o'zgadur.

* * *

Bu nafsing royiga borsang, solur har dam sani o'tqa,
Olib aksin oni qilg'il, degonin qilmagil hargiz.

* * *

Yaxshini oyog'ini ostida o'lsang or emas,
To'tiyoi toji sar⁴ qilsun yomon, darkor emas.

* * *

Hayf so'zdur, bo'limg'il teng san yomonga zinhor,
So'zlama hargiz yomong'a, loyiqi guftor emas.

* * *

Xush erur o'tsa hayoting mehnati zindon bilan,
Bir nafas o'lturmag'ing andin batar nodon bila.

¹ Murda — o'lik.

² Kohish — azob, mashaqqat.

³ Xayr — yaxshi, yaxshilik.

⁴ Toji sar — boshga toj.

MAXTUMQULI

(1733 – 1791)

* * *

Jahd qismatdan ko‘p keltirmas.

* * *

Ming qayg‘u bir ish bitirmas,

* * *

Ochiq bo‘lsa qo‘l-u ko‘ngil,
Ko‘rgan senga bo‘ladi qul,
Ortiradi dushman badfe‘l,
Yaxshilik yor paydo qilar.

* * *

Birga tortishar mard inson
Har ish kelsa el bilan-ey!

* * *

Eldan pinhon qilsang har ish,
Oshkor bo‘lar til bilan-ey!

* * *

Nodon, ezma yigitning
Elda qadri oz bo‘lar.

* * *

Dunyoga to‘ymoq yo‘qdir – bo‘lguncha bo‘lsin dersan.

* * *

Yomonga yaxshi so‘z yoqmas.

* * *

**Bilganingcha mudom yaxshi so‘zlagin,
Yaxshi so‘z topmasang, o‘tir jim bo‘lib.**

* * *

Darddir bu jonning ofati, sog‘lik uning sultonidir.

* * *

Nafs aylagay sarkashligin tan taxtining maydonida.

* * *

Cho‘g‘i qolmagan kuldan o‘t chiqmaydi hech qachon.

* * *

Erta oshkor bugun yashirin sirlar.

* * *

Dunyoni yomon ish xor, xarob aylar.

* * *

**Kim bilgandan bilim olsa, bo‘lmas xor,
Do‘ssti dushman qilar yomon fe’l-atvor,**

* * *

**Kimlar toqqa chigar bo‘ldi,
Kimlar uni yiqrar bo‘ldi.**

* * *

**Odam yaxshisi olimdir,
Amal etmasa zolimdir.**

* * *

**Yomon so‘z dilga dog‘ solar,
Yaxshini olam orzular.**

* * *

Benomuslar kelgan o'ynab-kulgani.

* * *

Halol luqma nur bag'ishlar ko'zlarga.

* * *

Halolga hisob bor, haromga azob.

* * *

Dilingda yo'q so'zni tilga keltirma.

* * *

**Odam bor, bir so'zing olamga yoyar,
Odam bor, hatto soyasiga aytmash.**

* * *

Yashamas el ichra uzoq yolg'on so'z.

* * *

**Umidsiz qolmaydi so'rigan marddan,
Tilama, bitmaydi ishing nomarddan.**

* * *

**Gap topib, yaxshi so'zlagan
Misoli dur sochgandekdir.**

* * *

**Yomon yaxshi bo'lmas hech on,
Asli yaxshi bo'lmas yomon.**

* * *

Boshga nima kelsa, tilingdan kelar.

* * *

Yaxshilar yonida yurgil sen o'zing,
Dur bo'lsin doimo so'zlagan so'zing,
Olimga yondashsang, ochilar ko'zing,
Johilga yondashsang, ko'rdek bo'larsan.

* * *

Nodon yaxshi qadrin bilmas.

* * *

Ayriliq — o'limdan achchiq.

* * *

Nomard kimdir? Bilar bo'lsang,
Ne desang, der: "Bosh ustiga!"
Agar sinab ko'rар bo'lsang,
Hech topilmas ish ustida.

* * *

Odam bor, har qancha yedirsang ozdir,
Odam borki, yegan noniga yetmas.

* * *

Sinamay bilmaydi kishi kishini.

* * *

Yuz nomard joyini bosmas bir mardning
Chekar tashvishini mard el-u yurtning.
Qilgan qiling'ini ko'ring nomardning:
Jangmi deya qochar tuman uchrasa.

* * *

Mard kutar mehmonni ochiq yuz bilan,
Nomard qochib qolar mehmon uchrasa.

* * *

Ezma odam bilan o'tirib-turma,
Sira nomard bilan so'z-suhbat qurma,
Qadrdon do'stingdan yuzing o'girma,
Borsang, boshi uzra toj etar seni!

* * *

Kishi moli nasib etmas o'g'riga.

* * *

O'ng qo'lim chap qo'lga muhtoj aylama.

* * *

Achchiq so'zlar dildan chiqqan bir o'qdir.

* * *

Nomard ko'prigidan aslo kechmanglar,
G'arq bo'lib, daryoda o'lgan yaxshidir.

* * *

Yolg'onchi — Xudoning dushmani derlar,
Ammo o'z o'mida yolg'on yaxshidir.

* * *

Motam bo'lgan joyda kulmoq yarashmas,
To'y-u tomoshada kulgan yaxshidir.

* * *

Nomard odam yo'ldoshiga qarashmas.

* * *

Pashsha deya berma ozor, pashshaning-da joni bordir.

* * *

Yaxshilikni umid etma yomondan.

* * *

Bir yomon so‘z jonga ilon nishidir,
Chaqsa, zahri oson chiqmas taningdan.

* * *

Joyin topsa, chumoliday past dushman
Arslon bo‘lib, judo qilar shoningdan.

* * *

Yomon o‘z fe’lidan topar.

* * *

Tagi pastda aql bo‘lmas, dard bo‘lmas,
Ming tulkida bir bo‘richa shahd bo‘lmas,
Nomard kimsa butun umr mard bo‘lmas,
Ming ta’rif-u tavsif qilmoq bilan-ey!

* * *

Odam bolasiga moldan to‘yim yo‘q,
Yaxshi kiyib, yaxshi yemoq bilan-ey!

* * *

Egasiga hurar yomon it qurg‘ur.

* * *

Sabrsizning ishi yitar,
Sabrlining ishi bitar,

* * *

So‘z yarasidan qochaver,
Tig‘ yarasi bitar-ketar.

* * *

Yo‘ldosh bo‘lsang oqil bilan,
Xizmat qilar ko‘ngil bilan,
Ishing tushsa johil bilan,
Dasht-u toqqa otar-ketar.

* * *

Ketgan qaytmas yo‘lidan,
Yomon kechmas fe‘lidan.

* * *

Kitob ko‘rgan kishi ma’nidan to‘qdir,
Ma’rifatli qalbda shayton bo‘larmi?

* * *

So‘zlamayin fosh bo‘lmassan.

* * *

G‘ofilligi bois aldanar nodon.

* * *

El kezib, to‘ymaydi ko‘zi gadoyning.

* * *

Nafsing pashsha bo‘lsa, mol xuddi boldir.

* * *

Iqboling uyg‘onsa, davlat yor bo‘lsa,
Toqqa tishing ursang, toshni sindirar.
Toleying ters kelsa, baxting sho‘r bo‘lsa,
Hatto yumshoq holva tishni sindirar.

* * *

So‘zlariga quloq solgil bilganning,
Oxiri hech yerga yetmas yolg‘onning,
Umri uzun bo‘lar olqish olganning,
Qarg‘ish ko‘kartirmas, yoshni sindirar.

* * *

Johil uchun yaxshidir
Mol o‘rniga bosh ketsa.

* * *

So'zning ma'nosiga yetmas har kishi.

* * *

Har bir qilgan ishlaringga
Hisob so'rар dunyodir bu.

* * *

Kimningki badbaxtlik tabiatida,
Butun olam ojiz tarbiyatida.

* * *

Daladagi suvsiz ariqqa o'xshar,
Har kimning saxovat-xayri bo'lmasa.

* * *

To'qson xil osh-ovqat bo'lsa qoshingda,
Lazzat yo'q, ichida tuz ham bo'lmasa.

* * *

Bahorga yetganda, unutma qishni.

* * *

Odam bo'lib, odam qadrin bilmasa,
Undan ko'ra o'tlab yurgan mol yaxshi.
So'zlaganda so'z ma'nisin bilmasa,
Undan ko'ra so'zlamagan lol yaxshi.

* * *

Minnatli osh achchiq bo'lar zahardan.

* * *

Boshi-oxiri yo'q ming quruq gapdan,
Bir shuvillab o'tadigan yel yaxshi.

* * *

Ahmoqqa dunyoning moli yaxshidir.

* * *

Aqling bo'lsa, yaxshilarga hamdam bo'l,
Ahmoq o'zin nodon bilan yor aylar.

* * *

Moli ko'p deb, mehmon bo'lma nomardga,
Mard kambag'al bo'lsa hamki, bor aylar.

* * *

Mard yigit mol topsa, himmati ortar,
Nomardga pul tushsa, ko'nglin tor aylar.

* * *

Oz so'zlashni o'zingga bil fazilat,
Ko'p so'z seni el ichida xor aylar.

* * *

Qo'ldan kelar yaxshi ishing bo'lmasa,
Ko'ngil ichra yaxshi niyat yaxshidir.

* * *

Qanoat qil, izzatda tut o'zingni,
Tama bilan sarg'aytirma yuzingni,
Har nomardga hayf aylama so'zingni,
So'zingning binosin yiqqancha bo'lmas.

* * *

Ko'ngli qora bilan bo'l manglar ulfat,
Yuqar undan turli-tuman kasofat,
Ko'mirga har qancha aylasang izzat,
Manglayga qorasi yuqqancha bo'lmas.

* * *

Yomon til oldida zaharli ilon —
Chaqsa-da, bir chivin chaqqancha bo'lmas.

* * *

Yomon qiliq do'stni dushman qiladir.

* * *

Sabrsiz qul tez yo'liqar baloga,
Sabrli qul bora-bora shod bo'lar.

* * *

Yaxshining do'sti ko'p, yomon beqardosh.

* * *

Har yigitning aslin bilay desangiz,
Davrada o'tirib-turishin ko'ring.
Birov bilan oshno bo'lay desangiz,
Avval o'z ahdida turishin ko'ring.

* * *

Mard har ish tushsa ko'rар Xudodan,
Nomardning hamrohdan ko'rishin ko'ring.

* * *

Nomard yurar mudom o'limdan qochib,
Uyiga kelganda zahrini sochib,
Mard yigit mehmonga ko'ksini ochib,
Nomardning uyidan qochishin ko'ring.

* * *

Mard yigitning ishi suhbat — soz bo'lar,
Ko'ngli qish bo'lmayin, doim yoz bo'lar,
Yaxshining ko'nglida gina oz bo'lar,
Yomonning har kuni urushin ko'ring.

* * *

Yigit uldir — so'zga aylasa amal,
Qo'ldan kelmas ishga etmasa jadal.

Ergash Ochitov tarjimasi

MUNIS

(1778 — 1829)

* * *

Xil'ati¹ himmat sanga, Munis, bas ermasmu ko'rub
Bo'lma mahzun jomai² zarbaft har dun³ ustida.

* * *

Har kimnikim ko'rarmen erur justujo⁴ ishi,
Bu olam ichra bir kishi yo'qdur farog'da⁵.

* * *

Har ishda tezlik qilmoq na hojat, ey ko'ngul, ko'rkim,
Quyosh yerdin qilur azmi samo ohista-ohista.

* * *

Ulusg'a, eyki, g'oliblik tilarsen,
Burunroq ayla o'z nafsingni mag'lub.

* * *

Shakar yanglig⁶ jahon ahlig'a shirinkomlik⁶ yetkur,
Hujum etsun desang ustingda andoqkim magas⁷ ahbob⁸.

¹ Xil'at — kiyim, libos.

² Joma — to'n, chopon.

³ Dun — past, tuban.

⁴ Justujo' — izlash, qidirish.

⁵ Farog' — xotirjam, osuda.

⁶ Shirinkomlik — og'izning shirin bo'lishi.

⁷ Ahbob — do'stlar.

* * *

Davlatingdur gar nasib o'z sarvat¹ johing qilur,
Nedur ochmog'liq tama ilgin kishi molin ko'rub.

* * *

Hayo-yu adab, iffat-u rostlig'
Agar bo'lsa, doim ishingdur tarab.

* * *

G'urur etma aslingg'a, qil kasbi fazl,
Erur mo'tabarroq nasabdin hasab².

* * *

Xushturur xoni qanoat aro yavg'on umoch³,
Bo'lmasa bo'lmasun oltun tabaqu anda palov.

* * *

Ikki zid bir yerda jam o'lmoq erur amri mahol,
Kel, jahondin yo tama uz, oxiratdin yo umid.

* * *

Emas mard turg'ONNI yiqlsa kishi,
Agar kelsa qo'ldin yiqlg'ONNI turg'uz.

* * *

Ahli donish birla har dam aylangiz bazmi kitob,
Jam'i nodonlar bila izhori ulfat qilmangiz.

* * *

Do'st uldurkim, yomon kun yuz evurmas do'stidin.

* * *

Berma bedorlig' asbobini ilgingdinkim,
O'kush ogohni g'aflat sari uyqu chekti.

¹ Sarvat — boylik, davlatmandlik.

² Hasab — qadr, ulug'lik, sharaf.

³ Umoch — taom nomi.

* * *

Bulbul navosi mumkin emas qarlug'ochdin¹.

* * *

Nasabdan sud yo'q, sud istasang, qil ma'rifat hosil,
Dema zinhor Muniskim, falon o'g'li falondurman.

* * *

Sham ravshanroq bo'lur har necha bo'lsa shab² qaro.

* * *

Davlating boridadurlar barcha olam oshno,
Qatg'ach davlat jahonda topilur kam oshno.

* * *

Yaxshi ot qozg'onki, uchmoq istasa ruhing sening,
Garchi bu foni³ aro bo'lg'ung fano⁴, topg'ung baqo.

* * *

Xanjar bila zaxm sol, va lekin
Til birla yeturmagil jarohat.

* * *

Yaxshi-yu yomon hodisadin emin emasdur,
Oltung'a o't-u toshqa qilur tesha muloqot.

* * *

Garchi zohirda barcha do'stdurur,
Bo'lma eminki, dushmanim yo'qdurur.
Yaxshi qilsang nazar jahon eliga
Joningga xasm do'sting-o'qdurur.

* * *

Dono hargiz qilmadi nodon bila bahs.

¹ Qarlug'och — qaldirg'och.

² Shab — tun.

³ Foni — yo'qolish, mahv bo'lish.

⁴ Fano — o'lish, yo'q bo'lish.

AMIRIY

(1787 – 1822)

* * *

Istar ersang dahrchin jam’iyati xotir, Amir,
Ushbu olamdin havo birla havasdin ori o’t¹.

* * *

Ko‘p haris o‘lma jahon lazzatig‘a,
Komni² achchig‘ etar safrodek³.

* * *

Rahi⁴ maqsud agar masduddur⁵ uzma umid andin,
Yuzunga bu eshik bog‘lansa, paydodur kushodi⁶ ham.

* * *

Bir nafasdin ortuq ermastur suv ustida hubob⁷.

* * *

Istasangkim, sanga tole o‘la xurshidi visol,
Sayli⁸ g‘am yetgonida tog‘ kabi ayla sabot.

¹ Oru o‘tmoq — qutulmoq, xatos bo‘lmoq.

² Kom — og‘iz, tanglay.

³ Safro — o‘t xaltasidagi sarig rangli achchiq suyuqlik.

⁴ Rah — yo‘l.

⁵ Masdud — band, bog‘liq, to‘silgan.

⁶ Kushod — 1) ochiq, yechilish; 2) omad, muvaffaqiyat; 3) imkoniyat, osonlik.

⁷ Hubob — suv yuzida paydo bo‘ladigan puffakcha, ko‘pik.

⁸ Sayl — sel.

* * *

Tome¹ o'lma gar aziz o'lmoq xayolin istasang,
Gul topilg'onda tamannoyi² tikon qilmoq nadur?

* * *

Har sadafda duri shahvor³ o'lmas.

* * *

Bog' aro gul vaslidin mahrum emastur xor-u xas.

* * *

Ahli dunyo majlisida qilma arzi ehtiyoj,
Har necha muhtojsen olamda, istig'no⁴ kerak.

* * *

Oqil uldurkim, jahon asbobig'a bermas ko'ngul,
Kimsa andin ko'rmadi ranj-u mashaqqatdin bo'lak.

* * *

Tarbiyat qilg'on bila badasl⁵, bo'lmas odamiy,
Ipni yuz alvon ila rang etsa, bo'lmastur ipak.

* * *

Bir ko'ngul ozoridin bo'ldi jahon zer-u zebar⁶,
Ko'p dilozor o'lma, girudordin⁷ andisha qil.

¹ Tome' — tama qiluvchi, tamagir.

² Tamanno — istak, xohish.

³ Duri shahvor — qimmatbaho dur.

⁴ Istig'no — bu yerda: izzati nafs.

⁵ Badasl — tagi past, zoti past, tuban.

⁶ Zer-u zebar — ostan-ustun, notinch.

⁷ Girudor — jang, olishuv.

NODIRA

(1792 – 1842)

* * *

Ey falak, qaysi quyosh yuzlukni har kun charx uza
Jilvagar qildingki, oxshom yerga pinhon etmading?

* * *

Elni aybini zohir etmog'lig'
Yo'qtur insof ila muruvvatdin.
Ulki, el aybini qilur pinhon,
Tangri saqlar ani har ofatdin.

* * *

Jamshidg'a¹ ham aylamadi jom vafo.

* * *

Bo'lur sabr etsang achchig' g'o'rardin shahd-u shakar
paydo.

* * *

Xusho oqilki, aylab yaxshiliq bunyodini mahkam,
O'tar bu dayri fanodin² o'zini neknom³ aylab.

* * *

Muhabbatsiz kishi odam emastur,
Gar odamsen muhabbat ixtiyor et.

¹ Jamshid — qadimgi Eronning afsonaviy podshohi. U «Jomi jahonnamo» — jahonni ko'rsatuvchi jom ixtiro qilgan bo'lib, unda dunyodagi nafaqat hozirgi, balki o'tmishda yuz bergan va kelajakda sodir bo'ladigan voqeahodisalar ham aks etgan.

² Dayri fano — o'tkinchi dunyo.

³ Neknom — yaxshi nom chiqargan.

* * *

**Maqsad na edi jahona kelding?
Kayfiyatini bayon etib ket.**

* * *

**Qilmag‘il zinhor izhor ehtiyoj —
Kim, aziz elni qilur xor ehtiyoj.**

* * *

**Hech kim olamda forig‘bol¹ emas,
Har kim o‘z miqdoricha bor ehtiyoj.**

* * *

**Gar ersa Ka’ba ta’miri muroding,
Ko‘ngul vayronasini qilg‘il obod.**

* * *

Yo‘qturur dunyoda insondin aziz.

* * *

**Adab elni baland iqbol aylar,
Tavozu’din erur ko‘z ustida qosh.**

* * *

Har kimsa o‘z munosib ishin ixtiyor etar.

* * *

**El yaxshi-yu yomoni bila bo‘lmasun ishing,
Qilg‘il o‘zungni yaxshi-yu yomoniningni ehtiyot.**

* * *

**Mulzam qilib birovni, yana to‘kma qonini,
Majlisda ayla tig‘i zaboningni ehtiyot.**

¹ **Forig‘bol** — xotirjam, ko‘ngil tinch, betashvish.

* * *

So'z bila so'zni tafovutlari bor,
Teng emas qadrda dur birla xazaf¹.

* * *

Erur badxohlarning² guftigo'yi³ barcha bema'ni.

* * *

Farzand mehri eltar g'am zangini ko'nguldin.

* * *

Badxohlar hamisha olamda xor bo'lg'ay.

* * *

Ayturg'a arzimaydur olamni mojarosi.

* * *

Ish boshqa-yu, jur'at haqida lof urish boshqacha.

* * *

Shunga sa'yi harakat qilginki, yaxshilik bilan noming
chiqsin, dunyoda yaxshi nom — kishining yaxshi asari
bo'lib qoladi.

* * *

Karam-u ehsoning dasturxoni salomat bo'lsa, xaloyiq
pashshadek u shakarga yuguradi.

* * *

Ittifoqlik bilan birikkan barmoqlar qilichning ishini qila-
dilar.

* * *

Musht qilingan panja xayr-u ehson fayzidin mahrum.

¹ Xazaf — sopol.

² Badxoh — yomonlik xohlovchi, niyati buzuq.

³ Guftugo' — suhbat, gaplashish, nutq.

* * *

Ilonning og'ziga barmoq tekizish yaramaydi.

* * *

Baland martabali bo'lishni xohlasang, ko'nglingni sof qil, gavhar tiniqligidin shohlar tojidin o'rinn olgan.

* * *

Har bir mushkulning oxiri osonlikdir.

* * *

Kamtarlik — bir ulug' ism bo'lgani uchun dillardin joy oldi.

* * *

Mashaqqatga sabr qil, maqsad gulshanining eshiklari shu yo'l bilan ochiladi.

* * *

Kishilarni o'ziga band qilishning karam va ehsondan chiroyliroq nusxasi yo'q, shu bilan bir jahonni ko'ngil domiga ilintirib bo'ladi.

* * *

Noahil kishining suhbati ham tabiatga yukdir.

* * *

Fursat etagini qo'ldan berma, ish vaqtি o'tgandan keyin doj bo'lmaydi.

MUHAMMADRIZO OGAHİY

(1809 – 1874)

* * *

Ilm andoq ganji nofe¹ dur' bani odamg'akim,
Kimda ul bo'lса, iki olam bo'lur obod ango.

* * *

Kasbi ilm etmay kishi gar qolsa mahzi² jahl³ ila,
Ikki olam obro'si bo'lg'usi barbod ango.

* * *

Maoni⁴ bog'ini dono qilur sayr,
Qachon qilg'ay oni nodon tamosho.

* * *

Jaholat bir davosiz dard erur johilg'a bilgilkim,
Quloq solmas iloj dardig'a gar ochsa Luqmon⁵ lab.

* * *

Odamidur ilmu donish birla odam, yo'q esa
Jumlai hayvong'adur yakson⁶ qadu ruxsoru lab.

¹ Nofe' — foydali, manfaatli.

² Mahz — 1) xolis, sof; 2) yolg'on, faqat, birgina.

³ Jahl — 1) bilimsizlik, nodonlik; 2) g'aflat, jaholat.

⁴ Maoni — ma'nolar.

⁵ Luqmon — kayoniy shoh Kayqubod davrida yashab o'tgan mashhur tabib va donishmand. Rivoyatlarga ko'ra Luqmoni hakim ming yosh ko'rigan bo'llib, Olloh u zotga narsalar va voqeа-hodisalarning mohiyatiga yetish va eng to'g'ri hukm chiqarish qobiliyatini ato etgan.

⁶ Yakson — teng, barobar, bir xil.

* * *

Gar dahr elidin olsang o'lmakka yetib bir non,
Bir lahza qutulmassan o'lguncha chekib minnat.

* * *

Fazl ahlig'a hamsuhbat bo'lmoqg'a ibo qilma —
Kim, bo'lg'usidur jahling ortorg'a ibo bois.

* * *

Ravshan tilasang xotir tarki havas etkim, ul
Ogahiy, erur ko'nglung bo'lmoqg'a qaro bois.

* * *

Gar oqil ersang siym-u zar jam'ig'a g'arra¹ bo'lmakim,
G'aflat bila ko'b kimsani qilmishdurur mag'rur ganj.

* * *

Fosh etma ko'nglung sirlini emn istasang olamnakim,
Ko'b fitnaga bois bo'lur gar bo'lmasa mastur² ganj.

* * *

Bo'lmas qanoat ahlida har dung'a ehtiyoj.

* * *

Oqil ersang bo'lmos'il g'arra jahon lazzotig'a
Ul sifatkim, tifllar³ ko'rsa bo'lur xursand qand.

* * *

Chin tama birla agar olding biravdin bir diram,
To qiyomat begumon bilgil onga bo'lding asir.

Bir diram har kimga gar in'om qilding, to abad
Ul saning ma'muring⁴ o'ldi, san onga bo'lding amir.

¹ G'arra — g'urur, mag'rurlik.

² Mastur — bu yerda: yashirin, pinhon, mahfiy.

³ Tifl — go'dak, bola.

⁴ Ma'mur — bu yerda: mute, itoatkor.

* * *

Aziz o'Imoq agar istar esang ahli jahon ichra,
Qanoat aylakim, ul rutba osori¹ qanoatdur.

* * *

Ey ko'ngul, odam xayol aylab, dema nodong'a so'z,
Chunki ul inson emas, topsang degil insong'a so'z.

* * *

So'zdur inson ko'nglida bir gavhari qiymatbaho,
Oni xor etma debon har hushi yo'q hayvong'a so'z.

* * *

Bilmagan o'z qadrini, ne bilgusi so'z qadrini,
Hayfdur dono demak nodon-u beirfong'a² so'z.

* * *

So'ziga boq agar bilmak tilarsan kimsa ahvolin —
Ki, asrori nihoni suratig'a keldi mazhar³ so'z.

* * *

Gar parvarish etsang joni shirin berib af'ig'a,
Komida oning zahri bir zarracha oz o'lmas.

* * *

Talab yo'lida azm aylar kishida bo'lsa gar ixlos,
Murodi manzilig'a bo'lg'usidur rohbar ixlos.

* * *

Kamol ahli aro, albatta, topg'ay rutbai oliy,
Maoniy kasbida har kimsakim qildi hunar ixlos.

¹ Osor — bu yerda: belgi, nishon, alomat.

² Beirfon — bilimsiz, ma'rifatsiz.

³ Mazhar — 1) ko'rinish, zohir bo'lish; 2) aks.

* * *

Ko'ngul, ixlosing o'lsa, hech ranjing bo'limg'ay zoye
Ki, hargiz qolmamish sa'y-u talabda beasar ixlos.

* * *

Voqif o'l, o'tkarmagil behuda umringkim, oning
Bir kuniga bo'lmoq'oy dunyo-u mofihon¹ evaz.

* * *

Shak yo'qtururki, zahrdin oxir bo'lur halok,
Har g'ofileki, qilsa yilon birla ixtilot².

* * *

Yaxshidur o'lsa yaxshi bilan muxtalit yomon,
Yaxshi yomondur etsa yomon birla ixtilot.

* * *

Tilasang yaxshi ot, ey Ogahiy, tarki tama et —
Ki, jahon ichra qilur kimsani badnom tama.

* * *

Yaxshiroq nodon ulus toj etkanidin boshug'a
Ahli donishning ayoqi ostida mankubluq³.

* * *

Aylamak tama eldin xorliqg'a mujibdur⁴,
Aylaguncha xor o'zni zahr icharga jur'at qil.

* * *

Istasang mute o'lmoq gar sanga jahon ahli,
Xulqi xush bila doyim xayr ila saxovat qil.

¹ Dunyo-u mofihon — dunyo va undagi barcha narsalar.

² Ixtilot — aloqa, aralashish.

³ Mankubluq — ezilish, toptalish.

⁴ Mujibdur — sabab, bois.

* * *

Ey ko‘ngul, yaxshilig‘ni qil pesha —
Ki, yamonlig‘ erur yamong‘a jazo.

Kimki tark aylasa yamonlig‘ni,
Bo‘lur, albatta, yaxshilig‘g‘a sazo.

* * *

Har kishikim tashqari qo‘ysa qadam o‘z haddidin,
Etmayin maqsudig‘a sharmandai olam bo‘lur.

* * *

Inson aro nodonni biling hayvondur,
Hayvon necha zo‘r aylasa, odam bo‘lmas.

* * *

Qilmoq bila parvarish tikan gul bo‘lmas,
Ham tarbiyat ila zog‘ bulbul bo‘lmas,
Gar asli yomong‘a yaxshiliq ming qilsang,
Yaxshiliq oning niyati bilkull¹ bo‘lmas.

* * *

Badtiynat² ulus bum³ kibi shumdurur,
Tarbiyat angakim etsa mazmumdur⁴,
Zaqqum⁵ niholi ichra gar obi hayot,
Oxir berajak mevasi zaqqumdurur.

* * *

Hayosizdin aslo vafo istama,
Vafosizdin aslo hayo istama.

¹ Билкүлл — бутунжай, тамомила.

² Badtiynat — yomon tabiatli, yaramas, tuban.

³ Bum — boyqush, boyo‘g‘il.

⁴ Mazmum — yomon.

⁵ Zaqqum — zahar daraxti.

BERDAQ

(1827 – 1900)

* * *

Tug‘ildingmi — xizmat qilgin el uchun,
Joningni ayama elda er uchun,
Kindik qoning tomib, tuqqan yer uchun
O‘lib ketguningcha xizmat yaxshiroq!

* * *

Tong-sahar uyg‘onib, yumushga chiqib,
Qo‘lingni qavartib, belingni bukib,
Tizzangni qaqqhatib, mehnatin chekib,
Yegan bir zog‘orang boldan yaxshiroq!

* * *

Teran aql kerak so‘zni tizmoqqa,
Tiniq xayol kerak barin sezmoqqa.

* * *

Nafsin o‘raday ochgani —
Bor obro‘ning qochgani.

* * *

Baxt bo‘lmasa, ko‘p umrni netayin.

* * *

Yigit bo‘lsang arslon kabi tug‘ilgan,
Har doim sen qilgin xizmat xalq uchun.

* * *

“O‘zim!” deb ishlagan — aqliga zoyil¹.

* * *

El oralab yurgan sayog‘-u soyil²
Yumush qilmas hech qachon ham xalq uchun.

* * *

Aqlsizning xosiyati oz kelar,
Ahmoqlar hech xizmat qilmas xalq uchun.

* * *

Oqil inson so‘z keltirmas o‘ziga.

* * *

Yaxshi odam yurmas fosiq so‘ziga.

* * *

Yaxshining uyiga odam ko‘p kelar,
Yomon odam ich-ko‘zini yeb kelar.

* * *

G‘o‘ch³ yigitga madad bersa elati,
Kun-kundin ortadi aning quvvati.
Tillarda qoladi yigitlik oti,
Xolis xizmat qilsa agar xalq uchun.

* * *

Qayg‘uda ko‘rganda do‘sning nazarin,
Qo‘ldan kelsa, qurgin shodlik bozorin.

¹ Zoyil — yoq bo‘lувчи.

² Soyil — gado, tilanchi.

³ G‘o‘ch — mard.

* * *

Yomon odam bilmas so‘zning farqini,
G‘iybat qilib yurar do‘st-u xalqini,
Chiqarsam deb bir o‘zining dong‘ini,
Har bir ishda ziyon qilar xalq uchun.

* * *

Yaxshi odam so‘z ma’nisin anglaydi,
Yomon odam fisq-u fujur tinglaydi.

* * *

Dushmanlik ishidan yo‘qdir naf, ma’no,
Ahil, hamdam bo‘lgan baridan a’lo.

* * *

Xor bo‘lmas yaxshining so‘zini olgan.

* * *

Yaxshidan chiqqan so‘z yo‘qolmas zinhor.

* * *

Qoshingda yursa bir yomon,
Ziyonati¹ tegar oson.

* * *

Yomon uchun tushma o‘tga,
So‘zin olib, ketma yotga.

* * *

Borning ishi farmon bilan,
Yo‘qning ishi armon bilan.

¹ Ziyonat — ziyon, zarar.

* * *

Sulton bo'lma g'ayri elda,
Cho'pon bo'l tuqqan yeringda.

* * *

Johillardan olma hech vaqt omonat,
Ko'tararsan oxirinda yomon ot.

* * *

Do'st sirini yovga aytma,
El buzuvchi bo'ladirsan.

* * *

Yigitni o'ldirar nomus.

* * *

Dunyo deb Yugurar o'lguncha banda.

* * *

Ka'bang sening ota-oni,
Undan ulug' zot bo'lmaydi.

* * *

O'nglamasa haq ishingni,
Bulamiq¹ sindirar tishingni.

* * *

Shaytonni quvganday jannat-rizvondan,
Har kim topar o'z fe'lindan — zabondan.

* * *.

Mard bo'lgan va'dada turar,
So'zni buzganni ont urar.

Muzaffar Ahmad tarjimasi

¹ Bulamiq — taom turi.

YUSUF SARYOMIY

(1840 – 1912)

* * *

Yorni ag‘yorsiz dahr ichra hargiz topmadim,
Shahdni — bezahr, lutfni — begahr, ganjni — beajdaho.

* * *

Bo‘lma toat birla emin, jurm birlan noumid.

* * *

Umrni bormoqlig‘i kishtida¹ o‘lturg‘on kabi
Ko‘rinur, ammo otilg‘on tir² yanglig‘ purshitob³.

* * *

Jahldin nomus qil, nodonlig‘ingdin or tut.

* * *

Ko‘p quvonma, ko‘rmisham deb necha oy-u yil hayot,
Sud yo‘qtur, yuz muningdek bo‘lsa behosil hayot.

Kelmagu ketmak guzargohida⁴, ravshan bil muni,
Qanchakim umring kechar, bir lahzalik manzil hayot.

* * *

Kim bo‘lib mag‘ruri dunyo, ahli dilni og‘ritur,
O‘z zamonining o‘shal Fir‘avn⁵ ila Homonidur⁶.

¹ Kishti — kema.

² Tir — o‘q.

³ Purshitob — o‘ta tez.

⁴ Guzargohida — o‘tadigan joy, yo‘l.

⁵ Fir‘avn — Misr hukmdori.

⁶ Homonidur — Fir‘avnning vaziri.

* * *

Sen gumon etma baqo bor, deb jahon ayvonida,
Bil yaqin, avvalda foniy erdi, oxir fonidur.

* * *

Bas, ko‘rub aldanmagil oroyishi dunyo uchun,
Bu havo i nafs-xohishlar bori shaytonidur.

* * *

Barcha nafsin komini istarda jon aylar talosh.

* * *

Gul deb, bu bog‘ ichra tikong‘a suv bermag‘il,
Kirgay qo‘lung(g)a, tarbiyati xor qilmag‘il.

FURQAT

(1859 — 1909)

* * *

Kerak odamga qilg'oy ilm hosil,
Jahondin o'tmagay to mahz johil¹.

* * *

Jahon bastu kushodi² ilm bila,
Nadur dilni murodi ilm birla.

* * *

Ko'ngullarni sururi ilmdandur,
Ko'rар ko'zlarni nuri ilmdandur.

* * *

Kerak har ilmdin bo'lmoq xabardor,
Bo'lar har qaysi o'z vaqtida darkor.

* * *

Kimikim bo'lsa donishmand-u oqil,
O'la ilm-u hunarg'a ko'ngli moyil.

* * *

Emish har elg'a qadri ilm bolo³,
O'la olim maqomi baski a'lo.

¹ Mahz johil — o'ta johil.

² Bastu kushod — bog'liq va ochiq.

³ Bolo — baland, yuqori.

* * *

Kishikim ilm-u fandin boxabardur,
Xaloyiqqa baqadru mo'tabardur.

* * *

Tiriklikda kishikim qilsa har kor,
Ani osonlig'ina ilm darkor.

* * *

Jahon ravshan ziyoyi ilmdandur,
Ko'ngul sofi safyozi ilmdandur.

* * *

Chirog' o'lsa agar har kim qo'lida,
Xatar bo'lmas qarong'uda yo'lida.

* * *

Kimekim mard erur, insof lozim,
Bilurga so'z durin sarrof¹ lozim.

* * *

Jadal birla kishi maqsudig'a yetgan emas, ore,
Bo'lur vaqt bilan har nav kor ohista-ohista.

* * *

G'ofilni suhbatidin jon boricha qochinglar,
Do'zax aro chunonchi ma'vo qilib bo'lurmu?

* * *

Malul² bo'lma, jahon xoli qolurmi hech rasolardin.

* * *

Rasolig' orzu aylab, kamola gar yetay dersan,
Taarruz³ aylama ham shikva qilma norasolardin⁴.

¹ Sarrof — pul almashtiruvchi, pulning asl yoki soxtaligini aniqlovchi.

² Malul — g'amgin, xafa, ranjigan, ozor chekkan.

³ Taarruz — e'tiroz, qarshilik.

⁴ Norasolardin — nuqsonli, zaif.

MUHSINIY

(1860 – 1917)

* * *

Ko'ngul olmoq fikrin et, andin bo'lak bekordur.

* * *

Daraxti mevalig'dek odamiy bog'i jahon ichra,
Anga yetmas havodiskim, o'lursa xayr-u ehsonlig'.

* * *

Afv etar Tangri, gunohing bo'lsa misli ko'hi Qof,
Lek kechmaydur gunohing kibr-u dilozorlig'.

* * *

Umr naxli¹ ilmdin sarsabz² o'lur,
Jahl bodi sarsari³ aylar xazon.

* * *

Bu jahon foni erur ham besabot⁴,
Ilm-u irfondur hayoti jovidon⁵.

* * *

Jahl go'yoki yag'ochi xushk⁶ erur,
Ilm-u donishdur daraxti bosamar.
Naf ko'rguzgay iki dunyoda ham,
Jahl-u nodonlig' erur jong'a zarar.

¹ Naxl — daraxt, nixol.

² Sarsabz — yashab turgan.

³ Bodи sarsari — kuchli shamol, quyun.

⁴ Besabot — beqaror, o'tkinchi.

⁵ Jovidon (Jovid) — abadiy, mangu, doimiy.

⁶ Xushk — quruq.

* * *

Jahldin torik¹ o'lur ko'ngul uyi,
Ilm-u irfon — lam'ai nuri xudo².

* * *

Izzati dunyo, sharofat uqboda³,
Ilm-u donish obro'yi du⁴ jahon.
Yoshlig⁵ umrini sarfi ilm eting.
Ketmasun umri azizing roygon⁵.

¹ Torik — qorong'i, zulmat.

² Lam'ai nuri xudo — Haq nurining shu'lasi.

³ Uqbo — u dunyo, oxirat.

⁴ Du — ikki.

⁵ Roygon — tekin, must.

HAZINIY (1867 – 1923)

* * *

Oqil-u donoda yo'qtur zarracha aysh-u huzur,
Bu jahon nash'-u namosin so'rsa, nodondin topar.

* * *

Ikki dunyoni topay deb, har kishi qasd aylasa,
Oliyhimmat bo'lsa har kim, xayr-u ehsondin topar.

* * *

Agar dunyo vafo qilsa, nabiylarga¹ qilur erdi.

* * *

Haziniy, barchaga ibrat erur, moh² ila xurshidning,
Turub olam yuzinda, botmayin hargiz iloji yo'q.

* * *

Tiriklik bir bahoredur, ochilg'ay rang-barang gullar,
Yetib kelgay xazoni, aylanib bir vaqt bo'lmashin.

* * *

Siz ani odam demang, ko'nglida himmat bo'lmasa.

¹ Nabiyl — payg'ambar.

² Moh — oy.

* * *

Qoni¹ bo'lsa qatra naysonga, sadaf durr bo'lg'usi,
Badnihode² qolg'usi, anda qanoat bo'lmasa.

* * *

Hotami Tay³ kofir erdi, kuymadi do'zaxda, bil,
Kuydurur erdi Egam, anda saxovat bo'lmasa.

¹ Qoni — qanoat qiluvchi, rozi bo'luvchi.

² Badnihod — yomon tabiatli.

³ Hotami Tay — saxiyligi bilan mashhur bo'lgan arab qabila boshliqlaridan biri. Tay qabilasidan bo'lganligi uchun Hotami Tay deb dong taratgan.

AVAZ O'TAR

(1884 – 1919)

* * *

Taraqqiy aylamak lozim jahon ahli bo'lub bir tan,
Bilurga borchha ilm ila hunarni yashasun millat!

* * *

Fido millat yo'lig'a mol-u jon etmak kerak, har kim –
Bo'lay desa, agar avlodi mashhuri jahon millat.

* * *

Judolikning har bir kuni qiyomat.

* * *

Jahonkim, suv ustidadur bir hubob,
Nechuk anda el bo'lg'usi komyob¹.

* * *

Olam gulistoni aro, ey dil, uqolat² ahlig'a –
Ko'runga ermasdur ajab, gar chehrai nodon sovuq.

* * *

Oqil kishiga yaxshidur zindonda sokin bo'lg'ali,
O'Iturg'anidin hamdam-u damsoz³ o'lub nodon ila.

¹ Komyob — baxtli, toleli, davlatli.

² Uqolat — oqillar.

³ Damsoz — hamdam, sirdosh, hamdard.

* * *

Ixtiyor etma qo'lingdin kelmas ishni dahr aro —
Kim, nedin ta'n-u malomat el qilur beorg'a.

* * *

Hirs ila ganj asramoq qilma havas af'i sifat,
Zahr etib komingni, jismingni qilur ranjuri¹ ganj.

* * *

Dahr izzu johig'a², ey kimsa, mag'rur o'lmakim,
Gar baqo bo'lsa anga Jamshid-u Iskandar³ qani?

* * *

Bir kuni rohat bila topg'ay farah⁴, bil, ey ko'ngul,
Har kishi gar bo'lsa olam ichra mehnatdin malul.

* * *

Ey Avaz, har kim o'ziga sabrni qilsa shior,
Shaksizin yetgusidur maqsudida olam aro.

* * *

Oqil ersang, qilmag'il ahli xasosatdin⁵ tama
Qilg'on ehsoni alarni minnatig'a arzimas.

* * *

Kim ersa agar jahon aro himmatlig',
Bil oni hamisha baxtlig'u davlatlig'.
Himmatli kishi topib murod o'lsa dog'i,
Hotam kibi doim o'lg'usi shuhratlig'.

¹ Ranjur — dardmand, ezilgan.

² Izzu joh — izzat va martaba.

³ Iskandar — makedoniyalik mashhur sarkarda Aleksandr Makedonskiy.

⁴ Farah — shodlik, xursandchilik.

⁵ Xasosat — xasis, bahit.

* * *

Ey kimsa, hamisha qilma izhor tama,
To qilmasun oqibat sani xor tama.
Kaj anglab aning komi dilin, gardundin —
Hech aylamagay oqil-u hushyor tama.

* * *

Ul kishikim, doimo bordur qabih atvor¹ anga,
Xalqi olam ichra yo‘q, albatta, nangu² or anga.

¹ Atvor — yurish-turish, fe'l, harakat.

² Nang — or, nomus, uyat.

MUNDARIJA

Ergash Ochilov. Tafakkur bekti.....	3
Abu Abdullo Rudakiy.....	7
Abu Nasr Forobiy.....	11
Abulqosim Firdavsiy.....	14
Abu Rayhon Beruniy.....	17
Abu Ali ibn Sino.....	23
Ahmad Yassaviy.....	31
Nosir Xisrav.....	38
Abdulloh Ansoriy.....	41
Kaykovus.....	43
Yusuf Xos Hojib.....	50
Umar Xayyom.....	61
Imom G'azzoliy.....	69
Mahmud Zamaxshariy.....	74
Abdulxoliq G'ijduvoniy.....	78
Xoja Orif ar-Revgariy.....	81
Sulaymon Boqirg'oniy.....	84
Nizomiy Ganjaviy.....	86
Farididdin Attor.....	88
Adib Ahmad Yugnakiy.....	95
Bobo Afzal.....	107
Sa'diy Sheroziy.....	109
Jaloliddin Rumiy.....	116
Aziziddin Nasafiy.....	126
Amir Xusrav Dehlaviy.....	128
Pahlavon Mahmud.....	133
Shoh Ne'matulloh Valiy.....	138
Lutfiy.....	140
Abdurahmon Jomiy.....	142
Alisher Navoiy.....	151
Husayn Voiz Koshifiy.....	156
Sayyid Qosimiyy.....	160

Zahiriddin Muhammad Bobur.....	162
Ubaydiy.....	168
Fuzuliy.....	174
Boborahim Mashrab	177
Mirzo Abdulqodir Bedil.....	181
So'fi Olloyor.....	190
Huvaydo.....	193
Maxtumquli.....	198
Munis.....	208
Amiriy.....	211
Nodira.....	213
Muhammadrizo Ogahiy.....	217
Berdaq.....	222
Yusuf Saryomiy.....	226
Furqat.....	228
Muhsiniy.....	230
Haziniy.....	232
Avaz O'tar.....	234

Adabiy-badiiy nashr

HIKMATLAR XAZINASI

Muharrir *L. Igamova*

Rassom *A. Saidberdiyev*

Badiiy muharrir *R. Zufarov*

Texnik muharrir *U. Kim*

Musahhihlar *S. Salohutdinova , H. Djo'rayev*

Kompyuterda tayyorlovchi *F. Chanisheva*

Nashr lic. AI №158, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 13.01.2011.
Bichimi 84×108¹/₂. Tayms garniturasida ofset usulda bosildi.
Shartli bosma tabog'i 12,60. Nashr tabog'i 6,40. Nusxasi 5000.
Buyurtma №10-347

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi,
100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz

www.iptd-uzbekistan.uz

Hikmatlar xazinasi / to‘plovchi, so‘zboshi va izohlar
047 muallifi E. Ochilov. — T.: O‘zbekiston NMIU, 2010. —
240 b.

1. Ochilov Ergash (to‘plovchi).

ISBN 978-9943-01-619-4

ББК 87.7